O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

U.YU.O‘ROQOV

# DAVLAT XARIDI

*O‘zbekiston Respublikasi
oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida
tavsiya etilgan*

Toshkent – 2022

**UO‘K: 339.1(575.1)(075.8)**
**KBK: 65.290(5Узб)я7**

**U.Yu.O‘roqov. Davlat xaridi. 52320000 – “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun o‘quv qo‘llanma. T.: «Nihol print» OK, 2022. 200 b.**

**ISBN 978–9943–8102–4–2**

Mazkur o‘quv qo‘llanma 5232000 –“Davlat byudejtining g‘azna ijrosi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan “Davlat xaridi” fani dasturiga muvofiq yozilgan.

Qo‘llanmada davlat xaridlarini tashkil etishning nazariy, tashkiliy va amaliy jihatlari aks ettirilgan. Jumladan, davlat xaridining mohiyati, uning maqsadi va vazifalari, O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil qilishning huquqiy va tashkiliy asoslari, davlat xaridini amalga oshirish shakllari, davlat xaridlari jarayoniga doir umumiy talablar, xarid qilish tartib-taomillarni amalga oshirish kabi mavzular uzviylik va uzluksizlik nuqtai nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o‘z aksini topgan.

O‘quv qo‘llanma iqtisodiy sohadagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari talabalari, shuningdek, professor-o‘qituvchilar, byudjet tashkilotlari, muassasalari, davlat korxonalarining mutaxassislari uchun ham foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

**UO‘K: 339.1(575.1)(075.8)**
**KBK: 65.290(5Узб)я7**

**Taqrizchilar:**

**F.X.Maxamedov** – O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining Toshkent filiali boshqaruvchisi

**N.E.Jiyanova** – TMI,“Moliya” kafedrasi professori, i.f.n

**ISBN 978–9943–8102–4–2**

**© U.Yu.O‘roqov, 2022**
**© «Nihol print» OK, 2022**

# KIRISH

Bugungi kunda byudjet tashkilotlari va muassasalari hamda ustavida davlat ulushi 50% dan yuqori bo‘lgan korporativ tashkilotlarning mablag‘laridan tejamkorlik asosida foydalanish, ular ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovar (ish,xizmat)larni elektron axborot tizimlari orqali tashkillashtiriladigan savdolar orqali amalga oshirish alohida e’tibor qaratilmoqda.

Byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanishga samarali davlat xaridi tizimini shakllantirmasdan turib erishib bo‘lmaydi. Ma’lumki, davlat byudjeti mablag‘larining katta qismi byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilarning tasdiqlangan ehtiyojlarini tovar, ish, xizmatlar bilan ta’minlashga sarflanadi.

Davlat xaridlarini samarali tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg‘armalarining, shuningdek, ustavida davlat ulushi 50% dan yuqori bo‘lgan tashkilotlarning mablag‘lari hisobidan byudjet tashkilotlari, byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalardan mablag‘ oluvchilar, korporativ buyurtmachilarning ehtiyojlari uchun tovar(ish,xizmat)larni optimal narx va sifatda sotib olishga erishishdir.

Bu maqsadga erishish uchun bo‘lajak moliya tizimidagi mutaxassislarda, ya’ni talabalarda davlat xaridining mohiyati, uni tashkil etish jarayoni va mexanizmi, xaridni tashkil etish tartib-taomillari, davlat xaridlariga oid umumiy talablar, davlat xaridini takomillashtirishdagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘nalishlarini o‘rganish borasida nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta’limning 5232000 – “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar kelajakda moliya tizmi organlari (moliya, g‘aznachilik, pensiya bo‘limlari)da, byudjet tashkilotlarida, yoki byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalardan mablag‘ oluvchi boshqa tashkilotlarda, davlat ulushu 50 % va undan yuqori bo‘lgan korporativ tuzilmalarda mehnat faoliyatini yuritganlarida davlat xaridi tizimining bevosita yoki bilvosita ishtirokchisi bo‘ladilar. Shu bois, bo‘lajak mutaxassislarda mazkur tizim bo‘yicha etarlicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish maqsadida mazkur ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga “Davlat xaridi” fani kiritilgan.

Bu fanni o‘qitishni zaruriyatini davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg‘armalarining, ustavida davlat ulushi 50% va undan yuqori

bo‘lgan korporativ tuzilmalar mablag‘laridan oqilona va tejamkorlik asosida foydalanishni ta’minlash, ular ehtiyojlari uchun tovar va xizmatlarni optimal narxda va mukammal sifatda sotib olinishi bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislarda bilim va amaliy ko‘nikma hosil qilish bilan izohlash mumkin. Maskur o‘quv qo‘llanma aynan mana shu maqsadga xizmat qiladi.

Ushbu qo‘llanmada “Davlat xaridi” fanining predmeti, obyekti, metodi va boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi, davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va uni iqtisodiyotga ta’siri, davlat xaridini tashkil etishning huquqiy asoslari, davlat xaridini tashkil etish modellari va shakllari, davlat xaridlari jarayoniga doir umumiy talablar, elektron do‘kon orqali davlat xaridlarini amalga oshirish, boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion, tanlov savdolari, tender orqali davlat xaridlarini amalga oshirish, yagona etkazib beruvchi bilan amalga oshiriladigan davlat xaridlari, xarid qilish tartib-taomillarini monitoring va nazorat qilish kabi mavzular uzviylik va uzluksizlik nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o‘z aksini topgan.

# I QISM. DAVLAT XARIDLARINING ILMIY-NAZARIY VA TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

## 1-BOB. “DAVLAT XARIDI” FANINING OBYEKTI, PREDMETI, METODI VA BOSHQA FANLAR BILAN O‘ZARO ALOQADORLIGI

### 1.1. “Davlat xaridi” fanining mazmuni va uni o‘qitishning zaruriyati

Jahon miqyosida koronavirus infeksiyasi tarqalishi, korxonalar faoliyatini vaqtincha to‘xtashi eng yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlarda ishlab chiqarish va iste’mol hajmlarining keskin qisqarishi, global ishlab chiqarish zanjirlari va savdo aloqalarining izdan chiqishi, dunyo moliya bozorlarida xom ashyo tovarlari narxining pasayishi va konyunkturaning yomonlashuvini keltirib chiqardi.

Global iqtisodiyot tizimining bir qismi bo‘lgan O‘zbekiston iqtisodiyotiga ham mazkur omillar ta’sir qildi va hamon ta’sir qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida ushbu holatning salbiy ta’sirlarini yumshatish bo‘yicha samarali, oldini oluvchi choralar ko‘rishni talab qiladi. Bunda ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, turizm, transport, farmatsevtika va to‘qimachilik sanoati kabi respublika iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning barqarorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Dunyo iqtisodiyotida bo‘layotgan o‘zgarishlar davlat moliyasiga ham ta’sir o‘tkazmay qolmaydi, albatta. Mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy holatni barqaror saqlab turish uchun davlat moliyasini ham isloh etish lozim bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, davlat moliyasini isloh qilish yuzasidan olib borilayotgan o‘zgarishlarning markazida davlat byudjetining shakllanishi va uning mablag‘laridan yanada samarali foydalanish, byudjet taqchilligi o‘sishiga ta’sir etuvchi omillarning oldini olish, shu bilan birga byudjet va ustavida davlat ulushi bor korxonalar mablag‘laridan foydalanish jarayonida byudjet intizomlariga rioya etilishini ta’minlash va bunda mablag‘laridan tejamkorlik asosida maqsadli va oqilona foydalanish, qolaversa, samarali davlat xaridi tizimini shakllantirish orqali mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlash masalalari turadi.

Byudjet muassasalari va ustavida davlat ulushi 50% va undan yuqori bo‘lgan korxona va tashkilotlar mablag‘laridan oqilona foydalanishga samarali davlat xaridi tizimini shakllantirmasdan turib erishib bo‘lmaydi. Ma’lumki, davlat byudjeti mablag‘larining katta qismi byudjet tashkilotlari

va byudjetdan mablag‘ oluvchilarning tasdiqlangan ehtiyojlarini tovar, ish, xizmatlar bilan ta’minlashga sarflanadi. Ustavida davlat ulushi 50% va undan yuqori bo‘lgan korxona va tashkilotlar ham asosiy xarajatlarini tovar, ish, xizmatlarni xarid qilishga sarflaydilar.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldadagi “Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to‘g‘risida”gi PQ-1475 sonli Qarorini qabul qilinishi bilan davlat xaridlarini takomillashtirishning yangi davri boshlandi. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash yuzasidan mamlakatimizda davlat xaridlari tizimida inson omilini cheklovchi elektron savdolarni yo‘lga qo‘yish kabi muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2018 yilda qabul qilingan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun va 2021 yilda Qonun yangi tahrirda qabul qilinishi bilan ochiqlik, shaffoflik va raqobatga asoslanga davlat xaridi tizimi joriy etildi va tizim ancha takomillashtirildi.

Davlat xaridlarini samarali tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg‘armalarining, shuningdek, ustavida davlat ulushi 50% dan yuqori bo‘lgan tashkilotlarning mablag‘lari hisobidan byudjet tashkilotlari, byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalardan mablag‘ oluvchilar, korporativ buyurtmachilarning ehtiyojlari uchun tovar(ish,xizmat)larni optimal narx va sifatda sotib olishga erishishdir.

Bu maqsadga erishish uchun bo‘lajak moliya tizimidagi mutaxassislarda, ya’ni talabalarda davlat xaridining mohiyati, uni tashkil etish jarayoni va mexanizmi, xaridni tashkil etish tartib-taomillari, davlat xaridlariga oid umumiy talablar, davlat xaridini takomillashtirishdagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etishning samarali yo‘nalishlari borasida nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta’limning 5230600 -“Moliya”, 5232000 – “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi” yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan talabalar kelajakda moliya tizmi organlari (moliya, g‘aznachilik, pensiya bo‘limlari)da, byudjet tashkilotlarida, yoki byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalardan mablag‘ oluvchi boshqa tashkilotlarda, ustavida davlat ulushi 50 % va undan yuqori bo‘lgan korporativ tuzilmalarda mehnat faoliyatini yuritgalarida davlat xaridi tizimining bevosita yoki bilvosita ishtirokchisi bo‘ladilar. Shu bois, bo‘lajak mutaxassislarda mazkur tizim bo‘yicha

etarlicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish maqsadida mazkur ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga "Davlat xaridi" fani kiritilgan.

Bu fanni o'qitishni zaruriyatini davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalarining hamda ustavida davlat ulushu 50% va undan yuqori bo'lgan korporativ tuzilmalarning mablag'laridan oqilona va tejamkorlik asosida foydalanishni ta'minlash, ular ehtiyojlari uchun tovar va xizmatlarni optimal narx va sifatda sotib olish mexanizmlari bo'yicha bo'lajak mutaxassislarda bilim va amaliy ko'nikma hosil qilishdan iborat.

"Davlat xaridi" fani davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar, ustavida davlat ulushu 50 % va undan yuqori bo'lgan korporativ tuzilmalar mablag'lari hisobidan tovar(ish,xizmatlar)ni sotib olish mexanizmini chuqur o'rganish asosida xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga samarali tadbiq etish yo'llarini o'rgatadi.

"Davlat xaridi" fani davlat xaridi amaliyotidagi eng to'g'ri, eng mukammal va eng progressiv usul va mexanizmlarni nazariy o'rganib, yana amaliyotga eng to'g'ri, amalda ijobiy samara bergan usullar va ilg'or tajribalarni umumlashtirib beradi, amaliyotga yo'l ko'rsatish uchun zarur bo'ladi. Zero, mashhur iqtisodchi olimlar ta'kidlaganlaridek, "Nazariyasiz amaliyot yo'q, amaliyotsiz nazariya yo'q".

## 1.2. "Davlat xaridi" fanining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari

"Davlat xaridi" fani boshqa fanlar singari o'ziga xos predmet, maqsad va vazifalarga ega. "Davlat xaridi" fanining *obyekti* byudjet tashkilotlari, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalardan mablag' oluvchilar va ustavida davlat ulushi 50% va undan yuqori bo'lgan korporativ tuzilmalar ehtiyojlari uchun tovar (ish,xizmatlar) xarid qilish jarayonlaridir.

"Davlat xaridi" fanining *predmeti* esa byudjet tashkilotlari, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalardan mablag' oluvchilar hamda ustavida davlat ulushi 50% va undan yuqori bo'lgan korporativ tuzilmalar ehtiyojlari uchun tovar(ish,xizmatlar)ni sotib olishni rejalashtirish va xaridlarni amalga oshirish mexanizmidagi iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarni o'rganishdir. Fanning predmeti ana shu mexanizmni chuqur o'rganish, uni to'g'ri tashkil qilishni ta'minlashdir. To'g'ri tashkil etish deganda davlat xaridi munosabatlarida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e'tiborga olib, ular o'rtasidagi zaruriy muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni

saqlashda tomonlar manfaatini ochiqlik va raqobatlilik tamoyillariga amal qilish zarur bo'ladi.

Demak, "Davlat xaridi" fanini chuqur o'rganish orqali amaliyotda davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalarining, ustavida davlat ulushi 50 % va undan yuqori bo'lgan korporativ tuzilmalarning mablag'lari hisobidan byudjet tashkilotlari, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalardan mablag' oluvchilarning hamda korporativ tuzilmalar ehtiyojlari uchun tovar(ish,xizmat)larni muqobil variantda sotib olishda bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga va byudjet qonunchiligi talablaridan kelib chiqqan holda tartibga solishga erishish mumkin.

Fanning *maqsadi* esa bo'lajak moliya tizimidagi mutaxassislarda, ya'ni talabalarda davlat xaridi siyosatining mohiyati, uni rejalashtirish, tashkil etish jarayoni va mexanizmi, davlat xaridini samarali tashkil va boshqarishdagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning *vazifas*i esa talabalarga davlat xaridining iqtisodiy ahamiyati; davlat xaridining predmeti va subyektlari; davlat xaridini tashkil etish modellari; O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini isloh etish borasida hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar; davlat xaridining huququy asoslari, xalqaro savdo tashkilotida davlat xaridi bo'yicha shartnomadan ko'zlangan maqsad; davlat xaridlariga oid umumiy talablar, O'zbekiston Respublikasida Davlat xaridini tashkil etish jarayoni; davlat xaridini rejalashtirish; davlat xaridini tashkil etish shakllari; davlat xaridlarini tashkil etish tartib-taomillari; davlat xaridlarining nazorat tizimi haqida nazariy-amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat.

## 1.3. "Davlat xaridi" fanining metodlari va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

Har bir fanning metodi obyektiv borliqni, tabiat va jamiyatni rivojlanishni o'rganishda qanday yondashish lozimligini ko'rsatadi. Fanning o'z predmetini o'rganish usullari, vositalari uni metodi[1]ni ifodalaydi. Metod bu ilmiy bilishning tamoyillari tizimi, yo'llari, qonun - qoidalari va aniq hodisalaridir. Metod umumilmiy tavsifga ega, lekin har bir fan o'zining predmetidan kelib chiqib, o'zining ilmiy bilish usullariga

---

[1] Metod-grekcha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, nazariyot, ta'limot va amaliyotlarni o'rganishdagi izlanishlar yo'li degan ma'noni anglatadi.

ega bo‘ladi. Shuning uchun metod umumilmiy va ayni vaqtda xususiy bo‘ladi.

*Dialektika* ilmiy bilishning umumiy usuli bo‘lib xizmat qiladi. Dialektik uslubning mohiyati shundan iboratki, iqtisodiy hayotning barcha xodisalari va jarayonlari o‘zaro bog‘liqlikda va to‘xtovsiz rivojlanishda ko‘rib chiqiladi. O‘zgarish va rivojlanishlar qarama-qarshiliklar qonuniyatlari asosida bo‘lib,obyektiv haqiqat, haqiqiy borliq ifodalanadi, deb qaraladi. Ya’ni, har bir jarayon, iqtisodiy hodisa bor, mavjud va rivojlanishda deb qaraladi. Bu jarayonlar sondan sifat o‘zgarishiga va yangi sifatning paydo bo‘lishiga, inkorni inkor qilish, qarama qarshilik kurashiga, eskini tugashi va yangi ilg‘or jarayonlarni paydo bo‘lish xususiyatiga ega bo‘ladi.

“Davlat xaridi” fanining boshqa iqtisodiy fanlar singari o‘ziga xos tadqiqot usullari xam mavjud. Ulardan eng asosiylari quyidagilar:

A) *ilmiy abstraktsiya usuli* – voqea-hodisalarning tahlil paytida xalal berishi mumqin bo‘lgan ikkinchi darajali belgilari e’tibordan chetlashtirilib, o‘rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga, tegishli belgilarga e’tiborini qaratishdir.

B) *tahlil va sintez us*uli – tahlil bu o‘rganilayotgan bir butunni alohida qismllarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish, sintez esa – hodisa va jarayonlarni qismlarga bo‘lish asosida umumiy xulosa chiqarishdir.

S) *mantiqiylik va tarixiylikning birligi* usuli – tarixiylik dalili iqtisodiy fanlarda ham tarixiy nuqtai nazaridan tadqiqot olib borishni zarur qilib qo‘yadi. Chunki iqtisodiy jarayonlar jamiyatning tarixiy rivojlanish bosqichlarida ro‘y beradi. Mantiqiylik usulida jarayonlar faqatgina tarixiy nuqtai nazardan emas, shu bilan birga ichki zaruriy va qonuniy bog‘lanishlar bo‘yicha ham tahlil qilinadi.

“Davlat xaridi” fanini o‘rganishda shuningdek, *induktsiya va deduktsiya, taqqoslash, iqtisodiy-matematik usul*lardan ham foydalaniladi. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda amaliyotda davlat xaridi tizimini boshqarishda iqtisodiy-matematik usullardan keng foydalanilmoqda. Iqtisodiy-matematik usullarga korrelyatsion va regression tahlil usuli, integral usuli, chiziqli programmalashtirish, grafik usullar kabi usullar kiradi. Iqtisodiy-matematik usullar iqtisodiy axborotlarni kompyuterlarga kiritish, hisoblash va qayta ishlash, chuqur tahlil qilish, tegishli hisobot ma’lumotlarini tayyorlash, hamda bu ma’lumotlarni qisqa fursatda mas’ul idora va tashkilotlarga yuborishda qo‘llaniladi.

Bu usullar yordamida iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning mazmuni, ularda yuz berayotgan o‘zgarishlar, ularning kelib chiqish sabablari aniqlanib va zaruriy xulosalarga kelinadi.

Hozirgi kunda davlat moliyasini isloh qilish sharotida iqtisodiy jarayonlar va munosabatlardagi o‘zgarishlar har bir fan mazmunini sifat jihatdan yangilashni, tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqazo qilmoqda.

“Davlat xaridi” fani mazkur obyektiv talabdan kelib chiqqan aniq iqtisodiy fan bo‘lishi bilan bir qatorda, boshqa fanlardagi umumiy qonuniyatlar, tartiblarga rioya qiladi. Ya’ni, ko‘pgina iqtisodiy fanlar bilan o‘zaro bog‘likda bo‘ladi.

Jumladan, “Davlat xaridi” fani “Iqtisodiyot nazariyasi” fani bilan chambarchars bog‘liqdir. “Iqtisodiyot nazariyasi”da iqtisodiy kategoriyalar va atamalarning mazmuni va mohiyati ochib berilsa, “Davlat xaridi” fanida ushbu iqtisodiy kategoriyalar va atamalarning amal qilish mexanizmi o‘rganiladi. Masalan, “Iqtisodiyot nazariyasi” fanida “bozor” degan atamaning mazmuni nima ekanligi, uning turlari, ishtirokchilari haqida nazariy bilimga ega bo‘lsak, “Davlat xaridi” fanida “bozor”ning hayotiy shakllari – yarmarka savdolari, birja savdolari, elektron auksion savdolari, elektron katalog orqali savdolar, ochiq va yopiq tenderlar hamda ularni amalga oshirish tartibini o‘rganamiz.

“Davlat xaridi” fani “Moliya” fani bilan ham bog‘liqdir. Masalan, “Moliya” fanining “Davlat byudjeti xarajatlari” degan mavzusida byudjet xarajatlarining tarkibi, xarajatlar smetalar asosida moliyalashtirish tartibi tushuntirilsa, “Davlat xaridi” fanida ana shu smetalarning uchinchi va to‘rtinchi guruhlarida aks ettirilgan ehtiyojlarni xarid qilish va moliyalashtirish mexanizmi o‘rganiladi.

O‘zbekistonda davlat byudjetining g‘azna ijrosi amal qilishi, yagona g‘azna hisobraqamini yuritilishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlari bo‘yicha vakolatli organ – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ekanligi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi davlat xaridlari tizimida tuzilgan shartnomalarni, yuridik majburiyatlarni va ushbu shartnomalarni moliyalashtirish yuzasidan moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatga olish, ularni moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilishi bevosita “Davlat xaridi” fanini “G‘aznachilik” fanini o‘zaro bog‘liqda o‘rganishni talab qiladi.

Davlat xaridlari tizimida yarmarka savdolari, birja savdolari, elektron auksion savdolarining qo‘llanishi, mazkur savdo turlari va

ularning ishtirokchilari, savdolarga va undagi ishtirokchilarga qo‘yilgan talablar yuzasidan etarli ma’lumotga ega bo‘lish uchun “Davlat xaridi” fanini o‘rganishda “Moliya bozori va moliyaviy tehnologiyalar” fanini ham puxta bilish talab etiladi.

“Davlat byudjeti” fanida davlat byudjetining funksional xarajatlari, byudjet so‘rovini tayyorlash va taqdim etish tartibi, hamda belgilangan norma va normativlar asosida xarajatlar smetalarini tuzish, ro‘yxatdan o‘tkazish, byudjetdan moliyalashtirish kabi byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilar faoliyatini moliyalashtirishdagi asosiy jarayonlarni o‘rgatilishi “Davlat xaridi” fanini “Davlat byudjeti” fanini bevosita bog‘ligini ko‘rsatadi.

Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan davlat xaridi tizimida xarid qilingan tovar (ish, xizmatlar) yuzasidan belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini, hamda tegishli hisobotlarni yuritishning zaruriyati “Byudjet hisobi” fanini ham “Davlat xaridi” fani bilan iqtisodiy aloqadorligini namoyon qiladi.

Davlat byudjeti va byudjet tashqari jamg‘armalar, ustavida davlat ulushu 50 % va undan yuqori bo‘lgan korporativ tuzilmalar mablag‘laridan oqilona va tejamkorlik asosida maqsadli foydalanganlik darajasi, davlat xaridi tizimini amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshirilishi, byudjet tashkilotlari, byudjetdan mablag‘ oluvchilar hamda ustavida davlat ulushu 50 % va undan yuqori bo‘lgan korporativ tuzilmalar tomonidan moliyaviy qonunchilikka rioya etilishi ustidan davriy ravishda nazorat organlari tomonidan moliyaviy nazoratni amalga oshirilib turilishi, “Davlat xaridi” fanining “Moliyaviy nazorat” fani bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, “Davlat xaridi” fanida davlat xaridi tizimini baholash, o‘tkazilgan savdolar, undagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni ma’lum bir davr bilan taqqoslash, solishtirish, natijalarni puxta tahlil qilish uchun “Iqtisodiy matematika” va “Iqtisodiy tahlil” fanlaridan yaxshigina xabardor bo‘lish talab etiladi.

Va nihoyat, “Davlat xaridi” fanida elektron do‘kon, elektron auksion, elektron tanlov va tender savdolarini amalga oshirish va o‘tkazishning tashkiliy mexanizmlarini yaxshi tushunish uchun “Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari” fanidan etarli ko‘nikmaga ega bo‘lish lozim.

## Nazorat uchun savollar:

1. “Davlat xaridi” fanining zarurligini qanday izohlash mumkin?
2. O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimini takomillashtirish qachondan boshlandi?
3. “Davlat xaridi” fanining predmeti nima?
4. “Davlat xaridi” fanining maqsadi nimalardan iborat?
5. “Davlat xaridi” fanining vazifalarini qanday izohlash mumkin?
6. “Davlat xaridi” fanini o‘rganish qanday metodlari mavjud?
7. “Davlat xaridi” fani qanday fanlar bilan o‘zaro bog‘liq?

# 2-BOB. DAVLAT XARIDLARINING MOHIYATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

## 2.1. Davlat xaridining mohiyati va zaruriyati

Davlat xaridlari – davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) boʻlgan ehtiyojlarini pulli asosda taʼminlash jarayonidir[2]. Bizning fikrimizcha, davlat xaridlariga quyidagicha taʼrif berilishi uning mohiyatini kengroq ochib beradi. **Davlat xaridlari** – davlat buyurtmachilarining ehtiyojlari uchun zarur boʻlgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni belgilangan talablar va tartib-taomillar asosida sotib olish jarayoni.

Davlat buyurtmachilari ikkita yirik guruhga boʻlinadi:

**1) Byudjet buyurtmachilari**. Byudjet buyurtmachilari deganda quyidagi tashkilot va muassasalar tushuniladi:

– davlat organlari va muassasalari;

– byudjet tashkilotlari;

– xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yoʻnaltiriladigan byudjet mablagʻlarini oluvchilar;

– davlat maqsadli jamgʻarmalari;

– byudjet tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamgʻarmalar;

**2) Korporativ buyurtmachilar**. Korporativ buyurtmachilarga:

– davlat korxonalari;

– ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq boʻlgan yuridik shaxslar;

– ustav fondida (ustav kapitalida) davlat korxonalari va ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq boʻlgan yuridik shaxslarning ulushi jami 50 foiz va undan ortiq boʻlgan yuridik shaxslar kiradi.

Davlat xaridlari davlat buyurtmachilari faoliyat koʻrsatishlari uchun zarur boʻladigan tovar (ish, xizmat)larni mablagʻlardan tejamkorlik asosida, muqobil narx va sifatda sotib olishlariga xizmat qiladi. Bu jarayonni amalga oshirishda oldindan belgilangan talablar, shartlar, tartib-taomillar mavjud boʻlib, barcha davlat buyurtmachilari bu talablarga amal qilishlari shart sanaladi.

---

[2] Oʻzbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi "Davlat xaridlari toʻgʻrisida"gi OʻRQ-684-son Qonuni

Davlat xaridlari jamiyatda quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajaradi:

– ijtimoiy muassasalarni moddiy texnika bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, maktabgacha ta'lim muassasalari uchun oziq-ovqat, o'yinchoqlar; maktablar uchun stol-stul, komyuter texnikalari; sog'liqni saqlash muassasalari uchun tibbiy jihozlar va dori vositalari xaridi shular jumlasidandir.

– ijtimoiy infratuzilmani shakllantirishni va yaxshilashni ta'minlaydi. Masalan, yo'llar, ko'priklar qurish, ta'mirlash, jamoat transport vositalarini sotib olish, ichimlik suvi quvurlari va elektr liniyalarini tortish davlat xaridlari orqali amalga oshiriladi.

– iqtisodiyotda sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi. Yani, tadbirkorlik subyektlari davlat xaridlari tizimidagi savdolarda g'olib bo'lish uchun mahsulot tannarxi va narxini pasaytirish, sifatini esa oshirish choralari ko'radilar.

– mablag'larni tejash va ularni sarflash ustidan moliyaviy nazorat ta'minlanadi. Xarid qilishning qonun-qoidalari va xaridlar ustidan nazorat qiluvchi organlar ushbu vazifani amalga oshirilishini ta'minlaydilar.

– elektron savdolar rivojlanadi. Bugungi kunda xarid qilish tartib-taomillari maxsus elektron shaklda amalga oshirilayotganligi, xaridlar bo'yicha e'lonlar va tuzilgan shartnomalarni maxsus axborot portalida joylashtirilib borilishi barcha xarid tizimi subyektlaridan elektron savdolarda ishtirok etish bo'yicha zaruriy bilim va texnik jihozlarga ega bo'lishlarini talab etadi.

Davlat xaridlari orqali davlat buyurtmachilari faoliyatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tovar (ish, xizmat)larni sotib oladilar. Davlat xaridlari mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishiga, samarali ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga ham ko'mak beradi. Davlat ta'lim, tibbiyot, mudofaa, madaniyat, sport sohalarini moliyalashtirish va maqsadli rivojlanish dasturlari amalga oshirish uchun zarur tovar (ish, xizmat)larni xarid qiladi. Bu orqali davlat yirik buyurtmachi sifatida iqtisodiyotni tartibga solishdagi birinchi darajali vazifasini bajaradi. Davlat xaridlari tizimi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanishiga, xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kenagytirishga va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Davlat xaridi davlat organlari (tashkilot, muassasa, vazirliklar)ning funksiyasini amalga oshirish uchun qiladigan xarajatlarning asosiy qismini tashkil etib, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va investitsiya oqimini ta'minlash uchun ham qulay shart-sharoitlar shakllanishining

muhim omillaridan biri hisoblanadi. Davlat xaridi investitsiya salohiyatini samarali taqsimlash va davlat uchun strategik ahamiyatli bo‘lgan tarmoqlarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishining, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish va natijalarini ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilishning muhim vositasi sanaladi. Shuning uchun davlat xaridlarini tashkil etish bilan bog‘liq muammolar doim dolzarb bo‘lib, barcha davlatlarda davlat xaridi tizimini takomillashtirishga qaratilgan uzviy va davomli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

## 2.2. Davlat xaridi tizimining subyektlari va xarid predmeti

Davlat xaridlarining subyektlari – bu davlat xaridlari tizimida ishtirok etuvchi subyektlardir. Ular tarkibiga quyidagialr kiradi:

**1) Davlat buyurtmachilari: byudjet va korporativ buyurtmachilar**.

Byudjet buyurtmachilari – *davlat organlari va muassasalari* (vazirliklar, qo‘mitalar, sud, prokuratura, hokimiyat va h.k); *byudjet tashkilotlari* (maktabgacha ta’lim muassasalari, maktablar, tibbiyot muassasalari va h.k); *xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan byudjet mablag‘larini oluvchilar* (muzeylar, teatrlar, siyosiy partiyalar, ilmiy – tadqiqot institutlari va h.k); davlat maqsadli jamg‘armalari (pensiya jamg‘armasi, yo‘l jamg‘armasi, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi va h.k); *byudjet tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg‘armalar.*

Korporativ buyurtmachilar – *davlat korxonalari* (“Suvsoz” davlat unitar korxonasi, “Toshkent metropoliteni” davlat unitar korxonasi, “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasi va h.k); *ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar* (“O‘zbekneftgaz” AJ, “O‘zmilliybank” AJ “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ va h.k); *ustav fondida (ustav kapitalida) davlat korxonalari va ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarning ulushi jami 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar* (UzAuto PV, Energo Res MCHJ va h.k).

**2) Xarid komissiyasi.** Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish chog‘ida davlat buyurtmachisi tomonidan shakllantiriladigan, ushbu tartib-taomillarni o‘tkazish tartibida shakllantirilishi talab etiladigan kollegial organdir.

Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi

bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g'olibni (g'oliblarni) tanlashdan iborat.

Xarid komissiyasi davlat buyurtmachisi huzurida faoliyat ko'rsatadigan, davlat buyurtmachisining tegishli qarorlari bilan shakllantiriladigan va tarqatib yuboriladigan organdir.

Xarid komissiyasi toq sonli a'zolardan iborat bo'ladi(tanlovda kamida 5 nafar, tenderda kamida 7 nafar), uning a'zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog'liq bo'ladi hamda qonunchilikka muvofiq va olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin. Xarid komissiyasi a'zolari xolis bo'lishi va xarid qilish tartib-taomili g'olibini tanlashdan shaxsan manfaatdor bo'lmasligi kerak.

Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, u xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo'yishni va xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni e'lon qiladi, shuningdek xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi. Xarid komissiyasi raisi yo'qligida uning vazifalarini o'rinbosari bajaradi.

Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan mas'ul kotibi tashkil etadi.mXarid komissiyasining har bir a'zosi ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Xarid komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a'zolari hozirligida yuzma-yuz o'tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferentsiyalar (telekonferentsiyalar va hokazo) shaklida o'tkazilishi mumkin. Xarid komissiyasi eng yaxshi takliflarni tanlashni va tenderni elektron shaklda o'tkazish chog'ida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berish huquqiga ega.

Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmachisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalb etish mumkin.

Vakolatli organ vakilini boshqa davlat buyurtmachisining xarid komissiyasi tarkibiga kiritishga yo'l qo'yilmaydi.Xarid komissiyasi to'g'ri shakllantirilishi uchun davlat buyurtmachisi mas'uldir.

Xarid komissiyasi qarori xarid komissiyasi a’zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lib qolgan taqdirda xarid komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz bo‘ladi.

Xarid komissiyasi a’zolarida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo‘lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a’zosi bu masala ko‘rib chiqilgan majlisda o‘zini o‘zi rad etishi va mazkur masala bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda xarid komissiyasi majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

Agar xarid komissiyasiga mazkur komissiya a’zosining affillanganligi mavjudligi tegishli masala yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ma’lum bo‘lib qolgan bo‘lsa, uning o‘zi esa o‘zini o‘zi rad etmagan bo‘lsa, bunday a’zoning mazkur masala bo‘yicha ovoz berishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Agar xarid komissiyasiga tegishli masala bo‘yicha ovoz bergan mazkur komissiya a’zosining affillanganligi mavjudligi qaror qabul qilinganidan keyin ma’lum bo‘lib qolgan bo‘lsa, bunday a’zoning ovozi mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

Xarid komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

– xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

– takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

– takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;

– takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

– zarur bo‘lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta’minlash shaklini belgilaydi;

– xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;

– dastlabki malaka tanlovini o‘tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo‘lsa;

– zarur bo‘lganda dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

– zarur bo‘lganda baholash guruhini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

– xarid qilish tartib-taomillarini Qonunga muvofiq amalga oshiradi;

– xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g‘olibini va zarur bo‘lganda zaxiradagi g‘olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

Xarid komissiyasi davlat xaridlari ijrochisini aniqlash tartib-taomillarining davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, o‘zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliligi va beg‘arazligi uchun javobgar bo‘ladi.

Xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa sub’ektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

Xarid komissiyasi tomonidan o‘z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar davlat buyurtmachisi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari uchun majburiydir.

**3) Ixtisoslashgan tashkilot.** Ixtisoslashgan tashkilot davlat buyurtmachisining topshirig‘iga ko‘ra tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishni tashkil etish bo‘yicha shartnomaga asosan pulli asosda xizmatlar ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan yuridik shaxsdir.

Davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishni tashkil etish maqsadida ixtisoslashgan tashkilotni jalb qilishga haqli. Shartnomaning muhim shartlarini belgilash va shartnomani imzolash faqat davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi. Ixtisoslashgan tashkilotni jalb qilish Qonunda belgilangan talablar va mezonlar asosida davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashgan tashkilotlar davlat xaridlarini o‘tkazishni tashkil etish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish uchun quyidagi talablarga muvofiq bo‘lishi kerak:

– yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lishi;

– ixtisoslashgan tashkilotning muassislari orasida davlat xaridining boshqa sub’ektlari bo‘lmasligi;

– davlat xaridlarini o‘tkazishni tashkil etish bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘lgan bir nafardan kam bo‘lmagan xodimga ega bo‘lishi;

– maxsus axborot portaliga ulanish imkonini ta’minlovchi dasturiy-texnik vositalarga ega bo‘lishi.

Ixtisoslashgan tashkilot davlat buyurtmachisidan xarid tartib-taomillarini o‘tkazishni tashkil etish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish uchun zarur axborotni olish huquqiga ega, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Ixtisoslashgan tashkilot:

– davlat buyurtmachisining talabiga binoan xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishni tashkil etishning istalgan bosqichida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida hisobot taqdim etishi;

– davlat xaridlarining asosiy printsiplariga rioya etgan holda xizmatlar ko‘rsatishi;

– davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organning, Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning so‘roviga ko‘ra Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi to‘g‘risidagi axborotni taqdim etishi;

– xarid qilish tartib-taomillarining insofsiz ishtirokchilarning davlat xaridlarida ishtirok etishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rishi;

– har bir davlat xaridi uchun xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishni tashkil etish uchun mas’ul bo‘lgan shaxsni belgilashi;

– xarid qilish tartib-taomillarini Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari talablari asosida tashkil etishi shart.

*Ixtisoslashgan tashkilot quyidagi xizmatlarni ko‘rsatadi:*

– tovarning (ishning, xizmatning) boshlang‘ich narxini aniqlaydi, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno;

– marketing tadqiqotlarini va boshqa tadqiqotlarni o‘tkazadi;

– reklama ishlarini tashkil etadi;

– xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazish to‘g‘risidagi xabarnomalar, e’lonlar matnlarini, xarid qilish hujjatlarini rasmiylashtiradi;

– xarid qilish tartib-taomillari talablari, shartlari va ular bo‘yicha tushuntirishlar matnlarini qonunchilikka muvofiq tayyorlaydi;

– davlat buyurtmachisiga xarid qilish tartib-taomilining turini taklif qiladi;

– davlat buyurtmachisining yozma murojaatiga ko‘ra davlat xaridlarining tartibi va muddatlari to‘g‘risidagi axborotni davlat xaridlarining elektron tizimiga va maxsus axborot portaliga qonunchilikka muvofiq joylashtiradi;

– g‘oliblar bilan imzolanadigan shartnomalar loyihalarini tayyorlaydi;

– davlat buyurtmachisining yozma topshirig‘iga ko‘ra bo‘lajak davlat xaridlari to‘g‘risidagi e’lonlarni faqat moliyalashtirish manbalari mavjudligi tasdiqlangan taqdirda, joylashtiradi;

– davlat buyurtmachisining yozma topshirig‘iga ko‘ra xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilariga o‘z takliflarining amal qilish muddatini muayyan muddatga uzaytirish to‘g‘risidagi taklif bilan murojaat qiladi;

– xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini rasmiylashtiradi;

– xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazish yakunlari bo‘yicha hisobotlar tuzadi;

– xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish uchun taklifnomalar yuborilishini ta’minlaydi.

Ixtisoslashgan tashkilot yoki uning affillangan shaxsi o‘zi tashkilotchi bo‘lgan xarid qilish tartib-taomilida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi sifatida qatnashishi mumkin emas. Davlat buyurtmachisi ixtisoslashgan tashkilotni belgilangan talablarga muvofiq jalb etish uchun javobgardir.

Davlat xaridlarining amalga oshirilishi chog‘ida ixtisoslashgan tashkilot tomonidan Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari talablari buzilgan hollarda javobgarlik davlat buyurtmachisi va ixtisoslashgan tashkilot zimmasiga yuklatiladi.

**4) Ekspert, ekspert tashkiloti.** Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida maslahat va (yoki) takliflarni ko‘rib chiqish, baholash hamda taqqoslash bo‘yicha xulosa olish uchun ekspertlar yoki ekspert tashkilotlari tegishli shartnoma asosida jalb etilishi, shu jumladan tekin asosda jalb etilishi mumkin.

Ekspert maslahat xizmatlarini ko‘rsatish va (yoki) xulosa berish uchun davlat xaridlari predmeti bilan bog‘liq sohada maxsus bilimlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxsdir.

Ekspert tashkiloti xodimlari maslahat xizmatlarini ko‘rsatish va (yoki) xulosa berish uchun davlat xaridlari predmeti bilan bog‘liq sohada maxsus bilimlarga ega bo‘lgan yuridik shaxsdir.

Ekspert, ekspert tashkiloti xizmatlarni davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etgan holda ko‘rsatishi shart.

**5) Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi.** Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi xarid qilish tartib-taomilida davlat xaridlarini bajarish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan, O‘zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxsdir.

Ishtirokchi:

– davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotdan qonunchilikda nazarda tutilgan hajmda foydalanish;

– davlat buyurtmachisiga yoki ushbu buyurtmachi tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilotga muayyan davlat xaridlarining tartib-

taomillari, ularni o‘tkazish talablari va shartlari bo‘yicha so‘rovlar berish hamda ulardan tushuntirishlar olish;

– xarid komissiyasi tomonidan takliflar ochilayotganda belgilangan tartibda ishtirok etish;

– Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga xarid qilish tartib-taomillari natijalari yuzasidan shikoyat qilish;

– qonunchilikka muvofiq takliflarga o‘zgartirishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish huquqiga ega.

Ishtirokchi davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi, xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lgan takliflar va hujjatlarni taqdim etishi hamda taqdim etilgan axborotning ishonchliligi uchun javobgar bo‘lishi, asosiy benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etishi, g‘olib deb topilgan taqdirda, davlat buyurtmachisi bilan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishi shart.

Ishtirokchi va uning affillangan shaxsi elektron do‘kon, auktsion, eng yaxshi takliflarni tanlash va tender bo‘yicha ayni bitta lotda ishtirok etish huquqiga ega emas.

**6) Davlat xaridlarining ijrochisi.** Davlat xaridlarining ijrochisixarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha g‘olib deb topilgan va o‘zi bilan davlat xaridlari to‘g‘risida shartnoma tuzilgan ishtirokchidir.

Ijrochi:

– davlat buyurtmachisi bilan tuzilgan shartnomani bajarish jarayonida tushuntirishlar olish uchun unga murojaat qilish;

– etkazib berilgan tovar (ish, xizmat) uchun haq olish;

– shartnoma shartlariga muvofiq va (yoki) qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

Ijrochi qonunchilik talablariga rioya etishi, shartnomani uning shartlariga muvofiq bajarishi, asosiy benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etishi, shartnomani bajarish jarayonida davlat buyurtmachisiga yoki vakolatli davlat organiga uning so‘rovi bo‘yicha tushuntirishlar va axborot berishi shart.

**7) Davlat xaridlari elektron tizimining operatori**

Davlat xaridlari elektron tizimining operatori davlat xaridlarining subyektlariga davlat xaridlarining elektron tizimlarida xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatadigan, davlat

xaridlari sohasidagi vakolatli organ tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli yuridik shaxsdir.

Davlat xaridlari elektron tizimining operatori:

– davlat xaridlari elektron tizimining uzluksiz ishlashini, unga joylashtirilgan axborotning but saqlanishini va bir butunligini, o‘z elektron resursining tegishli davlat boshqaruvi organlarining rasmiy veb-saytlari va axborot tizimlari hamda maxsus axborot portali bilan belgilangan tartibda uyg‘un ishlashini ta’minlaydi;

– qonunchilikka muvofiq axborotning elektron shaklda saqlanishini, shu jumladan elektron hujjatlar va elektron xabarlarning saqlanishini ta’minlash, shuningdek xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishda davlat xaridlarining elektron tizimini to‘g‘ri ishlashi uchun javobgar bo‘ladi;

– o‘z elektron resursini O‘zbekiston Respublikasi hududidagi apparat-texnika vositalariga joylashtiradi;

– vakolatli organ, davlat xaridlari jarayonida ishtirok etayotgan boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

Davlat xaridlari elektron tizimining operatori ishtirokchi, ijrochi sifatida, shuningdek o‘zining elektron tizimida davlat buyurtmachisi sifatida davlat xaridlarida ishtirok etishga, ularning affillangan shaxsi bo‘lishga, davlat xaridlarini amalga oshirish va narx belgilash jarayoniga aralashishga, kontragentlarni tanlashda va shartnomalar tuzishda davlat xaridlari sub’ektlarining erkinligini cheklashga, shuningdek davlat xaridlari sub’ektlarining huquqlarini boshqacha tarzda cheklashga, (bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno),uzatiladigan, olinadigan va saqlanadigan elektron hujjatlar hamda elektron xabarlarning ishonchliligini, shuningdek agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ularning qonunchilikka muvofiqligini nazorat qilishga yoki tekshirishga, davlat xaridlari sub’ektlari tomonidan joylashtiriladigan elektron hujjatlar va elektron xabarlarning mazmunini o‘zgartirishga haqli emas.

Davlat xaridlari elektron tizimining operatori davlat xaridlari sub’ektlarining ushbu operatorga beriladigan elektron hujjatlari va elektron xabarlarining, shu jumladan bo‘lajak davlat xaridlari to‘g‘risida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladigan axborotning mazmuni bilan bog‘liq huquqiy oqibatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

*Davlat xaridlarining predmeti* bu tovar, ish, xizmatdir. Har bir davlat buyurtmachisi biror savdo natijasiga ko'ra ma'lum bir tovar yoki ish, yohud xizmatni sotib oladi.

## 2.3. Davlat xaridiga oid nazariy qarashlar

Deyarli barcha mamlakatlarda davlat xaridlari uchun davlat budjetidan qiladigan xarajatlar salmoqli bo'lib, bu davlat xaridlarini boshqarish tizimini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan, budjet mablag'laridan samarali foydalanish, buyurtmalarni joylashtirishning oshkoraligi va shaffofligini ta'minlash, adolatli raqobat rivojlanishi va buyurtmalarni joylashtirishda korrupsiyani oldini olish maqsadida davlat xaridini boshqarish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Avvalo, aytib o'tish joizki, amaldagi qonunchiligida davlat ehtiyojlarini qondirish sifatini oshirish va optimallashtirish maqsadida "davlat buyurtmasi" ga yaxlit va aniq ta'rif yoki tayanch tushuncha mavjud emas. Bu bo'yicha L.M.Davletshina, V.S.Gladkov va boshqa bir qancha yosh olimlarning fikrlariga ko'ra, davlat buyurtmasining mavjud talqini uning asl mohiyatini aks ettirmay, "davlat buyurtmasi" va "davlat xaridi" tushunchalarini aralashtirib yubormoqda va bu bilan amaliyot tartibotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda[3].

L.V. Andreyeva davlat xaridlarining huquqiy masalalarini o'rganishda "davlat ehtiyojlari" ni mustaqil ma'noga ega bo'lgan huquqiy tushuncha sifatida alohida ajratib ko'rsatdi. Bunda davlat va davlat buyurtmachilarining funksiya va vakolatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan davlat ehtiyojlarining tarkibiga tovar, ish va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlar kiradi.[4]

Qonunchilikka ko'ra tovarlarni yetkazib berish, ishlar bajarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha buyurtmalar joylashtirish deganda, qonunga belgilangan tartibda, buyurtmachilar, vakolatli davlat organlarining mol yetkazib beruvchilar (ijrochilar, pudratchilar) ni tanlash bo'yicha va davlat

---

[3] Давлетшина Л.М. Государственный заказ как инструмент проведения промышленной политики (на примере Республики Татарстан): Дисс. … канд. экон. наук. Казань, 2007. С. 47; Гладков В.С. Государственный заказ в сфере государственного управления экономикой: Дисс. … канд. юрид. наук. Ростов-на-Дону, 2008. С. 14.

[4] Андреева Л.В. Закупки товаров для федеральных государственных нужд: правовое регулирование. М.: Волтерс Клувер, 2009. С. 24.

ehtiyojlarini qondirish maqsadida ular tomonidan tovarlar yetkazib berish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha davlat shartnomalarini tuzish harakatlari tushuniladi.

“Davlat ehtiyojlari” va “Davlat ehtiyojlari uchun buyurtma joylashtirish” tushunchalarining mohiyatini ko‘rib chiqar ekanmiz, bunda “davlat ehtiyojlari” tushunchasi “davlat buyurtmasi” tushunchasiga nisbatan kengroq mazmunga ega degan xulosa kelamiz, chunki davlat buyurtmasi davlat ehtiyojlarining umumlashgan va rasmiylashtirilgan ko‘rinishi hisoblanadi. Bunda shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, bu terminlarning ham mazmuni, ham tarkibi jihatdan amaliyotda ishlatilishi bir xil.

Sobiq Sovet qonunchiligida davlat buyurtmasi individual rejaviy hujjat sifatida qaralib, u korxona rejasi tarkibida bo‘lgan va iste’molchilarning buyurtmasiga asoslangan umumiy ishlab chiqarish dasturini shakllantirishda uning mustaqilligini kafolatlagan.

Rossiya qonunchiligining nazariyasida davlat buyurtmasi deganda davlat organlari tomonidan mahsulot ishlab chiqarish, tovarlarni realizatsiya qilish, ishlarni bajarish uchun qilinadigan va davlat budjetidan moliyalashtiriladigan buyurtmasi tushuniladi. Bunday buyurtmani nafaqat davlat korxonalari, balki boshqa korxonalar ham amalga oshirishlari mumkin. Buyurtma, odatda, tanlov asosida beriladi. Davlat buyurtmasi xo‘jalik yurituvchi munosabatlarini bevosita tartibga solishning usuli hisoblanadi. Bunday ta’rifni A.A.Xramkin boshligidagi avtorlik kengash ham qo‘llab-quvvatlamoqda[5].

Keng ma’noda, davlat buyurtmasi deganda, davlat boshqaruv organlarining tovar, ish, xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlari tushunilib, bu ehtiyojlar budjet va nobudjet fondlarining mablag‘lari hisobidan, ya’ni budjet va nobudjet fondlariga jamg‘arilgan soliq to‘lovchilarning mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Bu fikrni I.I.Smotritskaya ham ilgari suradi va qo‘shimcha ravishda bu ehtiyojlarning nimaga asoslanganligini va uni to‘gri rasmiylashtirish kabi aspektlarga oydinlik kiritadi[6].

---

[5] Настольная книга госзаказчика / Под ред. А.А. Храмкина. 4-е издание, доп. М.: ИД «Юриспруденция», 2008. С. 187.

[6] Смотрицкая И.И. Развитие рынка государственных заказов: институты и механизмы (научный доклад). М., 2007. С. 7; Смотрицкая И.И. Экономика государственных закупок. М.: Книжный дом «ЛИБЕРКОМ», 2009. С. 22.

Tor ma'noda, davlat buyurtmasi- bu aniq bir davlat organining ma'lum bir tovar, ish va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarining ro'yxatidir.

V.Ye.Belov davlat xaridiga iqtisodiy kategoriya sifatida qarar ekan, unga davlatning u yoki bu tovarga bo'lgan konkretlashgan (miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarni belgilagan holdagi) ehtiyoji, deb ta'rif beradi[7].

Ba'zi iqtisodchi-olimlar "davlat buyurtmasi" ning mohiyatini ochishda, jahon iqtisodiy nazariyasi va makroiqtisodiyotga tayanadi. Misol uchun, T.V.Fraybergning fikricha, "davlat buyurtmasi" – bu budjetdan moliyalashtirishni tashkil etishning bir shakli bo'lib, o'ziga xos belgilari (qaytarishlilik va qaytarib berilmaslik), prinsiplari, tasnifi va rivojlanish bosqichlariga ega. A.F.Nozdrachevning ta'kidlashicha, davlat buyurtmasi davlatning bozor sharoitida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy instrumentlardan biri, shuningdek, u huquqni tartibga soladigan bozor instrumenti ham hisoblanadi[8]. L.M.Davletshina qarama-qarshi fikrga ega bo'lib, uning fikricha, davlat buyurtmasi bu davlatning o'z funksiyalari va xalqaro majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni turli xil korxonalarga yuklatilishi, davlat xaridi esa bu raqobatbardosh bozorda davlat boshqaruv organlari tomonidan bevosita shu buyurtmani amalga oshirish jarayonidir. Bizning fikrga ko'ra bu ta'rif noto'g'ri hisoblanadi, chunki bu "davlat buyurtmasi" kabi keng mazmunli tushunchaning faqatgina iqtisodiy tomonini yoritib bermoqda, ammo uni rejalashtirish va joylashtirish kabi muhim tomonlari hisobga olinmadi.

V.I.Kuznetsovning fikriga ko'ra, davlat buyurtmasi - davlatining Konstitutsiyasi, qonunlari va funksiyalarini amalga oshirishning ommaviy-huquqiy institutidir. Bu institut davlat va xususiy subyektlar o'rtasidagi ma'muriy tartibdagi ko'rinishga ega bo'lib, o'z tarkibiga konstitutsion, ma'muriy, budjet va fuqarolik huquqlarning moddiy va protsessual me'yorlarni oladi hamda Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan ommaviy ehtiyojning ommaviy-huquqiy institutini shakllantirish jarayonini va uning huquqiy maqomini o'rnatish xususiyatiga ega[9].

---

[7] Белов В.Е. Правовое регулирование размещения государственного заказа // Право и экономика. 2005. № 2.

[8] Ноздрачев А.Ф. Государство как заказчик продукции // Государство и право. 1994. № 7.

[9] Кузнецов В.И. Правовое регулирование институту государственного заказа: Дисс. … канд. юрид. наук. Москва, 2005. С. 86.

Bu borada R.A.Nabiyev va R.K.Ariqbayevning fikrlari alohida e'tiborga loyiq. Ular "davlat buyurtmasi" tushunchasidan davlat mudofaasi va xavfsizligini ta'minlashda paydo bo'ladigan ehtiyojlarni, "davlat xaridi" dan esa davlatning boshqa ehtiyojlarni tushuntirishda foydalanishgan[10].

1996 yilda T.F.Ryabova boshchiligidagi mualliflik kollektivining nashriga ko'ra, davlat buyurtmasi bu davlatning ehtiyojlarini qondirishni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan davlat iste'moliningbir shaklidir. Bunda "davlat xaridi" tushunchasi ham alohida ajratib ko'rsatilgan va unga mehnat predmetlari va vositalarini xarid qilish, fuqarolik qurilish dasturlarini realizatsiya qilish hamd davlat korxonalariga kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan davlat ehtiyojlarining bir shakli, deb ta'rif berilgan[11].

L.P.Kurakov va V.L.Kurakov davlatning tovar va xizmatlar xaridi tarkibiga federal, respublika va mahalliy hukumat organlarining korxonalarning tayyor mahsulotiga va barcha resurslar, ayniqsa ishchi kuchi resursiga qiladigan xarajatlarini kiritadi. Bunda ular tarkibiga transfert to'lovlar kiritilmaydi[12].

A.B.Barixin fikriga ko'ra, xarid – bu mamlakat tashqarisi yoki ichkarisidan tovarlarni yirik hajmda sotib olishdir, davlat organlari tomonidan qilinadigan xarid esa "davlat xaridi" hisoblanadi[13].

"Davlat xaridi" terminini ishlatishda A.V.Pikulik uning mazmunini kengaytirdi va tarkibiga davlat ehtiyojlari uchun davlat mablag'lari hisobidan tovar, ish va xizmatlarni xarid qilish jarayonini ham kiritdi[14].

N.V.Nesterovich va V.I.Smirnov xarid tushunchasiga davlat buyurtmachisi tomonidan tovar, ish va xizmatlarni tegishli budjet va fond mablag'lari hisobidan sotib olish, deb ta'rif berishgan[15].

---

[10] Набиев Р.А., Арыкбаев Р.К. Повышение эффективности бюджетных расходов системы государственных заказов и закупок // Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях. 2008. № 15.

[11] Большой коммерческий словарь / Под ред. Т.Ф. Рябовой. М.: Война и мир, 1996. С. 88, 91.

[12] Кураков Л.П., Кураков В.Л. Большой словарь экономических и юридических терминов. М.: Вуз и школа, 2001. С. 138.

[13] Барихин А.Б. Большой юридический энциклопедический словарь. 2-е издание, перераб. и доп. М.: Книжный мир, 2008. С. 208.

[14] Пикулик А.В. Управление государственными закупками: Монография. М.: Издательский дом «Финансовый контроль», 2006. С. 23.

A.A.Demin “xarid” tushunchasini oʻrganishda makroiqtisodiy nazariyaga yondoshib, bu shaxsiy yoki vazirliklar huzuridagi tashkilotlarning joriy ehtiyojini qondirish yoxud investitsion maqsadlar uchun tovar, ish, xizmatlarni muntazam ravishda va yirik hajmda, yirik summada sotib olishga yoʻnaltirilgan maqsadli faoliyat, deb tushuntiradi[16].

Koʻpgina olimlarning fikricha,“davlat xaridi” mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmlatlarning bir qismi boʻlib, ular hukumat, davlat organlari tomonidan oʻz va aholi isteʼmolini taʼminlash va saqlash maqsadida davlat budjeti mablagʻlari hisobidan xarid qilinadi. Ammo, bizning fikrimizcha, bu fikr haqiqatga mos kelmay oʻz mohiyatini yoʻqotdi, chunki buyurtmani joylashtirish nafaqat budjet mablagʻlari hisobiga, balki moliyalashtirishning nobudjet manbalari hisobiga ham amalga oshiriladi hamda buyurtmani joylashtirishda davlat buyurtmachilari tarkibiga yuqoridagilar bilan birga barcha davlat tashkilotlari va boshqa budjet mablagʻlarini oluvchi va moliyalashtirishning nobudjet manbalari mablagʻlarini oluvchi tashkilotlar ham kiradi.

“Xarid” atamasi turli davlat organlari tomonidan xarid qilinadigan tovar, ish va xizmatlarni xarid qilishni tartibga soladigan xalqaro meʼyoriy-huquqiy normalarda hamda tijorat sohasida buyurtmachining shartnoma asosida mahsulotni sotib olishi tushunchasi sifatida keng tarqalgan. Bunda RF Fuqarolik Kodeksiga binoan shartnoma deganda ikki yoki undan ortiq tomonlarning oʻzaro kelishuvi (bu hujjat “shartnoma” deb rasmiylashtirilgani yoki yoʻqligidan qatʼiy nazar) tushuniladi.

G.I.Martinenko savdo va tariflar boʻyicha Umumiy kelishuvga asoslanib shuni taʼkidlab oʻtadiki, bu hujjatning 8 betidagi “a” bandida davlat xaridi davlatning ehtiyojlari uchun, keyinchalik tijoratda qayta sotish yoki tijorat faoliyatini yuritish uchun shu mahsulotlardan ishlab chiqarishda foydalanishni koʻzda tutmaganholda, mahsulotlarni davlat agentliklari tomonidansotib olinishi sifatida talqin etilgan[17].

---

[15] Нестерович Н.В., Смирнов В.И. Конкурсные торги на закупку продукции для государственных нужд / Под ред. А.Г. Свинаренко. М.: ИНФРА-М, 2000. С. 124.

[16] Демин А.А. Государственный заказ как фактор развития государственного сектора трансформационной экономики: теоретико-экономические аспекты: Дисс. … канд. экон. наук. Челябинск, 2007. С. 63, 65.

[17] Мартыненко Г.И. Размещение заказов на поставки товаров, выполнение работ, оказание услуг для государственных и муниципальных нужд, антимонопольный контроль // Право и экономика. 2006. № 10.

I.I.Smotritskaya, O.A.Skutelnik va V.V.Ilyuxin kabi olimlar “davlat xaridi” va “davlat buyurtmasi” tushunchalarini birlashtirib, davlat xaridi - davlat ehtiyojlari uchun tovar, ish va xizmatlarni xarid qilishning,ya’ni davlat buyurtmasini amalga oshirishning so‘nggi yakunlovchi bosqichi, degan fikrni ilgari suradilar[18].

Yuqoridagi atamalarning har tomonlama tahlilidan kelib chiqib, biz “davlat buyurtmasi” va “davlat xaridi” tushunchalari bir-biriga o‘xshash degan fikrga keldik. Bu sohaning qonunchilikda ma’muriy va fuqarolik me’yorlar bilan taribga solinishini hisobga olib hamda “davlat xaridi” tushunchasi ancha oldin shakllanganligi va hozirgi kunda iqtisodchi, moliyachi va tahlilchilar tomonidan davlat ehtiyojlari uchun buyurtmalarni joylashtirishni tartibga solish sohasida tushuncha va terminlarni o‘xshash talqin etish maqsadida foydalanayotganliklarini inobatga olib, “davlat buyurtmasi” tushunchasini qonun jihatdan mustahkamlab qo‘yishni taklif etamiz. Fikrimizcha, davlat buyurtmasi o‘z ichiga davlat ehtiyojlarini qondiradigan, budjet va nobudjet mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan hamda davlat buyurtmachisi tomonidan xarid qilinadigan tovar, ish, xizmatlarning asoslangan hajmi va shakllantirilgan ro‘xatini olishi kerak.

Shunday qilib, fikrimizcha, davlat buyurtmasi – bu davlat ehtiyojlarini qondirish maqsadida amalga oshiriladigan murakkab va davomiy jarayon bo‘lib, prognozlashtirish, rejalashtirish va shakllantirish, joylashtirish, amalga oshirish va nazorat kabi bosqichlardan iborat.

Prognozlashtirish – bu baholash jarayoni bo‘lib, bunda “davlat ehtiyojlari” tushunchasi ostida bo‘lgan davlatning u yoki bu ehtiyojlarini qondirish muhimliligi, davlat buyurtmasining istiqboli va unga qilinadigan xarajatlar baholanadi. Baholash jarayoni ma’lum davrdagi bozor sharoitlarining o‘zgarishi va bozor konyukturasini tahlil qilish hamda marketing tadqiqotlariga asoslanadi. Prognozlashtirish natijalari davlat buyurtmasini rejalashtirish va shakllantirish davomida hisobga olinadi.

Davlat buyurtmasini rejalashtirish va shakllantirish – ma’lum davr mobaynidagi davlat buyurtmachisining tovar, ish, xizmatlarga bo‘lgan

---

[18] Смотрицкая И.И. Указ. соч. С. 7; Скутельник О.А. Государственные закупки в системе обеспечения национальной безопасности: понятие и принципы. Доклад по проблемам правового регулирования размещения заказов на поставки товаров для государственных нужд // www.rea.ru – официальный сайт РЭА им. Г.В. Плеханова

ehtiyojini qondirish maqsadida kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonidir.

Davlat buyurtmasini joylashtirish - buyurtmachining tovar yetkazib berish, ishlar bajarish va xizmatlar koʻrsatish uchun kontragentlarni tanlash va ular bilan shartnoma tuzishni tartibga soluvchi qonunchilikka asoslangan harakatlaridan iborat.

Davlat buyurtmasini amalga oshirish va uning nazorati oʻz ichiga quyidagilarni oladi: davlat buyurtmasi sohasining subyektlari tomonidan RF ning amaldagi qonunchiligiga, shu jumladan, shu sohani tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar va shartnoma majburiyatlariga qat’iy amal qilishlari; davlat buyurtmasi subyektlari harakatlari ustidan doimiy va har tomonlama nazoratni oʻrnatish; davlat buyurtmasini joylashtirishda vujudga keladigan muammoli vaziyatlarni suddan tashqari, ma’muriy tartibda hal etish kabilar.

M.N.Kozin fikricha, davlat buyurtmasi nafaqat davlat ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida, balki iqtisodiyotda raqobatni rivojlantirish uchun inqiroz holatdagi tarmoqlarni qoʻllab-quvvatlash instrumenti sifatida ham namoyon boʻladi. Bundan tashqari, davlat buyurtmasi mamlakatning inqirozga qarshi siyosatining muhim elementi boʻlib ham xizmat qilishi mumkin[19].

Shuni ta’kidlab oʻtish zarurki, davlat buyurtmasining aniq maqsadini belgilash oʻta muhim hisoblanadi, chunki bu bilan nafaqat qonun chiqarish jarayoni, balki huquqiy normalarni toʻgri talqin etish va ulardan foydalanish uzviy bogʻliq hisoblanadi. Federal qonunni tahlil qilganda, unda davlat buyurtmasining bir necha maqsadlari keltirib oʻtilgani aniqlandi. Ammo, fikrimizcha,Federal qonunda davlat buyurtmasining yagona, umumiy maqsadi boʻlishi kerak. Lekin shunga qaramay koʻpgina mualliflar maqsadlarning turli xilligini qoʻllab-quvvatlamoqdalar.

V.I.Smirnovning fikricha,xaridlar toʻgʻrisidagi qonunchiligda maqsad va vositalarning oʻrni almashgan: vositalar – “mustaqil” maqsadlar sifatida talqin etiladi, haqiqiy maqsad esa mavhumlikka yoyilgan. Natijada notoʻgʻri belgilangan maqsadlar koʻrsatkichlari kiritilgan yutuqlardan dalolat beradi, aslini olganda esa ehtiyojlarni qondirishning real holati yomonlashib bormoqda. Ijtimoiy xaridlar va qonunchilikning bu sohadagi

---

[19] Козин М.Н. Государственный оборонный заказ: теория и практика управления рисками: Монография. Вольск: ВВВУТ (ВИ), 2007. С. 15, 16.

maqsadi – belgilab qo‘yilgan mablag‘lar doirasida davlat va munitsipal ehtiyojlarni qondirish samaradorligini oshirish hisoblanadi[20].

Mazkur fikrga qo‘shilgan holda, o‘ylaymizki, maqsad tushunchasi mavhumlashtirilgan, “mustaqil maqsadlar” deb yozilgan tushuncha esa shunchaki asosiy maqsadga erishish usullari hisoblanadi. Bu taxmin A.A.Xramkin boshchiligidagi mualliflar kollektivining nazariy va metodologik izlanishlariga asoslangan bo‘lib, Federal qonunda sanab o‘tilgan maqsadlar davlat (ijtimoiy) xaridlarning asosiy va qo‘shimcha tamoyillari sifatida talqin qilingan.

Shunday qilib, “davlat xaridi” va “davlat buyurtmasi” tushunchalarining xilma xil ta’riflari oqibatida bu sohada qonunchilikni ishlab chiqish va davlat buyurtmasini takomillashtirish borasida takliflar kiritish qiyinlashib qoldi.

Qonunchilikda qat’iy belgilangan tushunchalarning yo‘qligi oqibatida davlat buyurtmasi sohasida huquqiy muzokaralarga olib kelib, qo‘yilgan vazifalarga va savdo natijalariga erishilmay qolmoqda.

Ijobiy natijaning yo‘qligi – davlat buyurtmasini tartibga soluvchi qonunchilik bazasining kuchsizligi va samarasizligidan dalolat, demakki, bu uni qayta shakllantirishni boshlash uchun asosdir.

Fikrimizcha, davlat buyurtmasi – bu davlat ehtiyojlarini qondirish maqsadida amalga oshiriladigan murakkab va davomiy jarayon bo‘lib, prognozlashtirish, rejalashtirish va shakllantirish, joylashtirish, amalga oshirish va nazorat kabi bosqichlardan iborat va davlatning inqirozga qarshi siyosatining muhim elementi bo‘lib hisoblanadi.

Huquq me’yorlarini bir xil talqin etish va qo‘llash maqsadida mazkur tushunchani qonunchilikda va mos tarzda barcha davlat va mahalliy darajadagi davlat hokimiyatining me’yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yish zarur.

---

[20] Смирнов В.И. Ошибочные цели – ложный результат // Государственные и муниципальные закупки – 2008. Сборник докладов III Всероссийской практической конференции-семинара. М.: ИД «Юриспруденция», 2008. С. 133, 142.

## Nazorat uchun savollar

1. Davlat xaridi deganda nima tushuniladi?
2. Davlat xarajalari davlat xarididan nima bilan farqlanadi?
3. Davlat xaridi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta'sir etadi?
4. Davlat xaridining subyektlari kimlar?
5. Davlat buyurtmachilari kimlar?
6. Davlat buyurtmachilari qanday huquqlarga ega?
7. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi deganda kimlar tushuniladi?
8. Xarid komissiyasi qanday vazifalarni bajaradi?
9. Maxsus axborot portali operatoriga qanday funksiyalar yuklangan?
10. Maxsus axborot portali operatori nimalarga haqli emas?
11. Ekspert xarid tizimida nima vazifani bajardi?
12. Davlat xaridining predmeti nima?
13. Davlat xaridiga oid qanday nazariy qarashlar mavjud?

# 3-BOB. DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHNING MILLIY VA XALQARO HUQUQIY ASOSLARI

## 3.1. Davlat xaridlarini tartibga soluvchi milliy qonunchilik

Ma’lumki, mamlakat miqyosidagi har qanday jarayon shu davlat iqtisodiy-ijtimoiy hayoti uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki bu jarayonlarning natijasi, salbiy yoki ijobiy bo‘lishiga qarab, mamlakat aholisiga, davlatning iqtisodiy mexanizmi va uning tarkibiy qismlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Davlat xaridi jarayoni ham ulkan hamda murakkab mexanizm bo‘lib, uning to‘g‘ri tashkil etilganligi va mamlakat iqtisodiyotiga zarar emas, balki yuqori samara keltirishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham makrodarajadagi qanday jarayon yuz bermasin, shu jumladan, davlat xaridi ham, qonunchilik bilan mustahkamlab qo‘yilishi zarur. Aynan qonunchilik davlat xaridi mexanizmini takomillashtirish va uning nazoratini tashkil etishga ko‘maklashadi hamda davlat xaridi subyektlarining manfaatlari nohaq buzilishi, qabul qilingan qonun-qoidalardan chetlanishlarni oldini oladi.

O‘zbekiston Respublikasida Davlat xaridini tashkil etish va tartibga solishning qator huquqiy-normativ hujjatlari qabul qilingan. Bu qonun hujjatlari orqali davlat budjeti xarajatlarining va ustavida davlat ulushi bor korxonalar mablag‘larining samarali, maqsadli sarflanishi hamda ularning shaffofligi ta’minlanadi.

Mamlakatimizda o‘tgan davr mobaynida xalqaro tajriba va iqtisodiy islohotlar talablaridan kelib chiqqan holda davlat xaridlarini tashkil etish bo‘yicha o‘ziga xos tizim shakllantirildi. Bunda asosiy urg‘u byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish, xarid jarayonida kichik biznes subyektlariga ko‘proq imtiyozlar berish, hamda davlat xaridlari tizimining mavjud mexanizmini xalqaro andozalarga mos holda tashkil etish xususiyatlariga qaratildi.

O‘z navbatida davlat xaridlari tizimida zamonaviy shakl va tartib-taomillarini ishlab chiqish hayotiy zaruratga aylandi. Davlat xaridlarini takomillashuvi ushbu sohaning mukammal qonunchilik bazasini yaratishga va uni xalqaro tajribaga mos ravishda rivojlantirishga ham bevosita uzviy bog‘liqdir.

Mamlakatimizda davlat xaridlari tizimini rivojlanishini shartli ravishda to‘rt bosqichga bo‘lish mumkin.

**Birinchi bosqich** *(2011 yilgacha bo'lgan davr)*da davlat xaridlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek, "Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining Qarori asosida shakllandi va rivojlandi. Ushbu hujjatlar asosida ayrim murakkab va o'ziga xos ma'no kasb etadigan masalalarni yoritish maqsadida bir qator qonunosti hujjatlari ishlab chiqildi.

Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berish bo'yicha davlat kontrakti va kontraktatsiya shartnomasining mohiyati, ularni tuzish va bajarish tartibi, tomonlarning majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida o'z aksini topdi.

O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi, hamda ushbu munosabatlarda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqi va majburiyatlarini, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining va davlat boshqaruv organlarining shartnoma munosabatlari sohasidagi vakolatlarini belgilaydi.

Davlat xaridlarini tashkil etish, tizimni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasini tanqidiy o'rganish natijalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi Qarori[21] hamda ushbu qaror bilan tasdiqlangan "Xom – ashyo, materiallar, butlovchi qismlar va asbob-uskunalarni xarid qilish bo'yicha tender savdolari o'tkazish to'g'risida Nizom"da o'z aksini topdi. Ushbu Qarorda tender savdolari 100 ming AQSh dollaridan yuqori summadagi savdolar uchun amalga oshirilishi, g'olib tender komissiyasi qarori bilan aniqlanishi, 1 mln. AQSh dollaridan yuqori summada savdo amalga oshirilganda tender komissiyasi tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilishi belgilandi.

Davlat xaridlari tizimini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini

---

[21] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-sonli "Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori[22] hamda ushbu qaror bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to‘g‘risida Nizom”, “Kapital qurilishda xo‘jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda ushbu qaror bilan tasdiqlangan “Markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurilishni tashkil etish, moliyalashtirish va kreditlash tartibi to‘g‘risida Nizom”, “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizom” ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu Qarorlar va Nizomlar davlat byudjeti, davlat boshqaruvi organlari va davlat korxonalari, shuningdek, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan, mahsulotlar sotib olish, asbob-uskunalarni olish, qurilish, kengaytirish, rekonstruktsiya, korxonani modernizatsiya qilish va qayta qurollantirish, kapital ta’mirlash bilan aloqador, obyektni loyiha-qidiruv ishlari ham qo‘shilgan holda, barcha ish va xizmatlar kompleksi xaridini tartibga soldi.

Davlat xaridi tizimining rivojlanishining **ikkinchi bosqichi** (*2011 yildan 2017 yilgacha bo‘lgan davr)* xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda xaridlar tizimini ochiq-oshkoraligini ta’minlash, ushbu tizimga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish orqali raqobatni ta’minlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bu vaqtga kelib, davlat xaridlari sohasidagi qonunchilikni xususiy va davlat sektori talablariga javob beradigan darajada rivojlantirish davr talabiga aylandi. Qolaversa, davlat xaridlarining yangi turlarini kiritish, mavjudlarini takomillashtirish zarurati tug‘ildi.

Ana shunday vaziyatda “Davlat xaridlari tizimini makbullashtirish va unga kichik biznes subyektlarini jalb etishni kengaytirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat xaridlari rivojlanishining ikkinchi bosqichini ochib bergan Qarori[23] qabul qilindi.

Ushbu Qarorga asosan bir qator yangiliklar amaliyotga tatbiq etildi, jumladan, bir shartnoma summasi 300 AQSh dollaridan oshmaydigan tovar(ish, xizmat)lar to‘g‘ridan- to‘g‘ri sotib olinishi, 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollari ekvivalentigacha bo‘lgan tovar(ish, xizmat)lar elektron auksionlar o‘tkazish va tanlov savdolari orqali xarid qilinishi, 100

---

[22] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagi 302-sonli “Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori

[23] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1475- sonli “Davlat xaridlari tizimini makbullashtirish va unga kichik biznes sub’ektlarini jalb etishni kengaytirish to‘g‘risida”gi Qarori

ming AQSh dollaridan 1 mln. AQSh dollarigacha bo‘lgan tovar(ish, xizmat)lar tenderlar orqali amalga oshirilishi belgilandi. Davlat xaridlari tizimini tartibga solish va bu yo‘nalishdagi qonunchilikni takomillashtirish uchun mas’ullik yuklatilgan Hukumat komissiyasi tuzildi.

Yangi tartibga binoan, davlat xaridlari bo‘yicha Hukumat komissiyasi tomonidan bir shartnoma summasi 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollari ekvivalentigacha bo‘lgan alohida tovar(ish, xizmat)lar ro‘yhati tasdiqlanib, bu ro‘yxatdagi 13 guruhdagi tovar(ish, xizmat)lar O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi tomonidan tashkil etiladigan elektron auksion savdolar orqali amalga oshiriladigan bo‘ldi. Bu savdolarda kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida xaridlar bo‘yicha ro‘yhatdagi tovar(ish, xizmat)larning har bir guruhiga kichik biznes subyektlaridan sotib olish bo‘yicha eng kam ulushlar (kvota) miqdori o‘rnatildi.

Bu bilan davlat xaridining yanada mukammal, ochiq va shaffof, o‘zida tadbirkorlik subyektlariga rag‘batlantirish imkoniyatini beradigan yangi mexanizm yo‘lga qo‘yildi. Ushbu choralar iqtisodiyotning mana shu sektorida tovar (ish, xizmat)larni etkazib beruvchilar umumiy sonida kichik biznes subyektlarining ulushi ortdi.

Quyida keltirilayotgan 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, davlat xaridlari bo‘yicha 2011 yilda elektron auksion savdolar orqali 350,2 ming ta bitimlar amalga oshirilib, ularning jami qiymati 166,9 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. Mazkur yilda amalga oshirilgan bitimlarning 147,8 ming tasi, ya’ni 92,0 foizi kichik biznes sub’ektlari ishtirokida amalga oshirildi va bu bitimlarning umumiy summasi bo‘yicha 147,8 mlrd. so‘mni, ya’ni jami elektron auksion savdolar bo‘yicha tuzilgan bitimlarning 88,6 foizini tashkil etdi.

**1-jadval**

**Davlat xaridlari bo‘yicha O‘zRTXBda o‘tkazilgan elektron auksion savdolar natijalari**[24]

| № | Ko‘rsatkichlar | 2011 yil. | 2012 yil. | 2013 yil. | 2014 yil. | 2015 yil. | 2016 yil. | 2017 yil. |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Amalga oshirilgan bitimlar soni, *ming ta* | 350,2 | 278,6 | 249,8 | 262,3 | 301,1 | 412,2 | 268,2 |
| | shu jumladan: kichik biznes sub’ektlari bilan tuzilgan bitimlar soni, *ming ta* | 321,2 | 256,9 | 231,5 | 260,8 | 299,5 | 407,7 | 264,4 |

[24] O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | kichik biznes sub'ektlari bilan tuzilgan bitimlarning jami bitimlardagi ulushi soni, *foizda* | 92,0 | 92,2 | 92,7 | 99,3 | 99,5 | 98,9 | 98,6 |
| 2. | Amalga oshirilgan bitimlar summasi, *mlrd. so'm* | 166,9 | 347,9 | 416,8 | 470,5 | 497,1 | 596,1 | 438,3 |
| | shu jumladan: kichik biznes sub'ektlari bilan tuzilgan bitimlar summasi, *mlrd. so'm* | 147,8 | 323,5 | 388 | 467,5 | 494,5 | 590,7 | 433,5 |
| | Kichik biznes sub'ektlari bilan tuzilgan bitimlarning jami bitimlardagi ulushi, *foizda* | 88,6 | 93,0 | 93,1 | 99,4 | 99,5 | 99,1 | 98,9 |
| 3. | Tovar (ish, xizmat)larni etkazib beruvchilar soni, *ming ta* | 6,2 | 9,0 | 10,5 | 33,7 | 38,9 | 43,8 | 47,6 |
| | shu jumladan: kichik biznes sub'ektlari soni, *ming ta* | 5,2 | 7,7 | 8,8 | 32,9 | 37,9 | 42,7 | 46,2 |
| | Kichik biznes sub'ektlarini etkazib beruvchilarning umumiy sonidagi ulushi, *foizda* | 83,9 | 85,0 | 83,1 | 97,8 | 97,7 | 97,4 | 97,0 |

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 avgustdagi PQ-3237-sonli Qarori bilan O'zRTXBda o'tkaziladigan elektron auksion savdolari bekor qilindi, 2018 yil aprel oyidan takomillashtirilgan elektron auksion tizimi joriy etildi*

2016 yilga kelib elektron auksion savdolar orqali 412,2 ming ta bitimlar amalga oshirildi, ularning jami qiymati 596,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Amalga oshirilgan bitimlarning 407,7 ming tasi, ya'ni 98,9 foizi kichik biznes sub'ektlari ishtirokida amalga oshirildi va bu bitimlarning umumiy summasi bo'yicha 590,7,8 mlrd. so'mni, ya'ni jami elektron auksion savdolar bo'yicha tuzilgan bitimlarning 99,1 foizini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3237 sonli qaroriga muvofiq, 2017 yilning 23 avgustidan bitta kontrakt bo'yicha 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha ekvivalentdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi tomonidan tashkillashtiriladigan elektron savdolar

orqali amalga oshirishga oid talab bekor qilinishi munosabati bilan 2017 yilda elektron auksion savdolar bo‘yicha amalga oshirilgan bitimlar soni va summasini o‘tgan yillarga nisbatan past ko‘rsatkichni tashkil etgan.

Shuni qayd etib o‘tish joizki, o‘tkazilgan elektron auksion savdolarda axborot olish imkoniyatining kengligi, tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti shakllanganligi, inson omili ishtirokining chegaralanganligi, hamda “on-layn” rejimda savdolarni amalga oshirilishi byudjet mablag‘larining kattagina miqdorda tejalishiga imkoniyat yaratdi (1-rasmga qarang).

**1-rasm**

**Davlat xaridlari bo‘yicha elektron auksion savdolar natijasida byudjet mablag‘larining iqtisod qilinishi**[25]




*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 avgustdagi PQ-3237-sonli Qarori bilan O‘zRTXBda o‘tkaziladigan elektron auksion savdolari bekor qilindi, 2018 yil aprel oyidan takomillashtirilgan elektron auksion tizimi joriy etildi*

Rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, davlat xaridlari tizimida elektron auksion savdolarini joriy qilinishi natijasida 2011 yilda byudjet mablag‘larining 22 mlrd.so‘mi yoki byudjet tashkilotlarida ushbu tovar(ish,xizmat)larni sotib olish uchun rejalashtirilgan mablag‘larning 12 foizi iqtisod qilindi. Mos ravishda 2012 yilda 81,4 mlrd.so‘m (19 %), 2013 yilda 83 mlrd.so‘m (16,6 %), 2014 yilda 117,3 mlrd.so‘m (20 %), 2015 yilda 139,8 mlrd.so‘m (22%), 2016 yilda 133 mlrd.so‘m (18,2 %), 2017 yilda 136,9 mlrd.so‘m (23,8 %) byudjet mablag‘i tejaldi.

---

[25] O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Tajribadan o'tgan elektron auksion savdolarning samaradorligidan kelib chiqib, mazkur savdolarga  kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini yanada kengroq jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish, xarid tizimida raqobatni rivojlantirish va oshkoralikni ta'minlash, hamda mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Elektron xaridlar tizimini maqbullashtirish va ulardan tadbirkorlik sub'ektlarining foydalanishini kengaytirish to'g'risida" Qarori[26] qabul qilindi. Unda korporativ xaridlar hamda xizmatlar narxlarini maqbullashtirish maqsadida 2013 yilning 1 mayidan boshlab ustav jamg'armasida davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan tabiiy monopoliya sub'ektlari, davlat unitar korxonalari va xo'jalik jamiyatlari ham ayrim turdagi tovar(ish, xizmat) larni bir shartnoma bo'yicha ekvivalenti 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha bo'lgan miqdorda O'zbekiston Respublika tovar – xom ashyo birjasining alohida savdo maydonchasida tashkil qilinadigan elektron savdolar vositasida xarid qilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublika tovar – xomashyo birjasi tomonidan o'tkaziladigan elektron savdolarda davlat ulushi ustuvor bulgan tabiiy monopoliya sub'ektlari, korxonalar va tashkilotlar xarid qiladigan ayrim tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati maxsus Hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadigan bo'ldi. Mazkur korporativ xaridlar tizimidagi elektron auksion savdolaridan ham ijobiy natijalarga erishildi (2-jadvalga qarang).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korporativ xaridlar tizimida elektron auksion savdolarini joriy qilinishi natijasida 2013 yilda 10,6 mlrd.so'm (14,7 %), 2014 yilda 64,1  mlrd.so'm (15,5 %), 2015 yilda 68,4 mlrd.so'm (16,6 %), 2016 yilda 95,5  mlrd.so'm (17,7 %),2017 yilda 101,5 mlrd.so'm (21,8 %) moliyaviy mablag' tejaldi.

**2-jadval**

**Korporativ xaridlar bo'yicha O'zRTXBda o'tkazilgan elektron auksion savdolar natijalari[27]**

| № | Ko'rsatkichlar | 2013 yil. | 2014 yil. | 2015 yil. | 2016 yil. | 2017 yil. |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Korporativ xaridlar bo'yicha tuzilgan bitimlarning hajmi, *mlrd. so'm* | 61,8 | 350,4 | 344,3 | 444,8 | 364,7 |

[26] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilning 5 apreldagi PQ-1943-sonli "Elektron xaridlar tizimini makbullashtirish va ulardan tadbirkorlik sub'ektlarining foydalanishini kengaytirish tug'risida" Qarori

[27] O'zbekiston Respublika  tovar-xom ashyo birjasi sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **2.** | Moliyaviy mablag'larning tejalishi, mlrd. so'm | 10,6 | 64,1 | 68,4 | 95,5 | 101,5 |
| **3.** | Boshlang'ich bahoga nisbatan moliyaviy mablag'larning tejalishi, *foizda* | 14,7 | 15,5 | 16,6 | 17,7 | 21,8 |

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 avgustdagi PQ-3237-sonli Qarori bilan O'zRTXBda o'tkaziladigan elektron auksion savdolari bekor qilindi, 2018 yil aprel oyidan takomillashtirilgan elektron auksion tizimi joriy etildi*

Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3237 sonli qaroriga muvofiq, 2017 yilning 23 avgustidan korporativ xaridlar bo'yicha ham O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi tomonidan tashkillashtiriladigan elektron savdolar orqali amalga oshirishga oid talab bekor qilinishi munosabati bilan 2017 yilda elektron auksion savdolar bo'yicha amalga oshirilgan korporativ bitimlar soni va summasini o'tgan yillarga nisbatan past ko'rsatkichni tashkil etgan.

Elektron auksion savdolarning ijobiy tomoni bilan birgalikda, amaliyotda ular bilan bog'liq ayrim muammolarga ham duch kelina boshlandi. Masalan, xarid qilinadigan tovar(ish, xizmat) uchun kamida 10-15 kun oldin e'lonni joylashtirilishi, ba'zan etkazib beruvchi topilmasa yoki shartnoma tuzilmasa, qayta e'lon joylashtirilishi, etkazib berilgan tovar(ish,xizmat) belgilangan sifatlarga javob bermasligi tufayli qaytarilishi buyurtmachi uchun ortiqcha vaqtni talab qilardi. Bunday muammolarga barham berish, byudjet tashkilotlarining shoshilinch yoki oldindan ko'rilmagan zaruriyat tufayli yuzaga kelgan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni o'z vaqtida sotib olinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining maxsus axborot portali orqali elektron savdo yo'li bilan tadbirkorlik sub'ektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori[28] bilan amaliyotga elektron kataloglar orqali davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmi joriy qilindi. O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo

[28] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 26 martdagi 69-sonli "O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining maxsus axborot portali orqali elektron savdo yo'li bilan tadbirkorlik sub'ektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori

birjasining maxsus axborot portali orqali bitta shartnoma bo'yicha 100 ming AQSh dollaridan ortiq bo'lmagan, ularga shoshilinch yoki oldindan ko'rilmagan zaruriyat yuzaga kelgan, Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan belgilangan tovarlar(kompyuter jihozlari va orgtexnika ehtiyot qismlari,transport vositalari uchun ehtiyot qismlar, qurilish materiallari va boshqa jihozlar)ni elektron katalog orqali xarid qilish tartibi belgilandi.

Davlat xaridlari tizimida shoshilinch yoki oldindan ko'rilmagan zaruriyat yuzaga kelgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning elektron katalog orqali xarid qilinishi vaqtni tejash bilan birgalikda byudjet mablag'larini ham iqtisod qilish imkoniyatini berdi(3-jadvalga qarang).

**3-jadval**

**O'zRTXBda o'tkazilgan elektron katalog savdolari natijalari**[29]

| № | Ko'rsatkichlar | 2015 y. | 2016 y. | 2017 y. |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Elektron katalogda tuzilgan bitimlarning hajmi, *mlrd. so'm* | 46,7 | 71,6 | 59,5 |
| 2. | Moliyaviy mablag'larining tejalishi, mlrd. so'm | 12,0 | 28,1 | 35,4 |
| 3. | Boshlang'ich bahoga nisbatan moliyaviy mablag'larning tejalishi, *foizda* | 20,4 | 28,2 | 37,3 |

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 avgustdagi PQ-3237-sonli Qarori bilan O'zRTXBda o'tkaziladigan elektron katalog savdolari bekor qilindi, 2018 yil aprel oyidan takomillashtirilgan elektron auksion tizimi joriy etildi*

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, davlat xaridlari tizimida elektron katalog orqali savdolarini joriy qilinishi natijasida 2015 yilda byudjet mablag'larining 12 mlrd.so'mi yoki byudjet tashkilotlarida ushbu tovar(ish,xizmat)larni sotib olish uchun rejalashtirilgan mablag'larning 20,4 foizi, 2016 yilda 28,1 mlrd.so'm (28,2 %), 2017 yilda 35,4 mlrd.so'm (37,3 %) byudjet mablag'i tejaldi.

O'tgan yillar davomida elektron auksion savdolarini tashkil etish orqali davlat va korporativ xaridlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash uchun ularni takomillashtirish choralari ko'rildi.

[29] O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Mamlakatimizda davlat va korporativ xaridlari mexanizmini yanada takomillashtirish, tender savdolarining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash bo‘yicha izchil va kompleks ishlar amalga oshirildi. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi bo‘yicha, shu jumladan, investitsiya loyihalari doirasida ko‘p pog‘onali idoralararo tender komissiyalari tashkil etildi. Shu bilan birga, o‘tkazilgan tahlil ko‘rsatdiki, davlat va korporativ xaridlarining hamda tender savdolarini tashkil etishning amaldagi tartibi zamonaviy talablarga javob bermaydi, turli xil korrupsiya ko‘rinishlari uchun sharoit yaratadigan ko‘plab kelishish bosqichlari, bir-birini takrorlaydigan tartib-taomillar va sansalorlik holatlari mavjud. Bundan tashqari, tender jarayonlarining cho‘zilishi, narx-navoni manipulyatsiya qilish, tovarlarning sifati, tavsifi haqidagi ma’lumotlarni buzib ko‘rsatish va elektron savdoda tuzilgan bitimlar bo‘yicha tovarlarni etkazib bermaslik holatlari ko‘plab kuzatildi.

Byudjet tashkilotlari tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridining amaldagi me’yorlari va tartibi tovar-moddiy boyliklar, shu jumladan, ularning eng zarurlari (kantselyariya buyumlari, kompyuter texnikasi va avtotransportni ta’mirlash) bilan normal va barqaror ta’minlashda qiyinchiliklar tug‘dira boshladi.

Qolaversa, amaldagi tartib xorijiy va xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan ijtimoiy investitsiya loyihalari amalga oshirilishining ham kechiktirilishiga sabab bo‘lmoqda edi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlari tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu sohada suiste’mollik holatlarining oldini olish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida 2017 yil 23 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3237-sonli Qarori qabul qilindi.

Qaror o‘zida:

- iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari va ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan, bitta kontrakt bo‘yicha 5 million AQSh dollaridan yuqori ekvivalentdagi investitsiya loyihalari doirasida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xaridi yuzasidan tarmoq idoralararo tender komissiyalarini tugatishni;
- loyiha tashkilotlari tomonidan tayyorlangan tender va loyihaoldi hujjatlarini taklif etilayotgan texnologiya va asbob-uskunalar bo‘yicha texnologiya, asbob-uskunalarni tanlash va narxlarni shakllantirish qismida

ekspertizadan o‘tkazish funktsiyasini bajaradigan ixtisoslashgan tarmoq ekspert kengashlarini tugatishni;

- bitta kontrakt bo‘yicha 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha ekvivalentdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi tomonidan tashkillashtiriladigan elektron savdolar orqali amalga oshirishga oid talabni bekor qilishni nazarda tutdi.

Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish maqsadida yangidan tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligiga resurslar yagona milliy ma’lumotnomasi va davlat xaridlari yagona axborot portali yaratilishi hamda 2018 yil 1 yanvardan ishga tushirilishini ta’minlash, shuningdek, qisqa vaqt mobaynida «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish topshirildi.

Qolaversa, 1 ming AQSh dollaridan kam bo‘lgan bitta kontrakt - narxi, sifati va tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni etkazib berish muddati bo‘yicha eng maqbul keladigan shartlarni taklif qilgan etkazib beruvchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish orqali; 1 mingdan 100 ming AQSh dollarigacha bo‘lgan bitta kontrakt - buyurtmachi tuzadigan idoraviy tanlov komissiyalari tomonidan baholanadigan eng maqbul takliflarni tanlab olish orqali; 100 ming AQSh dollaridan yuqori miqdordagi bitta kontrakt -buyurtmachi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O‘zInjiniring» Respublika loyiha instituti, shuningdek, buyurtmachining tarmoq ilmiy-texnik kengashlarining vakillarini majburiy jalb etgan holda tuziladigan idoralararo tanlov (tender) komissiyalari tashkil etadigan tanlov (tender) savdolarini o‘tkazish orqali amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Shu bilan birga, qarorda davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlarining mas’uliyatini kuchaytirish maqsadida ularning tender savdolarini tashkil etish bo‘yicha talablarni buzganligi hamda o‘tkazilgan davlat va korporativ xaridlarining maqsadga muvofiqligi uchun jinoiy javobgarlikka tortishgacha bo‘lgan shaxsiy javobgar bo‘lishi ko‘rsatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori davlat va korporativ xaridlarining ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va loyiha boshqaruvi tamoyillaridan foydalanishga asoslangan zamonaviy shakl hamda uslublariga bosqichma-bosqich o‘tish yo‘lidagi yana bir qadam hisoblanadi.

Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va takomillashtirish yuzasidan qabul qilingan mazkur Qaror bilan amaliyotga kiritilgan

o‘zgarishlarni quyidagi 4-jadvaldagi solishtirma tahlil orqali yanada aniqroq ko‘rishimiz mumkin.

**4-jadval**

**O‘zbekistonda davlat xaridlari tizimidagi o‘zgarishlarning solishtirma tahlili**[30]

| **2011 yil 7 fevraldan 2017 yil 23 avgustgacha bo‘lgan tartib** | | **2017 yil 23 avgustdan 2018 yil 9 aprelgacha bo‘lgan tartib** | |
|---|---|---|---|
| Har bir shartnoma bo‘yicha belgilangan summa | Xaridlar tartib-taomillarning turlari (kapital qurilishlardan tashqari) | Har bir shartnoma bo‘yicha belgilangan summa | Xaridlar tartib-taomillarning turlari |
| 300 AQSh dollarigacha | To‘g‘ridan to‘g‘ri xaridlar Raqotablashishi tartib-taomillarini o‘tkazmasdan amalga oshiriladigan xaridlar bo‘lib, Vazirlar Mahkamasining №456 – sonli qarori 5.1 va 5.2 bandlariga asosan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar tuzish orqali amalga oshirilgan. | 1000 AQSh dollarigacha | To‘g‘ridan to‘g‘ri xaridlar Raqotablashishi tartib-taomillarini o‘tkazmasdan amalga oshiriladigan xaridlar bo‘lib, Vazirlar Mahkamasining № 456 – sonli qarori 5.1 va 5.2 bandlariga asosan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar tuzish orqali amalga oshirilgan. |
| 300 AQSh dollaridan 100000 AQSh dollarigacha bo‘lgan summalar | Elektron auksion savdolari Hukumat kommisiyasi tomonidan belgilangan tovar (ish, xizmat)lar buyurtmachi maqbul etkazib beruvchilarni tanlash orqali boshlang‘ich narxi pasayib borish usuli orqali elektron auksion xaridlari orqali amalga oshirilgan. | Bekor qilindi | |
| | Tanlov savdolari Ro‘yxatga kiritilmagan tovarlar (ish, xizmat) lar esa buyurtmachi tomonidan tuzilgan maxsus kommisiya | 1000 AQSh dollaridan 100. 000 AQSh dollarigacha bo‘lgan | Tanlov savdolari Ro‘yxatga kiritilmagan tovarlar (ish, xizmat) lar esa buyurtmachi tomonidan tuzilgan maxsus kommisiya tomonidan Vazirlar |

[30] Muallif tomonidan tayyorlangan

| | | | |
|---|---|---|---|
| | tomonidan Vazirlar Mahkamasining №456 sonli Qarorining 5-bandiga asosan eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali amalga oshirilgan. | | Mahkamasining №456 sonli Qarorining 5- bandiga asosan eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali amalga oshirildi |
| 100.000 AQSh dollarigacha bo‘lgan summalar | Elektron katolog Maxsus axborot portali orqali tadbirkorlik sub’ektlaridan birini ehtiyoj tovarlari (ishlari, xizmatlari)ning Vazirlar Mahkamasining 69 – sonli Qaroriga asosan amalga oshirilgan. | Bekor qilindi | |
| 100. 000 AQSh dollaridan 5 mln. AQSh dollarigacha bo‘lgan summalar | Tender savdolari Tender kommisiyasi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 456-sonli Qaroriga asosan tender hujjatlari asosida ishtirokchilarining tender takliflarini solishtirish orqali amalga oshirilgan | 100. 000 AQSh dollaridan yuqori bo‘lgan summalar | Tender savdolari 100 ming AQSh dollaridan yuqori miqdordagi bitta kontrakt buyurtmachi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O‘zInjiniring» Respublika loyiha instituti, shuningdek, buyurtmachining tarmoq ilmiy-texnik kengashlarining vakillarini majburiy jalb etgan holda tuziladigan idoralararo tanlov (tender) komissiyalari tashkil etadigan tanlov (tender) savdolarini o‘tkazish orqali amalga oshirildi. |
| 5,0 mln AQSh dollaridan ko‘p summalar | Tender savdolari Idoralararo tender komissiyasi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 14 sentyabrdagi 264-son Qaroriga asosan tender (tanlov) savdolarini kollegial asosda o‘tkazgan, tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish yuzasidan savdolar natijalari bo‘yicha g‘oliblarni aniqlagan. | | |

Qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi byudjet mablag‘laridan foydalanishning samaradorligini, davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlarining davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishda mustaqilligi va mas’uliyatini oshirishga, byurokratiyani bartaraf etishga xizmat qildi.

**Davlat xaridlari tizimining rivojlanishining uchinchi bosqichi** 2018 yil 9 apreldan 2021 yil 21 aprelgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, mamlakatimizda yaqin kungacha davlat xaridlari sohasi 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinardi, bunda yaxlit tizim mavjud emas edi. Buning oqibatida esa ba’zan huquqiy jihatdan bir-birini rad etuvchi holatlar ham vujudga kelgan. Ayrim holatlarda esa takrorlovchi tartib-taomillar korrupsiyaga sharoit yaratgan va ko‘p vaqt yo‘qotishga sabab bo‘lgan. Bu kabi muammolarning oldini olish, davlat xaridlarini tartibga soluvchi yagona va yaxlit normativ-huquqiy bazani shakllantirish hamda uni bir xilda qo‘llash maqsadida 2018 yil 9 aprelda “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. 12 bob, 79 moddadan iborat Qonun davlat xaridlari ochiqligi va shaffofligini hamda bu sohada tadbirkorlarning raqobat kurashuvini ta’minlaydi, davlat byudjeti, markazlashtirilgan manbalar va davlat ulushiga ega bo‘lgan korxonalar mablag‘laridan samarali foydalanishga imkon yaratdi.

Qonun davlat xaridlarini amalga oshirishning amaldagi tajribasini hamda xalqaro tajribani, jumladan, BMTning Xalqaro savdo huquqi bo‘yicha Komissiyasining (YUNSITRAL) model qonunchiligining asosiy qoidalarini, Evropa Ittifoqi, AQSh, Rossiya, Belarus, Qozog‘iston va boshqa davlatlar qonunchiligini hisobga olgan. Qonun loyihasi xalqaro tashkilotlar, ekspert va biznes-hamjamiyati, vazirlik va idoralar vakillari bilan muhokamalardan o‘tkazilgan.

2018 yil 9 aprelda qabul qilingan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun bilan amaliyotga kiritilgan asosiy yangiliklar:

1. Qonun xaridlarning besh tartib-taomili(turi)ni belgiladi, ya’ni *elektron do‘kon, boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion, tanlov, tender, yagona etkazib beruvchi bilan amalga oshiriladigan davlat xaridlari*. Bulardan ikkitasi (elektron do‘kon, boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion) davlat xaridi bo‘yicha qaror qabul qilishda inson omilini butkul inkor etardi. Qolgan xarid tartib-taomillari shaffofligi maxsus axborot portalida zarur axborot chop etish yo‘li bilan ta’minlandi.

2. Qonun bilan xalqaro standartlarni hisobga olgan holda birinchi bor yagona etkazib beruvchidan xaridni amalga oshirish tartib-taomili turi, davlat xaridlarini oʻtkazish uchun Odob-axloq qoidalarini qabul qilish va davlat xaridlarini amalga oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat ustuvorliklari, shu jumladan yuqori texnologik va innovatsion ishlab chiqarishlarning yaratilishi, qulay ekologik vaziyatning saqlanishi hisobga olinishi kabi normalar xarid amaliyotiga kiritildi.

3. Xarid tizimida davlat buyurtmachisining ikkita kategoriyalari birlashtirildi. Bular - *byudjet buyurtmachilari* (davlat organlari; byudjet tashkilotlari; xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yoʻnaltiriladigan byudjet mablagʻlarini oluvchilar; davlat maqsadli jamgʻarmalari) *hamda korporativ buyurtmachilar* (davlat korxonalari; ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq boʻlgan yuridik shaxslar; ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortigʻi 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli boʻlgan yuridik shaxslar).

4. Davlat xaridlari tizimida vakolatli organ sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi belgilandi (hozirgi kunda Moliya vazirligi). Ilgari davlat xaridlari sohasida vakolatli organ mavjud emas edi. Faqat elektron auksion savdolar boʻyicha Hukumat Komissiyasi faoliyat yuritardi, xolos.

5. Davlat xaridlari jarayoni barcha bosqichlarining yaxlitligi va oʻzaro aloqadorligini ta’minlash hamda davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmlari, tartib-taomillari va usullarini birxillashtirish maqsadida davlat xaridlari tizimida ilk bora davlat buyurtmachisining kasbiy mahorati; asoslanganlik; moliyaviy mablagʻlardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi; ochiqlik va shaffoflik; tortishuv va xolislik; mutanosiblik; davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi; korrupsiyaga yoʻl qoʻymaslik kabi davlat xaridlarining asosiy printsiplar kiritildi.

6. Ilgari davlat xaridlarining barcha tartib-taomili(turi) uchun shartnoma summalari ma’lum bir ekvivalentdagi AQSh dollari bilan mezonlangan boʻlsa, endi ular quyidagicha joriy vaqtdagi eng kam oylik ish haqiga nisbatan hisoblanadigan boʻldi.

**5-jadval**

**2018 yil 9 apreldan 2022 yil 22 iyulgacha amalda boʻlgan davlat xaridlari tartib-taomillari**[31]

| Xarid turi | Xarid predmeti | Byudjet buyurtmachisi | Korporativ buyurtmachi |
|---|---|---|---|
| Elektron doʻkon | tovar | 25 EKOIH* gacha | 250 EKOIH gacha |
| | Bir yilda 2500 EKOIH dan ortiq boʻlmagan | | |
| | ish, xizmat | 25 EKOIH gacha | 25 EKOIH gacha |
| Auksion | tovar | 2 500 EKOIH gacha | 5 000 EKOIH gacha |
| Tanlov (konkurs) | tovar | tovar 2 500 dan - 6 000 gacha EKOIH orasida | 5 000 dan - 25 000 gacha EKOIH orasida |
| | ish, xizmat | 25 dan - 6 000 gacha EKOIH orasida | 25 dan - 25 000 gacha EKOIH orasida |
| Tender | tovar, ish, xizmat | 6 000 EKOIH dan yuqori | 25 000 EKOIH dan yuqori |
| Yagona etkazib beruvchi bilan amalga oshiriladigan davlat xaridi | tovar, ish, xizmat | Alohida me’yor belgilanmagan | |

*EKOIH – eng kam oylik ish haqi

7. Xarid qilish tartib-taomillari ustidan doimiy monitoring va qat’iy nazorat yoʻlga qoʻyildi. Ahamiyatlisi shundan iboratki, davlat nazorati bilan birgalikda davlat xaridlarini rivojlantirish va takomillashtirishga koʻmaklashish, davlat xaridlari toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari talablari buzilishlarining oldini olish va ularni aniqlash hamda davlat buyurtmachilarini, vakolatli davlat organlarini aniqlangan qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish maqsadida xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati normasi kiritildi. Xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati ochiqlik va shaffoflik printsiplarini roʻyobga chiqarish vositasida amalga oshirilishi belgilandi. Davlat xaridlari toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish

[31] Muallif tomonidan tuzilgan

organlari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazoratini amalga oshirishlari mumkinligi belgilandi.

8. Qonun bilan kiritilgan yana bir yangilik bu davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha maxsus komissiyani shakllantirilganligidir. Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha tuzilgan Komissiyaning faoliyati xaridlarning barcha turlariga tadbiq etildi. Ilgari davlat xaridlarini nazorat qilish masalasi tartibga solinmagan, nizo va kelishmovchiliklar faqat elektron savdolar bo'yicha maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqilgan. Endilikda shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha maxsus komissiyaga shikoyatni qisqa davr mobaynida davlat buyurtmachisi va ishtirokchining ishtirokida ko'rib chiqish, hamda shikoyat olinganidan keyin etti ish kuni ichida qaror chiqarishi va axborotni maxsus axborot portaliga joylashtirish vazifasi yuklatildi.

**Davlat xaridlari tizimining rivojlanishining to'rtinchi bosqichi** 2021 yil 22 apreldan keyingi davrni qamrab oladi. Aynan shu sanada "Davlat xaridlari to'grisida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Qonunni tayyorlashda BMT xalqaro savdo huquqi bo'yicha Komissiyasining (YUNSITRAL) ommaviy xaridlar bo'yicha namunaviy qonuni asosiy qoidalari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining tavsiyalari hamda qator xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanilgan. Qonun Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Istanbul harakatlar rejasi monitoringi, Davlat moliyasini boshqarish samaradorligini xalqaro baholash (PEFA) kabi xalqaro reytinglarda mamlakatimiz o'rnini yaxshilashga xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Qonun bilan amaliyotga qator yangilik va o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan:

1. *Korporativ buyurtmachi va strategik ahamiyatga ega xo'jalik jamiyatlari va korxonalar tomonidan xaridlarni amalga oshirish tizimi takomillashtirildi.* Ustavida davlat ulushi 50 foizdan ko'p bo'lgan hamda davlat korxonalari va davlat ulushi 50 foizdan ko'p bo'lgan korxonalar ulushining yig'indisi 50 foizdan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar korporativ buyurtmachilar ro'yxatiga kiritildi. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan hamkorlikda korporativ buyurtmachilar ro'yxatini maxsus axborot portalida yuritilishi belgilandi.

2. *Davlat buyurtmachilari va tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida xarid qilish tartib-taomillari soddalashtirildi.* Davlat buyurtmachilariga xarid qilish tartib-taomillari turlarini mustaqil tanlash

imkoniyati yaratildi. Bunda, davlat buyurtmachisining xohishiga koʻra davlat xaridlari byudjet buyurtmachilari tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravarigacha (elektron doʻkonda ikki ming besh yuz baravarigacha) va korporativ buyurtmachilari tomonidan esa bir shartnoma boʻyicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha elektron doʻkon, auktsion yoki tanlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Xaridlarni soddalashtirilgan tartibda xarid komissiyasi ishtirokisiz toʻgʻridan-toʻgʻri shartnomalar asosida amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Bunda, bir shartnoma summasi byudjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravaridan *(bir moliya yili davomida 500* baravaridan*);*korporativ buyurtmachilar uchun bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan *(bir moliya yili davomida 1 000* baravaridan*)* oshmasligi lozim.

Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda e'lonlarni joylashtirishni eng kam muddatlari qisqartirildi. Bunda tanlash usulida xaridni amalga oshirishda 5 ish kuniga (+ 2 ish kuniga muhokamaga); tender usulida xaridni amalga oshirishda 12 ish kuniga.

*3. Davlat buyurtmachisi va boshqa ishtirokchilarning mas'uliyatini oshirish maqsadida* davlat xaridlari komissiyasining tarkibiga Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda "Oʻzinjiniring" institutining vakillari majburiy tartibda kiritish talabi bekor qilinib, buyurtmachining vakillaridan tashkil topishi belgilandi.

4. *Xarid qilish tartib-taomillariga qator oʻzgartirishlar kiritildi.*

**6-jadval**

**2021 yil 22 apreldan davlat xaridlari tartib-taomillari**[32]

| **Xarid turi** | | **Byudjet buyurtmachilari uchun** | **Korporativ buyurtmachilar uchun** | **Muddati** |
|---|---|---|---|---|
| Toʻgʻridan-toʻgʻri (soddalashtirilgan tanlash) | Tovar Ish, xizmat | 0-25 BHM* | 0-50 BHM | - |
| | Bir moliya yilida | 0-500 BHM | 0-1000 BHM | |
| Elektron doʻkon | Tovar | 0-2500 BHM *(bir moliya yilida ayni bir* | 0-25000 BHM | 48 soat |

[32] Muallif tomonidan tuzilgan

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | *turdagi tovar 10 ming baravargacha)* | | |
| | Ish, xizmat | 0-50 BHM 0-12 250 000 so'm *(bir moliya yilida ayni bir turdagi ish, xizmatlar 500 baravargacha)* | 0-100 BHM *(bir moliya yilida ayni bir turdagi ish, xizmatlar 1000 baravargacha)* | |
| Auktsion | Tovar | 0-6000 BHM | 0-25000 BHM | 5 ish kuni |
| | Ish, xizmat | - | - | |
| Eng yaxshi takliflarni tanlash | Tovar | 0-6000 BHM | 0-25000 BHM | 5 ish kuni (2 ish kuni muhokama) |
| | Ish, xizmat | 0-6000 BHM | 0-25000 BHM | |
| Tender | Tovar, ish, xizmat | 6000 BHM - … | 25000 BHM - ... | 12-30 ish kuni |

** BHM – bazaviy hisoblash miqdori*

*5. Korruptsiyaning oldini olish va oshkoralikni ta'minlash bo'yicha choralar belgilandi.*

– Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi davlat xaridlari ustidan nazorat qiluvchi organlar ro'yxatiga kiritildi;

– Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi va uning affillangan shaxsi bir savdoda ishtirok etishi, xarid komissiyasi a'zosining ishtirokchilar bilan affillanganlik holatida ovoz berishi cheklandi;

– Hisob palatasi davlat xaridlarini auditdan o'tkazishi va natijalarini har yili Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritishi hamda ochiq axborot manbalarida e'lon qilib borishi belgilandi;

– Moliya vazirligi va boshqa ishtirokchilarga savdo natijalari, qonun buzilish holatlari va tahliliy ma'lumotlarni ochiq axborot manbalarida e'lon qilib borish vazifasi yuklatildi;

– Maxsus axborot portalida davlat xaridlarini rejalashtirish, xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish, shartnoma tuzish, davlat xaridlari monitoringini olib borish va nazorat qilish jarayonlari tizimlashtirildi4

– Insofsiz ijrochilarning yagona reestriga kiritilgan sub'ektlarning davlat xaridlarida ishtirok etishini cheklash muddati uch yildan ikki yilgacha qisqartirildi;

– Davlat xaridlari tizimini yanada rivojlantirish, sohaga tadbirkorlik sub'ektlarini keng jalb qilish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan boshqa ko'plab o'zgarishlar nazarda tutildi.

*6. Davlat xaridlarini rejalashtirish davri qat'iy belgilandi.* Bunda, davlat xaridlarining yillik reja-jadvali byudjet buyurtmachilari tomonidan joriy yilning 25 martiga qadar, korporativ buyurtmachilari tomonidan joriy yilning 25 dekabriga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi. Davlat xaridlarining kelgusi chorak uchun choraklik reja-jadvallari davlat buyurtmachilari tomonidan joriy chorak oxirgi oyining 25 sanasiga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

*7.* Xarid qilish tartib-taomillarining eng yaxshi takliflarni tanlash va tender turlarini majburiy tartibda elektron shaklda o'tkazish talabi 2022 yil 1 yanvardan e'tiboran amalga kiritildi.

## 3.2. Davlat xaridi tizimidagi munozabatlarni tartibga soluvchi xalqaro qonunchilik

Davlat xaridlari munos

abatlarni tartibga soluvchi eng asosiy xalqaro meyoriy hujjat bu BMT xalqaro savdo huquqi bo'yicha Komissiyasining (YUNSITRAL) ommaviy xaridlar bo'yicha namunaviy *"Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to'g'risida"* Qonunidir. Ushbu qonun 1994 yil BMTning xalqaro savdo huquqi Komissiyasining 27-sessiyasida qabul qilingan bo'lib, u bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat va jamoat uchun xaridni amalga oshirish buyicha xalqaro qoidalarini o'zida mujassamlashtiradi.

Mazkur Qonun bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda, xususan, Sharqiy Evropa mamlakatlarida davlat xaridlarini tashkil etish bo'yicha namuna-shablon sifatida ishlab chiqilgan. Qonunning asosiy talablari va tamoyillarini bugungi kunda nafaqat Evropa mamlakatlari, balki Osiyo davlatlari ham xarid tizimlarida keng qo'llamoqdalar. Qonunda xarid tizimida sog'lom raqobatni rivojlantirish, davlat xaridini amalga oshirishda etkazib beruvchilarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish, xarid jaryonini ochiqliligi, oshkoraligi hamda obyektivligini ta'minlash alohida qayd etib o'tilgan.

Mazkur hujjatning *asosiy tamoyillariga* quyidagilar kiradi:

1. *Ochiqlilik va shaffoflik* – xarid to‘g‘risida yozma shakldagi hisobot yuritilishi hamda sotib olinadigan tovar (ish, xizmat) haqida oldindan ommaviy e’lon qilish;

2. *Malakaviy talab* – etkazib beruvchilarga qo‘yilgan malakaviy talablarni tartibga solish, ular malakasini aniqlash mezonlari va tartibi, qo‘yilgan talabni xarid bo‘yicha e’lon bilan bir vaqtda ma’lum qilish;

3. *Xaridni amalga oshirish shaklini ma’lum qilish* – xaridlar ochiq yoki yopiq shaklda amalga oshirilishi, tanlovlar bir yoki ikki bosqichda bo‘lishi ishtirokchilar e’tiboriga oldindan ma’lum qilish;

4. *Takliflarni ko‘rib chiqish va baholash tartibidan xabardor qilish* – savdolarda ishtirok etmoqchi bo‘lgan ishtirokchilarni bildirilgan takliflarni ko‘rib chiqish va saralash mezonlari hamda g‘olibga qo‘yilgan talablar bilan oldindan xabardor qilish;

5. *Munozaralarni hal etish* – davlat xaridi bo‘yicha savdolarni tashkil etish, o‘tkazish, shartnoma tuzish va shartnomani bajarish bo‘yicha yuzaga keladigan munozaralar, nizolar, fors-major holatlarni hal qilsh tatibi bilan ishtirokchilar oldindan tanishtirilgan bo‘lishi lozim.

Davlat xaridlari munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro meyoriy hujjatlardan yana biri Xalqaro savdo tashkiloti tomonidan 1994 yilda ko‘p tomonlama savdo muzokaralarining Uruguvay raundida qabul qilingan Hukumat xaridi bo‘yicha Kelishuvdir. U Savdo va tariflar buyicha umumiy shartnomaning (GATT) muhim elementi hisoblanadi va Xalqaro savdo tashkilotiga (XST) ishtirok etish doirasida mamlakatlar tomonidan imzo chekiladi. Hukumat xaridi bo‘yicha Shartnomani imzolash XSTga kirishning sharti hisoblanmasa-da, ammo keyingi yillarda XSTning yirik ishtirokchilari bo‘lgan AQSh, Evropa Ittifoqi mamlakatlari, Kanada, Isroil, Yaponiya, Shveytsariya kabi mamlakatlar nomzod mamlakatlar uchun ushbu hujjatni imzolanishini ikki yoqlama muzokoralarning sharti sifatida qo‘ymoqdalar.

Shartnoma milliy davlat xaridi bozorini uni imzolgan mamlakatlardagi tovar (ish, xizmat) etkazib beruvchilar uchun ochib berishi, hamda xorijiy mol etkazib beruvchilarni milliy mol etkazib beruvchilar bilan bir xil shartlar asosida faoliyat yuritishiga imkon berishini nazarda tutadi. Mazkur hujjatdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad, xalqaro savdoni rivojlantirish, xorijiy mol etkazib beruvchilarni diskriminatsiya qilishni oldini olish, xarid jarayonini tartibga soluvchi qonunchilikni ochiqligini ta’minlashdan iborat.

Ushbu kelishuvga muvofiq, davlat buyurtmachisi alohida olingan mol etkazib beruvchiga (milliy belgisiga ko‘ra) davlat buyurtmasini

olishda imtiyozli sharoit yaratib bermasligi lozim. Shuningdek, sotib olinadigan tovarlarga xalqaro savdoni chegaralovchi texnik talablar qo‘yilmasligi yoki tovarlar va xizmatlarga qo‘yiladigan barcha texnik talablar xalqaro me’yorlar asosida bo‘lishi shart[33].

Ma’lumki mamlakatimizda bir qator xalqaro moliyaviy institutlar bilan o‘zaro hamkorlikda bir necha ijtimoiy-iqtisodiy loyilar moliyalashtirilib kelinmoqda. Mamlakatimiz davlat xaridi tizimida biror loyihani moliyalashtirishda xalqaro moliyaviy institutlar mablag‘lari jalb etilgan bo‘lsa, bunda xalqaro moliyaviy institutlarining yo‘riqnoma va nizomlari huquqiy jihatdan ustunlik qiladi.

Bir qancha xalqaro moliyaviy tashkilotlar xarid haqidagi umumiy qoidalar bilan bir qatorda, faqatgina xizmatlarni xarid etishga taalluqli bo‘lgan alohida yo‘riqnoma va qoidalarga ham egadirlar. Masalan, Jahon bankining “Jahon tiklanish va taraqqiyoti bankining (JTTB) qarzlari va Jahon rivojlanish assotsiatsiyasi (JRA) kreditlari hisobiga xarid” yo‘riqnomasi, “Jahon banki qarzdorlarining maslahatchilarni tanlash va yollash”, Jahon bankining namunaviy tender hujjatlari, Osiyo taraqqiyot bankining – “Osiyo taraqqiyot banki va uning qarzdorlari tomonidan maslahatchilarni taklif etish bo‘yicha yo‘riqnoma” kabi hujjatlarga ega.

“Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) tomonidan moliyalashtiriladigan xarid loyihalari uchun qoida va prinsiplar” hujjati ham u bilan hamkorlik qilayotgan davlatlarda xarid tizimini moliyalashtirishda asosiy yuridik hujjat bo‘lib hisoblanadi.

## Nazorat uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridini tartibga soluvchi qanday me’yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud?
2. Mamlakatimizda davlat xaridlari tizimini rivojlanishini nechi bosqichga bo‘lish mumkin?
3. 2011 yilgacha bo‘lgan davrda davlat xaridlarini qanday meyoriy hujjatlar tartibga solgan?
4. 2011 yildan 2017 yilgacha bo‘lgan davrda davlat xaridlari tizimida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘di?
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1475-sonli “Davlat xaridlari tizimini makbullashtirish va unga kichik biznes

[33] Burxonov U.A., Atamuradov T.T. “Davlat xaridi” O‘quv qo‘llanma. Fan va texnologiya - 2012 yil. B-19

subyektlarini jalb etishni kengaytirish to‘g‘risida”gi Qarori bilan amaliyotga qanday yangiliklar joriy etildi?
6. Elektron auksion savdolar qanday shartlar va talablar asosida o‘tkaziladi?
7. Elektron auksion savdolar qanday turdagi tovarlarni sotib olinishi belgilangan edi?
8. Elektron katalog savdolari qachon amaliyotga joriy etildi?
9. Elektron katalogda nimalarni xarid qilish mumkin edi?
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 avgustdagi «Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3237-sonli Qarori bilan amaliyotda qanday o‘zgarishlar kiritildi?
11. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonundagi asosiy yangiliklar nuimalardan iborat?
12. 2018 yil 9 apreldan davlat xaridlari tizimida qanday tartib-taomillar o‘rnatildi?
13. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonuni bilan qanday asosiy yangiliklar kiritildi?
14. “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonunda xarid qilish tartib-taomillariga qanday o‘zgartirishlar kiritildi?
15. 2022 yil 1 yanvardan davlat xaridlari tizimida qanday o‘zgarishlar joriy etildi?
16. Yunsitral “Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to‘g‘risida” qonuni qachon qabul qilingan?
17. Yunsitral “Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to‘g‘risida” qonuning asosiy maqsadi nimadan iborat?
18. Yunsitral “Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to‘g‘risida” qonuning tamoyillari nimalardan iborat?
19. Hukumat xaridi bo‘yicha Kelishuvning asosiy maqsadi nimadan iborat?
20. Hukmat xaridi Shartnomasiga ko‘ra davlat xaridini joylashtirishning nechta shakli keltirilgan?

# 4-BOB. DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISH MODELLARI

## 4.1. Davlat xaridlarini tashkil etish modellari

Har bir mamlakatning davlat xaridlari tizimi ma'lum bir model asosida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarining xarid qilish modellarini umumlashtirsak, ular asosan, 3 xil ko'rinishda ekanligini ko'rishimiz mumkin:

1. Markazlashgan model;
2. Markazlashmagan model;
3. Aralash model.

Xaridlarni ***markazlashgan model***da sotib olinishi lozim bo'lgan tovar (ish,xizmat) uchun buyurtmalar maxsus vakolatli tashkilot yoki hukumatning ma'lum bir tarkibiy bo'linmasi (mahalliy hokimiyat, vazirlik, qo'mita, agentlik va h.k) - tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, Xalq ta'limi vazirligi mamlakatdagi 10 mingdan ortiq maktablar uchun nashriyotlarga darsliklarga buyurtmani markazlashgan holda beradi. Yoki Sog'liqni saqlash vazirligi quyi tibbiyot muassalari uchun dori-darmon, tibbiy diagnostika jihozlarini markazlashgan holda buyurtma berib, so'ngra uni quyi bo'linmalar ehtiyojidan kelib chiqib taqsimlab, yetkazib beradi. Ustavida davlat ulishi 50 % dan yuqori bo'lgan korporativ tuzilmalar, masalan, "O'zbekneftgaz" AJ yoki "Asakabank" AJning markaziy apparati qaysidir tovar (ish,xizmat) markazlashgan holda xarid qilib, so'ngra quyi filiallarga yetkazib berishi ham bunga misol bo'ladi.

Markazlashgan modelda yuqori turuvchi organ (tashkilot) quyi tashkilotlardan ma'lum bir tovar (ish,xizmat)ga ehtiyojlarni jamlab, yaxlit xaridga buyurtma beradi. Ayrim yirik davlat buyurtmachilarida faqat xaridlar bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'linma (aksariyat aksionerlik jamiyatlari va kompaniyalarida xarid departamenti) shakllantiriladi.

Xaridlarni markazlashgan modelda amalga oshirishning bir qator *afzalliklari* mavjud. Masalan:

– markazlashgan modelda yirik hajmdagi ulgurji buyurtma berilgani bois, sotib olinayotgan tovar (ish,xizmat) arzon narxda olinadi;

– vazirlik yoki yuqori turuvchi organlar tomonidan tashkil etilgan maxsus komissiya tarkibidagi yuqori malakali mutaxassislar sotib olinayotgan tovar (ish,xizmat)ning sifati, yaroqligi yoki yetkazib beruvchining ishonchliligini o'rganib, so'ngra buyurtma beradilar;

– katta hajmda buyurtma berilgani bois tovar (ish,xizmat)ning bir birligi uchun tashish, oʻrnatish, sugʻurta xarajatlari kam miqdorni tashkil etadi va h.k.

Xaridlarni markazlashgan modelda amalga oshirishning afzalliklari bilan bir qatorda *kamchiliklari* ham mavjud. Masalan:

– markazlashgan modelda katta hajmda buyurtma berilgani bois yetkazib berilgan tovar (mahsulot)lar tarkibida yaroqsiz va sifatsizlari ham boʻlishi mumkin. Buyurtmani qabul qilib olayotgan paytda har bir mahsulotni tekshirib olishning jismonan imkoniyati boʻlmaydi (Maktab darsliklarida ayrim sahifalarning kesilmay qolganligi, kitoblar teskari yelimlanganligi, dori-darmonlar idishida meyordagidan kam miqdorda dorilarni boʻlishi, kiyim-kechaklar oʻlchovi (razmeri)dan kichik yoki katta tikilishi kabi holatlar uchrab turadi);

– markazlashgan holda yuqori turuvchi organlar tomonidan xarid qilingan tovar (mahsulot)lar hammasi ham quyi boʻlinmalarning ehtiyojlariga mos kelavermasligi mumkin (masalan byudjet tashkilotlari komyuter jihozlari yoki stol-stul boʻyicha yuqori turuvchi tashkilotga ehtiyojlarini bildirib, eng zamonaviy, qulay tovarni kutayotganlarida, ularga narxi arzonroq yoki foydalanishda ba’zi noqulayliklar tugʻdiradigan mahsulotlar berilishi kabi holatlar nazarda tutilmoqda).

– markazlashgan holda xaridlarni amalga oshirilganda odatda, quyi boʻlinmalarning ehtiyojlari umumlashtirilib, soʻngra buyurtma beriladi. Qolaversa, buyurtma hajmi kattaligi bois zarur tovar(ish,xizmat)lar kechikib yetkazib berilishi mumkin va h.k.

Xaridlarni ***markazlashmagan model*** asosida sotib olishda har bir davlat buyurtmachisi zarur tovar(ish,xizmat)larni belgilangan talablar va tartib – taomillar asosida mustaqil amalga oshiradilar. Masalan, har bir tuman moliya boʻlimi, har bir oliy ta’lim muassasasi, har bir bank filiali oʻzlari uchun zarur boʻlgan tovar(ish,xizmat)larni belgilangan qonunchilik talablari asosida oʻzlari xarid qilishlari mumkin boʻladi.

Xaridlarni markazlashmagan modelda amalga oshirishning ham *afzalliklari* mavjud. Masalan:

– markazlashmagan modelda tovar(ish,xizmat)larga boʻlgan ehtiyoj bir muncha tezroq qondiriladi;

– sotib olingan tovar(ish,xizmat)lar boʻyicha mas’ullik bevosita shu buyurtmaching oʻzida boʻladi;

– mavjud sharoit va imkoniyatdan kelib chiqib, oʻz ehtiyojlariga mos tovar(ish,xizmat)larni sotib olish mumkin boʻladi va h.k.

Markazlashmagan modelda xarid qilishning ham *kamchiliklari* mavjud. Masalan:

– markazlashmagan modelda kam hajmda buyurtma berilishi bois sotib olinayotgan tovar(ish,xizmat)lar narxi ba’zan qimmatga tushishi mumkin;

– har bir davlat buyurtmachiga mustaqil xarid qilishga ruxsat berilishi buyurtmaching tajribasizligi tufayli ba’zan sifatsiz, kafolat muddati kam tovar(ish,xizmat)lar ham sotib olinishi mumkin;

– markazlashmagan holda xaridlarni amalga oshirilganda ba’zan buyurtmachilarning vakillari shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab, nohalol shartnomalar tuzishlari, mablag‘larni noqonuniy o‘zlashtirish holatlari ham bo‘lishi mumkin va h.k.

***Aralash modelda*** esa, xaridlarni davlat buyurtmachisi va ixtisoslashgan tashkilot bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Masalan, O‘zbekistonda buyudjet tashkilotlari tovar(ish,xizmat)larga buyurtma berganda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi ushbu tovar(ish,xizmat)lar uchun mablag‘lar ko‘zda tutilganligi, buyurtmachining hisob raqamda yetarlicha mablag‘ mavjudligini tasdiqlaganidan so‘ng, e’lon beriladi. Yoki, tender savdolarida va tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming (byudjet buyurtmachilari uchun olti ming) baravari miqdoridan oshgan hollarda davlat xaridiga doir texnik topshiriqlar qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi «Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi» davlat unitar korxonasiga yuboriladi. Xarid bo’yicha e’lon faqat davlat xaridiga doir texnik topshiriq bo’yicha Kompleks ekspertiza qilish markazining ijobiy xulosasi olinganidan keyin joylashtiriladi.

Xaridlarni aralash modelda amalga oshirishning qator *afzalliklari* mavjud. Masalan:

– aralash modelda mablag‘larni samarasiz va noqonuniy sarflashning oldi olinadi;

– vazirlik yoki yuqori turuvchi organlar tomonidan tashkil etilgan maxsus komissiya tarkibidagi yuqori malakali mutaxassislar sotib olinayotgan tovar (ish,xizmat)ning sifati, yaroqligi yoki yetkazib beruvchining ishonchliligini o‘rganib, so‘ngra buyurtma beradilar;

– xarid qilinayotgan tovar (ish,xizmat)lar bo‘yicha joriy nazoratni am alga oshirilish ta’minlanadi va h.k.

Aralash modelning afzalliklari bilan bir qatorda *kamchiliklari* ham mavjud. Masalan:

– aralash modelda mas’ul yoki ixtisoslashgan tashkilotdan ruxsat olish muddati ba’zan cho‘zilishi oqibatida xarid qilish kechikishi mumkin;

– ushbu modelda buyurtmachi, ixtisoslashgan tashkilot va maxsus axborot portal operatorlari o‘rtasida electron hujjat aylanish yo‘lga qo‘yilgani bois, ba’zan uzoq tumanlarda elektr ta’minoti, dasturdagi texnik va internet tezligi bilan bog‘liq muammolar xarid qilishda noqulayliklar ham tug‘dirishi mumkin va h.k.

## 4.2. Davlat xaridining tashkiliy shakllari

Bugungi kunda mamlakatimiz xarid tizimida xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari quyidagilardan iborat:

1. Elektron do’kon;
2. Boshlang’ich narxni pasaytirish uchun o’tkaziladigan auksion;
3. Eng yaxshi takliflarni tanlash (tanlov);
4. Tender;
5. To’g’ridan-to’g’ri shartnomalar bo’yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari;
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari (electron birja savdolari, yarmarkalar va h.k).

*Elektron do’kon* maxsus talablar tatbiq etilmaydigan iste’mol tovarlarining va boshqa tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirish uchun mo’ljallangan maxsus axborot portalidagi maxsus maydonchadir.

*Boshlang’ich narxni pasaytirish uchun o’tkaziladigan auksion* davlat xaridlarining raqobatli usuli bo’lib, uni tashkil etishda narx ishtirokchini tanlashning yagona mezoni bo’ladi va bunda mazkur norma tovarlarni belgilangan sifat standartlariga muvofiq holda yetkazib berish talabini bekor qilmaydi. Tovarni e’londa bayon etilgan shartlar asosida eng past narx bo’yicha yetkazib berishni taklif qilgan ishtirokchi auktsionning g’olibi bo’ladi.

*Eng yaxshi takliflarni tanlash (tanlov)* deganda shartnomani bajarish bo'yicha eng yaxshi shartlarni taklif qilgan ishtirokchi g'olib deb topiladigan xarid qilish tartib-taomilini amalga oshirishning turi tushuniladi. Davlat xaridi to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga tanlov o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni va tanlov hujjatlarini joylashtirish orqali cheklanmagan doiradagi shaxslarga ma'lum qilinadi.

*Tender* deganda davlat xaridini ikki bosqichda amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili orqali ijrochini aniqlash usuli tushuniladi. Bunda shartnomani bajarish bo'yicha eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tender ishtirokchisi ushbu tartib-taomil natijalari bo'yicha g'olib deb topiladi. Davlat xaridi haqidagi axborotni davlat buyurtmachisi tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni va tender hujjatlarini maxsus axborot portaliga joylashtirish orqali shaxslarning cheklanmagan doirasiga ma'lum qiladi. Shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlari tender ishtirokchilarining takliflarini baholash bo'yicha e'lon qilingan mezonlar asosida xarid komissiyasi tomonidan aniqlanadi.

*To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari* esa davlat buyurtmachisi bilan ishtirokchi (etkazib beruvchi) o'rtasida hech qanday savdo turlarini amalga oshirmasdan, shartnoma tuzish orqali xaridlarni amalga oshiriladigan xarid qilish tartib-taomilidir.

## 4.3. Davlat xaridlarining asosiy prinsiplari

Davlat xaridlarining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

***1. Kasbiy mahorat va mas'uliyatlilik prinsipi.*** Davlat buyurtmachisi, davlat xaridlari elektron tizimining operatori, ixtisoslashgan tashkilot mas'ul shaxslarining kasbiy mahorati tegishli bo'linmalar xodimlariga nisbatan soha bo'yicha ma'lumoti bo'lishi, malakasini muntazam ravishda oshirishi, bosqichma-bosqich amaliy tajribaga ega bo'lib borishi va kasbiy faoliyati to'g'risidagi talablarni belgilash yo'li bilan ta'minlanadi.

Davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan shaxsni belgilashi shart. Kasbiy mahoratga ega bo'lish maqsadida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan shaxsning malakasini muntazam ravishda oshirib borish davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ tomonidan o'qitishni tashkil etish orqali ta'minlanadi.

Manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan taqdirda, xarid qilish tartib-taomilini tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan shaxs bajariladigan vazifalardan chetlashtirilishi lozim.

***2. Asoslanganlik prinsipi.*** Davlat xaridlari davlat buyurtmachisining o'z oldida turgan vazifalarni hal etishni ta'minlaydigan haqiqiy talablari va ehtiyojlarini samarali qanoatlantirish uchun davlat xaridlarini o'tkazishning maqsadga muvofiqligi va zarurligi, tovarni (ishni, xizmatni) tanlashning, uning iste'mol xususiyatlari (tavsifi), sifat ko'rsatkichlarining va qiymatining asoslanganligi hisobga olingan holda amalga oshirilishi kerak.

***3. Moliyaviy mablag'lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi prinsipi.*** Davlat xaridlari davlat buyurtmachisining davlat xaridlarini o'tkazish xarajatlarini va tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymatini hisobga olish; davlat xaridlari uchun ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanish, shu jumladan, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) olishdan ko'rilgan naf, ularning sifati va qiymati o'rtasidagi maqbul nisbatni (foydalanish davri xarajatlarini hisobga olgan holda) ta'minlash;davlat xaridlarini maqbul muddatlarda o'tkazish imkonini beradigan oqilona va tejamkor usulda amalga oshirilishi kerak.

***4. Ochiqlik va shaffoflik prinsipi.*** Davlat xaridlarining ochiqligi va shaffofligi tegishli davlat organlariga, davlat xaridlarining sub'ektlariga va jamoatchilikka davlat xaridlari to'g'risidagi axborotdan qonunchilikda belgilangan tartibda to'liq, o'z vaqtida, erkin va bepul foydalanish imkoniyatini ta'minlagan holda uni maxsus axborot portaliga joylashtirish; xarid qilish tartib-taomillariga doir hujjatlarni va hisobotlarni tuzish hamda but saqlashni ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

***5. Raqobat va xolislik prinsipi.*** Davlat xaridlaridagi raqobat xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari o'rtasidagi, davlat xaridlari elektron tizimlarining operatorlari o'rtasidagi va ixtisoslashgan tashkilotlar o'rtasidagi tortishuv, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqishda hamda xolis va asosli mezonlar asosida eng maqbul taklif foydasiga yakuniy qaror qabul qilishda beg'arazlik va shaffoflik mexanizmlaridan foydalanish hisobidan qo'llab-quvvatlanadi.

Davlat xaridlarining xolisligi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqishdagi, shuningdek eng maqbul variant foydasiga yakuniy qaror qabul qilishdagi beg'arazlikni nazarda tutadi.

Davlat xaridlarining xolisligi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilariga teng imkoniyatlarni ta'minlashga; davlat xaridlari

sub'ektlari o'rtasida raqobatni va ularga nisbatan beg'arazlikni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga; davlat xaridlari jarayonida shikoyatlar, nizolar va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqishning hamda tegishli chora-tadbirlar ko'rishning ochiq, oshkora va tortishuv mexanizmlariga asoslanadi.

***6. Mutanosiblik prinsipi.*** Davlat xaridlarida mutanosiblik davlat xaridlarini amalga oshirish usulining tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xavf-xatariga, qiymatiga, xususiyatiga va murakkabligiga; talablarning xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari malakasiga oid ma'lumotlarga, takliflarni baholash mezonlari va usullarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga); davlat xaridlari sub'ektlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi ularning o'z vazifalariga mosligi bilan ta'minlanadi.

***7. Davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi prinsipi.*** Davlat xaridlari maqsadlar, prinsiplar va yondashuvlarning yagonaligiga, davlat xaridlari jarayoni barcha bosqichlarining yaxlitligi va o'zaro aloqadorligiga hamda davlat xaridlari barcha sub'ektlarining hamkorligiga asoslanadi.

Davlat xaridlarining yagonaligi va yaxlitligi davlat xaridlarini tartibga soluvchi yagona va yaxlit normativ-huquqiy baza hamda uni bir xilda qo'llash; davlat xaridlarining davlat xaridlari to'g'risidagi barcha axborotni to'plash, unga ishlov berish va uni tahlil qilishni hamda barcha manfaatdor shaxslarga undan foydalanishni ta'minlaydigan yagona, yaxlit va kompleks axborot tizimi mavjudligi; davlat xaridlariga oid hujjatlarni birxillashtirish; xalqaro standartlarga uyg'un tarzda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) standartlashtirilgan yagona milliy klassifikatorini joriy etish; davlat xaridlarini rejalashtirish va amalga oshirishni, davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomalarni tuzish va ijro etishni, monitoringni va nazoratni amalga oshirishni, nizolar hamda kelishmovchiliklar ustidan shikoyat qilish va ularni ko'rib chiqishni, davlat xaridlari sub'ektlarining kasbiy mahorati darajasi va mas'uliyati oshirilishining tashkil etilishini ta'minlovchi yagona infratuzilmaning mavjudligi bilan ta'minlanadi.

***8. Korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik prinsipi.*** Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazishga doir talablar davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymasligi kerak. Bunda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ustuvor bo'ladi.

Davlat buyurtmachilari davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari to‘g‘risidagi axborotning ochiqligi va shaffofligini ta’minlashi kerak.

Davlat xaridlarida korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik insofli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog‘ida xolisona mezonlardan foydalanilishini; monitoring va nazorat o‘tkazishning, shu jumladan ichki monitoring va nazorat o‘tkazishning samarali tizimi yaratilishini; Qonun va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi hollari to‘g‘risidagi ma’lumotlar axborotning ochiq manbalarida e’lon qilib borilishini; davlat xaridlari tartib-taomillari Qonunda belgilangan talablarga muvofiq o‘tkazilishini ta’minlash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Qonunchilikda davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

**Nazorat uchun savollar**

1. Davlat xaridini tashkil etishning qanday modellari mavjud va ularning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Markazlashgan modelning o‘ziga xos xususiyati nimadan iborat?
3. Markazlashmagan modelda qanday xaridlar amalga oshiriladi?
4. Aralash modelning kamchiliklari nimalardan iborat?
5. Davlat xaridini tashkiliy elementlariga nimalar kiradi?
6. Mamlakatimizda davlat xaridining qanday tartib-taomil turlari mavjud?
7. Elektron do‘kon nima?
8. Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion qanday savdo turi?
9. Tanlov deganda nima tushuniladi?
10. Tenderning mohiyati niamadan iborat?
11. Tenderlar orqali davlat xarini amalga oshirish qaysi hollarda amalga oshiriladi?
12. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar orqali xaridlar qanday amalga oshiriladi?
13. Davlat xaridlarining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?

# 5-BOB. DAVLAT XARIDLARI JARAYONIGA DOIR UMUMIY TALABLAR

## 5.1. Davlat xaridlari jarayoni va bosqichlari

Davlat xaridlari jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

– davlat xaridlarini rejalashtirish;

– xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish;

– shartnomani tuzish va bajarish;

– davlat xaridlari monitoringi.

Davlat xaridlarini rejalashtirish davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi va xaridlarni tizimlashtirishdan, davlat xaridlarini rejalashtirish hamda byudjet va investitsiya jarayonlaridagi rejalashtirish o‘rtasida o‘zaro aloqani ta’minlashdan iborat bo‘ladi.

Davlat xaridlarining yillik reja-jadvali budjet buyurtmachilari tomonidan joriy yilning 25 martiga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi. Kelgusi yil uchun davlat xaridlarining yillik reja-jadvallari korporativ buyurtmachilar tomonidan joriy yilning 25 dekabriga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi. Kelgusi chorak uchun davlat xaridlarining choraklik reja-jadvallari davlat buyurtmachilari tomonidan joriy chorak oxirgi oyining 25 sanasiga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

Xarid tizimida davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot muhim ahamiyatga ega. Davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot jumlasiga quyidagilar kiradi:

– davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik;

– davlat xaridlarining reja-jadvallari;

– davlat xaridlari to‘g‘risidagi e’lonlar;

– hujjatlarning namunaviy shakllari;

– xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan namunaviy shartnomalar;

– davlat xaridlari bosqichlarining natijalari to‘g‘risidagi axborot;

– қhartnomalarning yagona reyestri;

– Yagona yetkazib beruvchilar reyestri;

– Insofsiz ijrochilarning yagona reyestri;

– Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning qarorlari;

– davlat xaridlari bo‘yicha statistik axborot.

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portalida e’lon qilinadi.

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘liq, xolis va ishonchli bo‘lishi kerak.

Davlat xaridlari tizimida davlat buyurtmachilari ishtirokchilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha davlat xaridlariga taalluqli bo‘lgan takliflarini baholash mezonlarini va savdoni amalga oshirish tartib-taomillariga taalluqli qoidalarni oldindan ma’lum qilishlari lozim.

Ishtirokchilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha davlat xaridlariga taalluqli bo‘lgan takliflarini baholash mezonlarida:

– narx;

– yetkazib berish bazisi;

– yetkazib berish muddatlari;

– tavsifnomalar va sifat ko‘rsatkichlari;

– ekspluatatsiya qilish (foydalanish) muddati;

– to‘lov va kafolatlar shartlari;

– muayyan davrdagi ekspluatatsiya qilishga, shu jumladan foydalanish va ta’mirlashga doir xarajatlar;

– qonunchilik talablariga zid bo‘lmagan boshqa mezonlar nazarda tutiladi.

Davlat buyurtmachisi tomonidan belgilanadigan davlat xaridi shartlarida ishtirokchilarning takliflarini baholash mezonlari, ularning nisbiy qiymati, baholash tartib-taomillari doirasida baholash mezonlarini qo‘llash tartibi bo‘lishi kerak. Ishtirokchilarning takliflarini baholash va g‘olibni aniqlashda davlat buyurtmachisi faqat xarid qilish hujjatlarida ko‘rsatilgan baholash mezonlari va tartib-taomillaridan foydalanadi hamda bu mezonlar va tartib-taomillarni ushbu hujjatlarda bayon etilgan tartibda qo‘llaydi.

Davlat xaridlarini amalga oshirishda ekologik muhitni yaxshilashga ko‘maklashish yoki atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta’sirni kamaytirish maqsadida ishtirokchilarning takliflarini baholash va ijrochini aniqlash jarayonida energiya samaradorligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik jihatdan maqbul materiallardan hamda ikkilamchi xom ashyodan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish kabi mezonlardan va xarid qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) ekologik maqbulligini baholashga oid boshqa omillardan foydalanilishi mumkin.

Davlat xaridlari qiymatining bozor narxlariga muvofiqligini baholash uchun davlat buyurtmachisi ochiq axborot manbalaridagi axborotlardan yoki boshqa ishonchli manbalardan foydalanadi.

## 5.2. Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlari tavsifiga va shartnoma shartlariga taalluqli qoidalar

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi tavsifi xolis, funktsional va umumiy xususiyatga ega boʻladi. Tavsifda tovarlar (ishlar, xizmatlar) davlat xaridining tegishli texnik, sifat va ekspluatatsiya qilinish xususiyatlari koʻrsatiladi.

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlari tavsifi tasniflarni, rejalarni, chizmalarni, eskizlarni, talablarni hamda sinovlar va sinov usullari, qadoqlash, tamgʻalash haqidagi yoki muvofiqlik sertifikati, shuningdek shartli belgilar va atamalar toʻgʻrisidagi axborotni oʻz ichiga olishi mumkin.

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi tavsifiga aniq tovar belgisiga yoki nomiga, patentga, konstruktsiyaga yoki modelga, u mansub boʻlgan muayyan manbaga yoki ishlab chiqaruvchiga doir talablar yoki havolalar kiritilmasligi kerak, bundan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi xususiyatlarini taʼriflashning boshqa etarlicha aniq usuli mavjud boʻlmagan hollar mustasno va bunda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) boshqa bir ishlab chiqaruvchining ekvivalent tovarlari (ishlari, xizmatlari) bilan almashtirish imkoniyati toʻgʻrisidagi eslatma kiritilishi kerak.

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi tavsifida quyidagilar boʻlishi kerak:

- tovarlarning soni;
- bajarilishi (koʻrsatilishi) kerak boʻlgan ishlar (xizmatlar);
- tovarlar etkazib berilishi lozim boʻlgan yoxud ishlar bajarilishi yoki xizmatlar koʻrsatilishi kerak boʻlgan joy;
- tovarlarni etkazib berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar koʻrsatishning maqbul yoki talab etilgan muddatlari, agar ular mavjud boʻlsa.

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridiga doir hujjatlarda xarid qilinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat buyurtmachisi tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlash imkonini beradigan koʻrsatkichlar boʻlishi kerak. Bunda shunday koʻrsatkichlarning eng koʻp va (yoki) eng kam qiymatlari, shuningdek

o‘zgartirilishi mumkin bo‘lmagan ko‘rsatkichlarning qiymatlari ko‘rsatiladi.

Zarur bo‘lgan hollarda davlat buyurtmachisi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) kafolat muddatiga va (yoki) ularning sifatiga beriladigan kafolat hajmiga, tovarga kafolat xizmati ko‘rsatishga, tovardan foydalanish xarajatlariga, tovarni montaj qilish va sozlashning majburiyligiga, tovardan foydalanuvchi va unga xizmat ko‘rsatuvchi shaxslarni o‘qitishga doir talablarni belgilaydi.

Mashinalar va asbob-uskunalarni etkazib beruvchi ijrochi aniqlangan taqdirda davlat buyurtmachisi davlat xaridiga doir hujjatlarda tovarning kafolat muddatiga va (yoki) uning sifatiga beriladigan kafolat hajmiga, tovarga kafolat xizmati ko‘rsatishga, tovarga kafolat muddati mobaynida xizmat ko‘rsatish xarajatlariga, shuningdek tovarni montaj qilish va sozlashga, agar bu tovarning texnik hujjatlarida nazarda tutilgan bo‘lsa, talablar belgilaydi. Yangi mashinalar va asbob-uskunalarni etkazib beruvchi ijrochi aniqlangan taqdirda davlat buyurtmachisi davlat xaridi to‘g‘risidagi hujjatlarda ushbu tovarni ishlab chiqaruvchining va (yoki) etkazib beruvchining kafolatini taqdim etishga hamda bunday kafolatning amal qilish muddatiga nisbatan qo‘shimcha ravishda talablar belgilaydi. Bunday kafolatni berish ushbu tovar bilan birga amalga oshiriladi.

Agar tovarlarning davlat xaridi tavsifida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, etkazib berilayotgan tovar yangi bo‘lishi kerak.

Tovarni ishlab chiqaruvchiga, ishtirokchiga doir talablarni, shu jumladan ishtirokchining malakasiga qo‘yilgan talabni tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi to‘g‘risidagi hujjatlarga (shu jumladan tovarning, ishning yoki xizmatning sifatiga, texnik xususiyatlariga doir talablar, tovarning funktsional xususiyatlariga (iste’mol qilish xususiyatlariga) doir talablar shaklida) kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot davlat tilida, shuningdek davlat buyurtmachisining ixtiyoriga ko‘ra boshqa tillarda e’lon qilinadi va tarqatiladi.

*Ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar.* Ishtirokchilar quyidagi mezonlarga muvofiq bo‘lishi kerak:

- shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi;
- shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha qarzdorlikning mavjud emasligi;

- o‘ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

Insofsiz ijrochilarning yagona reestrida qayd etilmaganligi.

Ishtirokchilarga qo‘shimcha talablar qo‘yiladigan davlat xaridi. Davlat buyurtmachisi zarur bo‘lganda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) o‘ziga xos xossalaridan yoki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ishtirokchilarga qo‘shimcha talablar belgilashga haqli.

Ishtirokchilarga qo‘yiladigan qo‘shimcha talablar Qonunda belgilangan printsiplarga zid bo‘lmasligi kerak.Ishtirokchilarga qo‘yiladigan qo‘shimcha talablar davlat xaridi to‘g‘risidagi axborotda u e’lon qilingan paytda ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.Ishtirokchilarga qo‘shimcha talablar qo‘yiladigan davlat xaridida ishtirok etish uchun ishtirokchilar akkreditatsiya tartib-taomilidan o‘tadi.

Ishtirokchilarni akkreditatsiyadan o‘tkazish tartibi vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

*Birgalikdagi davlat xaridlari.* Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) birgalikdagi davlat xaridlarini shakllantirish ikki va undan ortiq davlat buyurtmachisining davlat xaridlari bo‘yicha rejalariga ko‘ra amalga oshiriladi.

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) birgalikdagi davlat xaridlarini shakllantirish bir davlat dasturida yoki loyihalar portfelida ishtirok etayotgan davlat buyurtmachilarida amalga oshirilishi kerak.

*Takliflarni ta’minlash.* Davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomiliga nisbatan ishtirokchilar tomonidan takliflarning garov, kafolat, zakalat tarzida yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usulda ta’minlanishi zarurligi to‘g‘risida talab belgilashga haqli.

Xarid qilish tartib-taomiliga nisbatan ishtirokchilar tomonidan takliflarning ta’minlanishi zarurligi tarzidagi talab barcha ishtirokchilarga taalluqli bo‘ladi va davlat xaridlarining shartlarida ko‘rsatiladi.

Davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomiliga nisbatan ishtirokchilar tomonidan takliflarning ta’minlanishi zarurligi tarzida talab belgilagan taqdirda, takliflar yuborilguniga qadar ishtirokchi ta’minotning maqbulligini tasdiqlash to‘g‘risida so‘rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so‘rovga darhol javob beradi.

Davlat buyurtmachisi taklifni ta’minlash summasi to‘lanishini talab qilmaydi va ta’minlash to‘g‘risidagi hujjatni darhol qaytaradi yoki quyidagi voqealardan biri yuz berganidan keyin uning qaytarilishini ta’minlaydi:

- taklifni ta’minlashning amal qilish muddati tugashi;
- davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomaning kuchga kirishi va ushbu shartnomaning bajarilishi ta’minlanishi, agar bunday ta’minlash davlat xaridi shartlarida talab etilsa;
- davlat xaridlarining bekor qilinishi;
- takliflarni yuborishning oxirgi muddati tugaguniga qadar taklifning chaqirib olinishi, agar davlat xaridi shartlarida bunday qaytarib olishga yo‘l qo‘yilmasligi aytib o‘tilmagan bo‘lsa.

*Muzokaralar olib borishni taqiqlash.* Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda davlat buyurtmachisining maxsus axborot portali operatori bilan va maxsus axborot portali operatorining ishtirokchi bilan muzokaralar olib borishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

*Ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish shartlari.* Davlat buyurtmachisi yoki maxsus axborot portali operatori quyidagi hollarda ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatadi, agar:

❖ ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning bajarilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo‘llanilishiga ta’sir o‘tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to‘g‘risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;

❖ ishtirokchi raqobatlashuvda adolatsiz ustunlikka ega bo‘lsa yoki qonun hujjatlarini buzgan holda manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqarsa.

Davlat buyurtmachisining yoki maxsus axborot portali operatorining ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish to‘g‘risidagi qarori va buning sabablari xarid qilish tartib-taomillari to‘g‘risidagi hisobotga kiritiladi hamda ular haqida tegishli ishtirokchiga darhol xabar beriladi.

*G‘olib bo‘lgan taklifning aktsepti hamda aktsept uchun asoslar.* Davlat buyurtmachisi o‘tkazilgan xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha g‘olib bo‘lgan taklifning aktsepti to‘g‘risida bir ish kuni ichida qaror qabul qiladi.

G‘olib bo‘lgan taklifning aktsepti quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin, agar:

➢ davlat xaridlari bekor qilinmagan bo‘lsa;

- g'olib bo'lgan taklifni yuborgan ishtirokchi chetlatilmagan bo'lsa;
- xarid qilish tartib-taomili buzilmagan bo'lsa.

Davlat xaridini bekor qilish. Davlat buyurtmachisi g'olib bo'lgan taklif aktseptiga qadar istalgan vaqtda davlat xaridini bekor qilish huquqiga ega. Davlat xaridi bekor qilingan taqdirda davlat buyurtmachisi maxsus axborot portalida mazkur qarorning asoslantirilgan sabablarini e'lon qiladi.

Davlat buyurtmachisi davlat xaridi bekor qilinganligi uchun javobgar bo'lmaydi, bundan davlat xaridi davlat buyurtmachisining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) oqibatida bekor qilingan hollar mustasno.

*Maxfiylik.* Davlat buyurtmachisining yoki maxsus axborot portali operatorining xodimi o'zining ijrochilar yoki istalgan shaxs bilan munosabatlarida, agar axborotni oshkor etmaslik davlat xavfsizligi manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo'lsa yoki bunday axborotning oshkor etilishi qonunga zid bo'lsa, qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlashga to'sqinlik qilsa, ijrochilarning qonuniy tijorat manfaatlariga zarar etkazsa yoxud insofli raqobatga to'sqinlik qilsa, vakolatli organ bu axborotni oshkor etish to'g'risida qaror qabul qilmasa, hech bir axborotni fosh etmaydi. Vakolatli organ bunday axborotni oshkor etish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda ushbu qaror shartlariga rioya etiladi.

Ishtirokchi xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etib, taklifda o'zi ko'rsatgan barcha ma'lumotlarning, takliflarini qabul qilish muddati tugaganidan keyin e'lon qilinishiga rozilik bildiradi.

*Odob-axloq qoidalari.* Davlat buyurtmachilari va maxsus axborot portali operatori davlat xaridlarini o'tkazish uchun Odob-axloq qoidalarini qabul qilishi kerak, unda quyidagilar nazarda tutiladi:

- manfaatlar to'qnashuvining oldini olish chora-tadbirlari;
- kasbiy tayyorgarlikni tekshirish tartib-taomillari va unga doir talablar.

Davlat buyurtmachilari, maxsus axborot portali operatori xodimlarining, xarid komissiyasi a'zolarining odob-axloqi qoidalarida kasbga doir va xizmatdan tashqari faoliyatda odob-axloqning yagona printsiplari va qoidalari, kasbiy tayyorgarlikka doir yagona talablar belgilanadi.

Davlat buyurtmachisining va maxsus axborot portali operatorining mas'ul shaxslari, xarid komissiyasi a'zolari tomonidan ishtirokchilar hamda ijrochilardan moddiy va nomoddiy boyliklarni olish taqiqlanadi.

Odob-axloq qoidalari davlat buyurtmachilarining yoki ularning yuqori turuvchi organlarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinishi lozim.

*Manfaatlar to'qnashuvi.* Davlat buyurtmachisining, maxsus axborot portali operatorining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek xarid komissiyasining a'zolari xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo'lishi mumkin bo'lgan istalgan shaxsiy nafni bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

Yuqorida ko'rsatilgan shaxslar:

- shaxsiy manfaatdor emasligini, shuningdek o'z oila a'zolarining manfaatdor emasligini kafolatlashi kerak, aks holda shaxsiy manfaatdorlik hamda boshqa ishtirokchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi yoki kelishi mumkin;
- manfaatlarning istalgan potentsial, taxmin qilinayotgan yoki mavjud to'qnashuvi haqidagi axborotning oshkor etilishini kafolatlashi kerak.

Mavjud yoki taxmin qilinayotgan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar topgan, ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar bu haqda bevosita rahbarga xabar qilib, bir vaqtning o'zida vakolatli organni xabardor etishi shart. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbar uning oldini olish yoki uni bartaraf etish bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rishi shart.

*Davlat xaridlari jarayonidagi cheklovlar.* Davlat xaridlari jarayonida quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

- ishtirokchilarni kamsitishga, boshqa ishtirokchilarga zarar etkazgan holda bir ishtirokchiga imtiyozlar yoki preferentsiyalar berishga;
- manfaatlar to'qnashuviga;
- davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatga asoslanmagan usullarini qonunga xilof ravishda tanlashga, davlat xaridlari sub'ektlariga ta'sir o'tkazishga, davlat xaridlarida ishtirokchilarning ishtirok etishi to'g'risidagi axborotni oshkor etishga, ularning sonini asossiz ravishda cheklashga yoki ularning malakasiga qo'yilgan talablarni oshirishga, raqobatga yo'l qo'ymaslikning, uni cheklashning yoki bartaraf etishning boshqa shakllariga, bundan qonun hujjatlarida belgilangan hollar mustasno;
- narxlarni yoki ishtirokchilarni saralash natijalarini buzib ko'rsatish maqsadida ishtirokchilarning oldindan til biriktirishiga;

- ishonchsiz yoki buzib ko‘rsatilgan axborotni taqdim etish yoki tarqatishga, shuningdek davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotdan foydalanishni asossiz ravishda cheklashga;
- davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatga asoslangan usullarini chetlab o‘tish maqsadida davlat xaridlari hajmini qismlarga bo‘lib tashlashga;
- ishtirokchilarning sun’iy tarzda pasaytirilgan narxlar bo‘yicha takliflar berishiga, keyinchalik shartnomani imzolashni yoki uni tegishli tarzda ijro etishni rad etishiga;
- davlat xaridi tarkibiga texnologik va funktsional jihatdan o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) kiritishga;
- firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiyaning namoyon bo‘lishiga;
- moliyalashtirish manbalari va hajmlari mavjudligi to‘g‘risida tasdiqlarga ega bo‘lmagan yoki ajratilgan mablag‘lar hajmidan ortiq miqdordagi davlat xaridlarini amalga oshirishga.

## 5.3. Davlat buyurtmachilari bilan tuzilgan shartnomalar reestri va insofsiz ijrochilarning yagona reestri

Maxsus axborot portali operatori maxsus axborot portalidan foydalanish vositasida davlat buyurtmachilari tomonidan tuzilgan shartnomalar reestrini (bundan buyon matnda shartnomalar reestri deb yuritiladi) yuritadi.

Shartnomalar reestriga quyidagi hujjatlar va axborot kiritiladi:

- ➢ davlat buyurtmachisining nomi;
- ➢ moliyalashtirish manbasi;
- ➢ ijrochini aniqlash usuli;
- ➢ xarid qilish tartib-taomilining natijalari sarhisob qilinadigan sana va shartnoma tuzish asoslarini tasdiqlovchi hujjatning rekvizitlari;
- ➢ shartnoma tuzilgan sana;
- ➢ tovar (ish, xizmat), shartnoma bahosi va uni ijro etish muddati, tovar (ish, xizmat) birligining narxi, u kelib chiqqan mamlakatning nomi hamda ijro etilgan shartnomaga doir tovarni ishlab chiqaruvchi to‘g‘risidagi axborot;
- ➢ ijrochi soliq to‘lovchining nomi, firma nomi (agar mavjud bo‘lsa), joylashgan eri (yuridik shaxs uchun — pochta manzili), familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo‘lsa), yashash joyi (jismoniy shaxs uchun), identifikatsiya raqami yoki chet ellik shaxs uchun tegishli chet davlatning

qonun hujjatlariga muvofiq ijrochi soliq to‘lovchining o‘xshash identifikatsiya raqami, bundan tarixiy, badiiy yoki boshqa madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan va davlatning muzey, axborot-kutubxona, arxiv fondlarini, kino fondlarini, fotosuratlar fondlarini va shunga o‘xshash fondlarni to‘ldirish uchun mo‘ljallangan madaniy qimmatliklarni, shu jumladan muzey ashyolarini va muzey kollektsiyalarini, shuningdek noyob va qimmatbaho nashrlarni, qo‘lyozmalarni, arxiv hujjatlarini (shu jumladan ularning ko‘chirma nusxalarini) etkazib beradigan jismoniy shaxs to‘g‘risidagi axborot mustasno;

- shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risidagi axborot, shartnomaning o‘zgartirilgan shartlari ko‘rsatilgan holda;
- shartnomani ijro etish to‘g‘risidagi axborot, shu jumladan shartnoma uchun haq to‘lash, shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni tegishli tarzda bajarmaganlik munosabati bilan moliyaviy sanktsiyalar (jarimalar, penyalar) hisoblanishi to‘g‘risidagi axborot;
- shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi axborot, bekor qilish sabablari va asoslari ko‘rsatilgan holda.

Shartnomalar reestridagi axborot to‘lov undirilmagan holda tanishib chiqish uchun ochiq bo‘lishi kerak.

Shartnomalar reestrini yuritish tartibi vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

Qaysi shartnomalar to‘g‘risidagi axborot shartnomalar reestriga kiritilmagan bo‘lsa, o‘sha shartnomalar uchun haq to‘lanmaydi.

*Insofsiz ijrochilarning yagona reestri.* Insofsiz ijrochilarning yagona reestri vakolatli organ tomonidan shakllantiriladigan ro‘yxatdan iborat bo‘lib, unga quyidagi ma’lumotlar kiritiladi:

- xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha belgilangan shartlarda davlat buyurtmachisi bilan shartnoma tuzishni va davlat xaridlarini amalga oshirishni rad etgan yoki boshqacha usulda bo‘yin tovlagan xarid qilish tartib-taomillari g‘oliblari to‘g‘risidagi;
- majburiyatlarni bajarmaganlikda yoxud tegishli tarzda bajarmaganlikda belgilangan tartibda aybdor deb topilgan ijrochilar haqidagi, bundan majburiyatlar bartaraf etib bo‘lmaydigan kuchlar oqibatida bajarilmagan yoki tegishli tarzda bajarilmagan hollar mustasno;
- sudning qaroriga ko‘ra firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etganlikda aybdor deb topilgan ijrochilar to‘g‘risidagi.

Insofsiz ijrochilarning yagona reestriga kiritilgan ijrochi uch yil davomida davlat xaridlarida ishtirok eta olmaydi, bu muddat tamom bo‘lgach ijrochi Insofsiz ijrochilarning yagona reestridan chiqarib yuborilgan hisoblanadi.

Ijrochilar Insofsiz ijrochilarning yagona reestriga kiritish to‘g‘risidagi qaror ustidan sud tartibida shikoyat qilishga haqli.

**Nazorat uchun savollar**

1. Davlat xaridlari jarayoni qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?
2. Davlat xaridlarini rejalashtirish kim tomonidan amalga oshiriladi?
3. Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari nimalardan iborat?
4. Davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot jumlasiga nimalar kiradi?
5. Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlariga taalluqli baholash mezonlari nimalarni nazarda tutadi?
6. Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlari tavsifiga va shartnoma shartlariga taalluqli qoidalar nimalardan iborat?
7. Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi tavsifida nimalar bo‘lishi kerak?
8. Davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot qaysi tilda e’lon qilinadi va tarqatiladi?
9. Ishtirokchilar qanday mezonlarga muvofiq bo‘lishi kerak?
10. Qanday holatlarda ishtirokchilarga qo‘shimcha talablar qo‘yiladi?
11. Birgalikdagi davlat xaridlari deganda nima tushuniladi?
12. Davlat buyurtmachisi yoki maxsus axborot portali operatori qanday hollarda ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatadi?
13. Davlat xaridlari tizimida maxfiylik nimalardan iborat?
14. Davlat xaridlari tizimida odob-axloq qoidalarida nimalar nazarda tutiladi?
15. Manfaatlar to‘qnashuvi nima?
16. Davlat xaridlari jarayonida qanday cheklovlar mavjud?
17. Davlat buyurtmachilari bilan tuzilgan shartnomalar reestriga qanday hujjatlar va axborot kiritiladi?
18. Insofsiz ijrochilarning yagona reestri nima?
19. Insofsiz ijrochilarning yagona reestriga qanday ma’lumotlar kiritiladi?

# II QISM. DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHRISHNING TARTIB-TAOMILLARI

## 6-BOB. ELEKTRON DO‘KON ORQALI DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

### 6.1. Elektron do‘kon tushunchasining mohiyati

Elektron do‘kon maxsus talablar tatbiq etilmaydigan iste’mol tovarlarining va boshqa tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan maxsus axborot portalidagi maxsus maydonchadir.

Elektron do‘konda:

– bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (budjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming besh yuz baravarigacha) qiymatdagi tovarlarning;

– bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha (budjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha) qiymatdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin.

Elektron do‘kon orqali budjet buyurtmachisi tomonidan ayni bir turdagi tovarlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining o‘n ming baravarigacha amalga oshirilishi mumkin.

Elektron do‘kon orqali budjet buyurtmachisi tomonidan ayni bir turdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravarigacha (korporativ buyurtmachilar uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravarigacha) amalga oshirilishi mumkin.

Byudjet buyurtmachisi elektron do‘konda ishtirok etish uchun davlat xaridlari tizimida birja va Moliya vazirligi bilan yo‘lga qo‘yilgan axborot almashinuvi orqali avtomatik tarzda ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Byudjet buyurtmachisi davlat xaridlari tizimida ro‘yxatdan o‘tgandan keyin, tashkilot nomiga birjaning Hisob-kitob kliring palatasida hisob varaq ochiladi.

Korporativ buyurtmachi esa elektron davlat xaridlari tizimida ro‘yxatdan o‘tish uchun davlat xaridlari bo‘yicha maxsus portal – xarid.uzex.uz saytiga kiradi. Saytining o‘ng tomon tepa qismidagi “Ro‘yxatdan o‘tish” tugmasi bosiladi. Birjaning barcha savdo

platformalarida ro'yxatdan o'tishni ko'zda tutuvchi sahifasida "Elektron raqamli imzo bilan" doirasiga belgi qo'yiladi. Davlat xaridlaridagi korporativ buyurtmachi tanlanadi. Oferta bilan tanishib chiqilgandan so'ng, "qabul qilaman" katagiga belgi qo'yiladi va"Ro'yxatdan o'tish" tugmasi bosiladi. Ochilgan keyingi sahifada so'ralgan ma'lumotlar kataklari to'ldiriladi va belgi qo'yilib, "Jo'natish" tugmasi bosiladi.

Shu bilan ro'yxatdan o'tish jarayoni tugaydi va mijozga Hisob-kitob kliring palatasida hisobvaraq ochiladi. Elektron davlat xaridlari bo'yicha kelgusidagi barcha operatsiyalar elektron raqamli imzodan foydalangan holda buyurtmachining shaxsiy kabineti orqali amalga oshiriladi.

## 6.2. Elektron do'konda takliflarning joylashtirilishi

Elektron do'kon ishtirokchilarning takliflaridan shakllantiriladi. Ishtirokchining elektron do'konda qo'yilgan taklifi davlat buyurtmachilariga yuborilgan ommaviy ofertadir.

Ishtirokchi tomonidan elektron do'konda joylashtirilgan taklifda quyidagilar ko'rsatiladi:

– taklif etilayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) nomi;

– sotish narxi;

– tovarning eng ko'p va eng kam to'pi;

– tovarning rusumi va texnik parametrlari (standartlashtirish bo'yicha normativ hujjat, texnik pasport);

– tovarning fotosurati;

– tovar yetkazib beriladigan (ish bajariladigan, xizmat ko'rsatiladigan) hudud;

– tovarni ishlab chiqaruvchi va u kelib chiqqan mamlakat to'g'risidagi axborot;

– kafolat shartlari va muddati to'g'risidagi axborot;

– tovar ishlab chiqarilgan yil (oziq-ovqatlar va tez buziladigan tovarlarning ishlab chiqarilgan kuni, oyi, yili);

– tovarning yaroqlilik muddati (kun, oy, yil);

– ishni bajarish, xizmatni ko'rsatish muddati;

– tovarni (ishni, xizmatni) majburiy sertifikatlashtirish talab etiladigan hollarda muvofiqlik sertifikati to'g'risidagi axborot, shuningdek sanitariya-epidemiologik, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya xulosalari yoki ekologik ekspertiza haqidagi axborot;

– qonunchilikka binoan litsenziyalashning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat olishning yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnomani yuborishning majburiy talabi mavjud bo‘lgan hollarda litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnoma mavjudligi to‘g‘risidagi axborot.

Ishtirokchining ofertasi u elektron do‘konda joylashtirilgan paytdan e’tiboran o‘n besh ish kuni mobaynida amal qiladi. Ushbu muddat tugaganidan keyin ishtirokchi uni yana o‘n besh ish kuniga aktivlashtirishga haqli.

## 6.3. Elektron do‘konda xarid qilish tartib-taomilini o‘tkazish tartibi

Davlat buyurtmachisi elektron do‘konda ishtirokchilarning ofertalarini o‘rganish yo‘li bilan o‘zi uchun zarur bo‘lgan tovarni (ishni, xizmatni) tanlaydi va tovar (ish, xizmat) tanlanganidan keyin narxlar so‘rovi mexanizmidan foydalanadi.

Davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik rejimda, narxlar so‘rovi mexanizmini amalga oshirgan holda tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchiga, shuningdek elektron do‘konda o‘xshash tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) taklif etayotgan barcha ishtirokchilarga xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish to‘g‘risida takliflar yuborilishini ta’minlaydi.

Ishtirokchilar narxlar so‘rovida ishtirok etish to‘g‘risidagi taklif davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan yuborilgan paytdan e’tiboran qirq sakkiz soat ichida o‘z takliflarini berishga haqli.

Ishtirokchilarga yuborilayotgan narxlar so‘rovida ishtirok etish to‘g‘risidagi taklif davlat buyurtmachisi tomonidan tanlangan ishtirokchining ofertasiga doir havolani o‘z ichiga oladi.

Xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish taklifini olgan ishtirokchi davlat buyurtmachisi tomonidan tanlangan oferta narxidan pastroq narx bo‘yicha taklif kiritishga haqli.

Ishtirokchilar tomonidan berilgan narx bo‘yicha takliflarni taqqoslash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik rejimda amalga oshiriladi.

Davlat xaridlarining elektron tizimi davlat buyurtmachisi va eng past narxni taklif qilgan ijrochi o‘rtasida tuzilgan bitimni ro‘yxatdan o‘tkazadi.

Ishtirokchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlardan davlat buyurtmachisi yoki ishtirokchilar yakunlar sarhisob qilinadigan paytga qadar foydalana

olmaydi. Ijrochining nomi g‘olib aniqlangan paytda davlat xaridlarining elektron tizimida aks ettiriladi.

Davlat xaridlarining elektron tizimi shartnomani davlat buyurtmachisi tomonidan tanlangan ishtirokchining ofertasida bayon etilgan shartlarga muvofiq hamda ishtirokchilar tomonidan taklif etilgan eng past narxda shakllantiradi.

Xarid qilish tartib-taomillarining yakuniga ko‘ra faqat tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchigina ishtirok etgan hollarda davlat xaridlarining elektron tizimi davlat buyurtmachisiga elektron shaklda savdolashish imkonini beruvchi so‘rovni yuboradi. Bunda davlat buyurtmachisida tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchiga u taklif qilgan narxdan pastroq asoslangan narx so‘rovini yuborish imkoniyati paydo bo‘ladi. Tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchi bunday so‘rovni bir ish kuni ichida qabul qilishi yoki rad etishi mumkin.

Tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchi narx so‘rovini qabul qilganda davlat xaridlarining elektron tizimi davlat buyurtmachisi va ijrochi o‘rtasidagi bitimni davlat buyurtmachisi tomonidan yuborilgan so‘rov narxi asosida ro‘yxatdan o‘tkazadi.

Agar tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchi narx so‘rovini qabul qilmasa yoki rad etsa, davlat buyurtmachisi o‘z xohishiga ko‘ra mazkur ishtirokchi bilan shartnomani rasmiylashtirishi yoki Qonun talablariga muvofiq boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion yoki eng yaxshi takliflarni tanlash orqali xaridni amalga oshirishi mumkin. Bunda javobgarlik davlat buyurtmachisining zimmasiga yuklatiladi.

Agar xarid qilish tartib-taomillari tugaganidan keyin bir ish kuni ichida davlat buyurtmachisi tomonidan narx so‘rovi yuborilmasa, davlat xaridlarining elektron tizimi davlat buyurtmachisi va ijrochi o‘rtasidagi bitimni ro‘yxatdan o‘tkazadi.

Davlat buyurtmachisi tomonidan narxlarni o‘rganish davlat xaridlarining elektron tizimi yoki boshqa ochiq manbalarning ma’lumotlaridan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin.

## 6.4. Elektron do'konda to'lovni o'tkazish va shartnoma shartlarini bajarilish tartibi

Shartnoma shakllangandan keyin 10 kun ichida byudjet buyurtmachisi birjaning G'aznachilikdagi maxsus hisob varag'iga pul o'tkazadi, korporativ buyurtmachi esa shaxsiy kabinet orqali "To'lash" mexanizmidan foydalanib to'lovni amalga oshiradi.

Birja ijrochiga shaxsiy kabinet orqali 100% to'lov qabul qilinganligi to'g'risida xabar yuboradi. Ijrochi shartnomada belgilangan muddat ichida va uning boshqa shartlariga muvofiq tovarni etkazib beradi.

Tovar qabul qilingach, 3 kun ichida byudjet buyurtmachisi byudjet tashkilotlari buxgalteriya hisobi va hisobotining avtomatlashtirilgan tizimining dasturiy kompleksi orqali hisob fakturani tizimga kiritadi, korporativ buyurtmachi shaxsiy kabinet orqali "Ijro etildi" mexanizmidan foydalanib shartnoma shartlari bajarilganligini tasdiqlaydi.

Tovar to'liq etkazib berilgandan so'ng byudjet buyurtmachisining 3% zakalat summasi Hisob-kitob kliring palatasi tomonidan avtomat ravishda tegishli shaxsiy hisob varag'iga qaytariladi, korporativ buyurtmachisining 3% zakalat summasi Hisob-kitob kliring palatasi tomonidan blokdan bo'shatiladi.

Elektron xaridlar bo'yicha tuzilgan barcha shartnomalar "Mening buyurtmalarim buyicha shartnomalar ro'yxati" bo'limida joylashtiriladi.

Buyurtmachi belgilangan muddatda to'lovni amalga oshirmagan taqdirda, uning zakalat mablag'i 3 ish kunida Ijrochining Hisob-kitob kliring palatasidagi hisob varag'iga o'tkaziladi.

Tuzilgan shartnoma bo'yicha tovarlar etkazib berilganligi to'g'risida ma'lumot taqdim etilmasa, shartnoma bo'yicha tovarlarni etkazib berish muddati yakunlangandan so'ng 3 ish kuni mobaynida Hisob-kitob kliring palatasi byudjet va korporativ buyurtmachi tomonidan kiritilgan mablag'larni qaytaradi, zakalat mablag'lari bundan mustasno.

Sud yoki Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyasining tegishli qarori qabul qilinguniga qadar buyurtmachi yoki ijrochining zakalatiga band qo'yadi.

## Nazorat uchun savollar

1. Elektron do‘konda qanday miqtordagi davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin?
2. Byudjet buyurtmachilari qaysi savdo platformasida(saytda) elektron do‘kon orqali xaridlarni amalga oshiradilar?
3. Korporativ buyurtmachilari qaysi savdo platformasida(saytda) elektron do‘kon orqali xaridlarni amalga oshiradilar?
4. Ishtirokchi elektron do‘konga joylashtirilgan o‘z taklifida nimalarni ko‘rsatadi?
5. Buyurtmachi lot joylashtirishdan avval qancha miqdordagi komission yig‘im va avans to‘lovini kiritishi lozim?
6. Buyurtmachi reja jadvalda qanday ma’lumotlarni kiritadi?
7. Elektron do‘konda qanday parametrlarga ko‘ra qidiruvni amalga oshirish mumkin?
8. Savdolar jaryonida ishtirokchilar qancha vaqt mobaynida lot bo‘yicha o‘z takliflarini berishlari mumkin?
9. Shartnoma shakllangandan keyin qancha vaqt ichida buyurtmachi to‘lovni amalga oshiradi?
10. Buyurtmachi belgilangan muddatda to‘lovni amalga oshirmagan taqdirda, uning zakalat mablag‘i nima qilinadi?

# 7-BOB. BOSHLANG‘ICH NARXNI PASAYTIRISH UCHUN O‘TKAZILADIGAN AUKSION

## 7.1. Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksionning mohiyati va uni o‘tkazish mezonlari

Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

– tovarning standart xususiyatlarga ega bo‘lishi;

– tovarning texnik, ekspluatatsiya qilinish xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini baholash hamda taqqoslash zarurati mavjud emasligi;

– tovarning qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (budjet buyurtmachilari uchun olti ming baravarigacha) bo‘lgan miqdorini tashkil etishi kerak.

Xizmatlar va ishlarning davlat xaridi auksion ob’ekti bo‘la olmaydi.

Tovarni e’londa bayon etilgan shartlar asosida eng past narx bo‘yicha yetkazib berishni taklif qilgan ishtirokchi auksion g‘olibi bo‘ladi. Bunda mazkur norma belgilangan sifat standartlariga muvofiq bo‘lgan tovarlarni yetkazib berish talabini bekor qilmaydi.

Auksion faqat elektron shaklda o‘tkaziladi. Auksionda ishtirok etish uchun davlat buyurtmachisi maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga e’lon joylashtiradi. Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon u amalga oshirilishidan kamida besh ish kuni avval joylashtirilishi kerak.

Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

– davlat buyurtmachisining nomi va manzili;

– auksionning birinchi va oxirgi kuni (auksion o‘tkaziladigan davr);

– auksion predmetining boshlang‘ich narxi;

– auksion predmeti va uning xususiyati (auksion predmetining tasnifi);

– tovarning miqdori;

– tovarlarni yetkazib berish muddatlari va shartlari;

– tovarlar yetkazib beriladigan joy (manzil);

– tovarning amaldagi standart talabiga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat mavjudligi haqidagi talab;

– tovar majburiy sertifikatlashtirilishi talab etiladigan hollarda, muvofiqlik sertifikati va sanitariya-epidemiologik xulosa mavjudligi to‘g‘risidagi talab;

– zarur bo‘lganda, litsenziya, ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnoma mavjudligi to‘g‘risidagi talab;

– tovarning o‘ziga xos xususiy parametrlarini ifodalovchi shartlar.

Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonning va davlat buyurtmachisi buyurtmanomasining matniga auksion predmetiga taalluqli bo‘lmagan va ishtirokchilar o‘rtasida raqobatni cheklaydigan talablarni kiritish taqiqlanadi.

Maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtirilgan auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon avtomatik ravishda davlat buyurtmachisining buyurtmanomasi etib o‘zgartiriladi.

## 7.2. Auksionni o‘tkazish tartibi

Auksion davlat xaridlarining elektron tizimida boshlang‘ich narxni qadam-baqadam pasaytirish yo‘li bilan o‘tkaziladi. Auksionni o‘tkazish, kiritilgan ta’minot summasiga muvofiq har bir lot bo‘yicha auksiondan foydalanish, auksion g‘oliblarini aniqlash, bitimni ro‘yxatdan o‘tkazish va shartnomani shakllantirish davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik rejimda amalga oshiriladi.

Davlat xaridlari tizimida ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng, ishtirokchi Hisob-kitob kliring palatasiga avans to‘lovini kiritadi.

Bunda komission yig‘imlar – shartnoma qiymatining 0,15% miqdoriga teng. Zakalat qiymati – boshlang‘ich narxining 3% ni tashkil etadi. Zakalat mablag‘larini kiritmasdan siz elektron xaridlarida ishtirok etay olmaydi.

Ishtirokchi elektron xaridlarda ishtirok etish uchun shaxsiy kabinetga elektron raqamli imzo yordamida kiradi. Har ikkala sayt bo‘yicha shaxsiy kabinetlar funktsional jihatdan o‘xshashdir.

Elektron auksionda ishtirok etish uchun zarur lotni topish kerak bo‘ladi. Buning uchun shaxsiy kabinetning o‘ng tomon burchakdagi “Filtr ko‘rsatish” tugmasi bosiladi va “Filtr” bo‘limiga o‘tiladi.

Zarur parametrlar kiritiladi va “Qidiruv” tugmasi bosiladi. Qidirishni quyidagi parametrlar bo‘yicha amalga oshirish mumkin:

- *lot raqami yoki nomi;*
- *tovar kategoriyasi*

- *ro‘yxatdan tovar tanlash*
- *o‘rtacha summasi*
- *hudud*
- *tuman*
- *buyurtmachining stir*
- *muddati*

Auksionni o‘tkazish chog‘ida ishtirokchilar auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon chop etilgan kundan e’tiboran va u tamom bo‘ladigan paytga qadar butun muddat ichida narx bo‘yicha takliflarni cheklanmagan miqdorda berishga haqli.

Ishtirokchilarning nomi va ular bilan bog‘lanishga doir ma’lumotlar auksion g‘olibi aniqlanadigan paytga qadar davlat xaridlarining elektron tizimida aks ettirilmaydi.

Zarur lot tanlangandan so‘ng siz bevosita onlayn auksionda ishtirok etishingiz mumkin. Har ikki yo‘nalishda ham portalga joylashtirilgan lot 15 kun davomida faol bo‘ladi. Shu vaqt mobaynida ishtirokchilar boshlang‘ich narxni 2% miqdorda bosqichma-bosqich pasaytirib borish yo‘li bilan narx taklif qiladilar. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang‘ich narxdan 15% va undan past miqdorda bo‘lsa, boshlang‘ich va taklif etilgan narx o‘rtasidagi farq qilayotgan qiymatda qo‘shimcha zakalat kiritilishi talab etiladi.

Auksion tugaydigan vaqt kelganda davlat xaridlarining elektron tizimi auksion o‘tkazilgan vaqt davomida berilgan takliflar orasida eng past narxni taklif qilgan taklifni avtomatik ravishda aniqlab oladi. Eng past narx ko‘rsatilgan taklifni bergan ishtirokchi auksion g‘olibi sifatida davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan saralab olinadi. Ijrochining nomi davlat xaridlarining elektron tizimida aks ettirilib, ushbu tizim tuzilgan bitimni avtomatik ravishda qayd etadi va davlat buyurtmachisining buyurtmanomasida bayon etilgan shartlarga muvofiq shartnomani shakllantiradi.

Agar auksionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo‘lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo‘lsa, auksion o‘tkazilmagan deb hisoblanadi va g‘olib aniqlanmaydi. Davlat buyurtmachisi auksionni uch ish kuniga uzaytirishi yoki xaridni Qonun talablariga muvofiq elektron do‘kon vositasida yoki eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshirishi mumkin.

Auksionni uzaytirish avvalgi auksion tamom bo‘lgan paytdan e’tiboran uch ish kuni ichida davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi.

Auksion uni o'tkazish haqidagi e'londa ko'rsatilgan muddatda (sana va vaqt), biroq oxirgi taklif kelib tushgan vaqtdan so'ng besh minutdan kam bo'lmagan vaqtda tugagan deb hisoblanadi. Mazkur vaqt ichida yangi taklif berilgan taqdirda, ishtirokchilardan takliflarni qabul qilish muddati oxirgi taklif olingandan so'ng yana besh minutga uzaytiriladi. Bunda, auksionning tugash muddati operatorning ish kuni va ish vaqtiga to'g'ri kelishi lozim.

Ishtirokchi o'zi etkazib berishi mumkin bo'lgan tovar bo'yicha buyurtmalarni qidirayotganda, tovarning etkazib berish shartlari, uning spetsifikasi va buyurtmachining alohida talablarini, albatta, ko'zdan kechirishi lozim. Agar ishtirokchi bu shartlarni bajara olmasa yoki tovar belgilangan talablarga mos kelmasa, u insofsiz ishtirokchilarningyagona reestriga kiritilishi mumkin.

Auksion natijasiga ko'ra buyurtmachi va etkazib beruvchining shaxsiy kabinetida elektron shaklda shartnoma shakllanadi. Buyurtmachi va ishtirokchi o'rtasida elektron raqamli imzo yordamida tuzilgan shartnoma haqiqiy deb hisoblanadi

Agar auksionda bir ishtirokchi yoki umuman hech kim ishtirok etmasa, auksion o'tkazilmagan, deb hisoblanadi. Bunday hollarda buyurtmachi 3 kun ichida auksionni 5 kunga uzaytiradi.Bu holatda ham savdo bo'lib o'tmasa, buyurtmachi 10 kunlik tanlov o'tkazishi kerak bo'ladi.

## 7.3. Elektron auksionda to'lovni o'tkazish va shartnoma shartlarini bajarilish tartibi

Buyurtmachi belgilangan muddatda to'lovni amalga oshirmagan taqdirda, uning zakalat mablag'i 3 ish kunida Ijrochining Hisob-kitob kliring palatasidagi hisob varag'iga o'tkaziladi.

Ishtirokchi shartnoma bo'yicha 100 % to'lov o'tganligi haqidagi ma'lumotni shaxsiy kabinet orqali "Mening buyurtmalarim bo'yicha shartnomalar ro'yxati" dan ko'rgandan so'ng tovar etkazib berishi kerak bo'ladi.

Auksion tugaydigan vaqt kelganda portal auktsion o'tkazilgan vaqt davomida berilgan takliflar orasida eng past narxni taklif qilgan taklifni avtomatik ravishda aniqlab oladi.

Agar auksionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo'lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa, auktsion o'tkazilmagan deb hisoblanadi va g'olib aniqlanmaydi, buyurtmachi auktsionni besh kunga uzaytiradi.

Auksionni uzaytirish avvalgi auktsion tamom bo‘lgan paytdan e’tiboran uch kun ichida buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi. Auksionni uzaytirishda buyurtmachi boshlang‘ich narxni, texnik talablarni, xususiyatlarni yoki texnik topshiriqni qayta ko‘rib chiqishga haqli.

Tuzilgan shartnoma bo‘yicha tovar etkazib berilganligi to‘g‘risida ma’lumot taqdim etilmasa shartnoma bo‘yicha tovarlarni etkazib berish muddati yakunlangandan so‘ng 3 ish kuni mobaynida Hisob-kitob kliring palatasi byudjet va korporativ buyurtmachi tomonidan kiritilgan mablag‘larni qaytaradi, zakalat mablag‘lari bundan mustasno. Sud yoki Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyasining tegishli qarori qabul qilinguniga qadar buyurtmachi yoki ijrochining zakalatiga band qo‘yadi.

## Nazorat uchun savollar

1. Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion qanday holatlarda o‘tkaziladi?
2. Auksionni o‘tkazish mezonlari nimalardan iborat?
3. Byudjet buyurtmachilari qaysi savdo platformasida(saytda) elektron do‘kon orqali xaridlarni amalga oshiradilar?
4. Korporativ buyurtmachilar qaysi savdo platformasida(saytda) elektron do‘kon orqali xaridlarni amalga oshiradilar?
5. Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon auksion amalga oshirilishidan qancha vaqt avval joylashtirilishi kerak?
6. Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa qanday ma’lumotlar bo‘lishi kerak?
7. Buyurtmachi lot joylashtirishdan avval qancha miqdordagi komission yig‘im va avans to‘lovini kiritishi lozim?
8. Auksion qanday yo‘l bilan o‘tkaziladi?
9. Auksionni o‘tkazish chog‘ida ishtirokchilar qancha muddat ichida narx bo‘yicha takliflarni berishga haqli?
10. Auksion qachon tugagan deb hisoblanadi?
11. Qanday holatda ishtirokchi qo‘shimcha zakalatni xarid predmetining har bir birligi uchun oldindan kiritishi shart?
12. Agar auksionda bir ishtirokchi yoki umuman hech kim ishtirok etmasa nima bo‘ladi?
13. Auksion o‘tkazilmagan deb hisoblanganda auksionqancha vaqtga uzaytiriladi?
14. Qanday holda auksion o‘rniga tanlov o‘tkaziladi?

# 8-MAVZU. ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH

## 8.1. Eng yaxshi takliflarni tanlash tushunchasi va uni o'tkazish mezonlari

Eng yaxshi takliflarni tanlash davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

– g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi;

– tovarning (ishning, xizmatning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (budjet buyurtmachilari uchun olti ming baravarigacha) bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

Agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan davlat buyurtmachilariga tender o'tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi berilsa, xarid qilish tartib-taomili davlat xaridining summasidan qat'i nazar tanlash orqali amalga oshiriladi. Bunda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming (budjet buyurtmachilari uchun olti ming) baravari miqdoridan oshgan hollarda davlat xaridiga doir texnik topshiriqlar qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi «Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi» davlat unitar korxonasiga kiritiladi.

Tanlash majburiy tartibda elektron shaklda o'tkaziladi.

Davlat xaridini tanlash orqali amalga oshirish uchun davlat buyurtmachisining xodimlari orasidan kamida besh nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi. Tanlashni o'tkazishda xarid komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lishi lozim, har bir majlis va qabul qilingan qaror bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

## 8.2. Eng yaxshi takliflarni tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon va tanlov hujjatlari

Tanlash vositasidagi davlat xaridi to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan cheklanmagan miqdordagi shaxslarga maxsus

axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga koʻra — uning rasmiy veb-saytiga yoki uning yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida tanlash oʻtkazish toʻgʻrisidagi e'lonni va tanlash boʻyicha xarid qilish hujjatlarini joylashtirish yoʻli bilan ma'lum qilinadi.

Agar Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan davlat buyurtmachilariga tender oʻtkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi beriladigan boʻlsa, tanlash oʻtkazish toʻgʻrisidagi e'lon faqat davlat xaridiga doir texnik topshiriq boʻyicha Kompleks ekspertiza qilish markazining ijobiy xulosasi olinganidan keyin joylashtiriladi.

Tanlash oʻtkazilishi toʻgʻrisidagi e'lon va tanlash boʻyicha xarid qilish hujjatlari davlat buyurtmachisi tomonidan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida besh ish kuni oldin maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga koʻra — oʻzining rasmiy veb-saytiga yoki oʻzining yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida joylashtiriladi.

Xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) oʻziga xos xossalaridan yoki xususiyatlaridan kelib chiqib, davlat buyurtmachisi tanlash oʻtkazilishi toʻgʻrisidagi e'lonni belgilanganiga nisbatan uzoqroq muddatga joylashtirishga haqli.

Tanlash oʻtkazilishi toʻgʻrisidagi e'lon quyidagi axborotlarni oʻz ichiga olishi kerak:

– tanlashni oʻtkazish shakli;

– tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlangʻich narxi;

– tanlash oʻtkaziladigan joyning manzili;

– ishtirokchilarga qoʻyiladigan talablar;

– davlat buyurtmachisining ishtirokchilar bilan bogʻlanish uchun aloqa bogʻlovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxslarining yoki boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va manzili;

– ishtirokchilar tomonidan takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt;

– taklifni rasmiylashtirishga doir talablar.

Tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'lon va (yoki) tanlashda ishtirok etish uchun taklif qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa axborotlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

*Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari.* Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirish bilan bir vaqtda davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi.

Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan axborot;

– ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta, to'lov tartibi va yetkazib berish shartlari haqidagi axborot;

– tanlashda ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida va, zaruriyatga qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi to'g'risidagi talab;

– ishtirokchilarga tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;

– texnik topshiriq;

– Qonunga muvofiq takliflarni baholash mezonlari va ko'rib chiqish tartibi;

– tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza taqdim **etish majburiyligi haqidagi talab.**

Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida davlat buyurtmachisi har bir tovar (ish, xizmat) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko'rib chiqilishini e'lon qilishi mumkin. Bunday holda davlat buyurtmachisi turli tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tanlashning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir tovar (ish, xizmat) uchun faqat bitta g'olib aniqlanishi mumkin. Har bir tovar (ish, xizmat) uchun g'olib xarid qilish tartib-taomilining shartlariga ko'ra alohida-alohida aniqlanadi.

Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlariga ularning ajralmas qismi bo'lgan shartnoma loyihasi ilova qilinadi. Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini tasdiqlaydi.

Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tanlashda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan bir ish kunidan kechiktirmay tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Bunda ushbu

tanlashda takliflarni taqdim etishning tugash muddati kamida uch ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan birga, e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartirishlar kiritiladi. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

## 8.3. Eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchilarining takliflarini berish, tanlashni o'tkazish va g'olibni aniqlash tartibi

Tanlash ishtirokchilarining takliflari e'londa va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan tartibda tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan manzil bo'yicha muhrlangan konvertlarda taqdim etiladi.

Elektron shaklda tanlash o'tkazish chog'ida tanlash ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Taklifda davlat xaridi ob'ekti bo'lgan tovarning eskizi, rasmi, chizmasi, fotosurati va boshqa tasviri, nusxasi, namunasi bo'lishi mumkin.

Tanlash ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyligi va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

Tanlash ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli.

Tanlash uchun takliflarni qabul qilish maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimida chop etilgan e'londa ko'rsatilgan muddat kelishi bilan tugatiladi.

Agar tanlashda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim etish muddati tugagan paytda faqat bitta taklif taqdim etilgan yoki birorta ham taklif taqdim etilmagan bo'lsa, tanlash o'tkazilmagan deb hisoblanadi. Bunda davlat buyurtmachisi Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi yoxud elektron do'kon yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

E'londa tanlash o'tkaziladigan vaqt sifatida ko'rsatilgan vaqtda tanlash komissiyasi tanlash ishtirokchilari tomonidan berilgan takliflar solingan konvertlarni takliflarni baholash uchun ochadi. Kelib tushgan takliflar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga mos kelmaydigan takliflar xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi. Tanlashni o'tkazishda ishtirokchilarning boshlang'ich narxdan yuqori bo'lgan narx bo'yicha takliflari xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi.

Agar xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilardan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga javob beradigan kamida ikkita taklif olingan bo'lsa, tanlash o'tkazilgan deb hisoblanadi.

Ishtirokchilarning barcha takliflari tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholanadi va tanlash o'tkazish bayonnomasida qayd etiladi. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan oshishi mumkin emas.

Ishtirokchilarning takliflarini baholash ikki bosqichda amalga oshirilishi mumkin. Summasi bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdoridan oshmaydigan (budjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdoridan oshmaydigan) tanlash xarid komissiyasining ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin, biroq bir moliya yilida bir korporativ buyurtmachi uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravari miqdoridagi summadan ko'p bo'lmasligi va bir moliya yilida bir budjet buyurtmachisi uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari miqdoridan oshmasligi kerak. Bunda g'olib davlat buyurtmachisi tomonidan tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirmasdan, ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo'li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) potensial yetkazib beruvchilaridan narxlarni so'rash yo'li bilan aniqlanadi. Rasmiylashtirilgan hujjatlar, tuzilgan shartnomalar va ularga doir qo'shimcha kelishuvlar to'g'risidagi axborot ular rasmiylashtirilgan yoki tuzilgan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

Takliflarni taqqoslash natijalariga ko'ra xarid komissiyasi tanlash g'olibini aniqlaydi va tanlash o'tkazish natijalarini bayonnomada aks ettiradi.

Xarid komissiyasining qarori bilan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq g'olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchi sifatida e'tirof etilgan zaxiradagi g'olib aniqlanishi mumkin.

Bayonnoma davlat buyurtmachisi tomonidan u rasmiylashtirilgan kunda davlat xaridlarining elektron tizimiga muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirilishi kerak. Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushmagan bo'lsa, davlat buyurtmachisi va xarid komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi.

Muhokama uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin kelib tushgan e'tirozlar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi. Tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushganda, xarid komissiyasi e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

Davlat buyurtmachisi tomonidan xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to'g'risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisi bayonnomasi rasmiylashtiriladi va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

Tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

## 8.4. Tanlash natijalarini rasmiylashtirish

Tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida tuziladi.

Davlat buyurtmachisi tomonidan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida g'olib shartnomaning shartlari bajarilishi ta'minotini taqdim etganidan keyin shartnoma tuzilishini nazarda tutuvchi shart qo'yilishi mumkin.

G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.

Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishni rad etgan bo'lsa, davlat buyurtmachisi Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi yoxud elektron do'kon yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

## Nazorat uchun savollar

1. Qanday xaridlar tanlash orqali amalga oshiriladi?
2. Eng yaxshi takliflarni tanlash oʻtkazish mezonlari nimalardan iborat?
3. Tanlash oʻtkazishda kamida necha nafar a’zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi?
4. Eng yaxshi takliflarni tanlash oʻtkazilishi toʻgʻrisidagi e’lon davlat buyurtmachisi tomonidan qachon maxsus axborot portaliga joylashtiriladi?
5. Eng yaxshi takliflarni tanlash oʻtkazilishi toʻgʻrisidagi e’londa qanday axborotlar boʻlishi kerak?
6. Eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlarida nimalar boʻlishi kerak?
7. Eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchilari qanday tartibda takliflarini beradilar?
8. Eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchilarining takliflarini koʻrib chiqish va baholash qancha muddat ichida amalga oshiriladi?
9. Eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasi kimning tegishli qarori bilan tuziladi va tarqatib yuboriladi?

# 9-BOB. TENDER ORQALI DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISH

## 9.1. Tender savdolarining mohiyati va o‘tkazish mezonlari

Tender deganda davlat xaridini ikki bosqichda amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili orqali ijrochini aniqlash usuli tushuniladi. Bunda shartnomani bajarish bo‘yicha eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tender ishtirokchisi ushbu tartib-taomil natijalari bo‘yicha g‘olib deb topiladi.

Davlat xaridi haqidagi axborotni davlat buyurtmachisi tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonni va tender hujjatlarini maxsus axborot portaliga joylashtirish orqali shaxslarning cheklanmagan doirasiga ma’lum qiladi.

Tender vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

– g‘olibni aniqlash mezonlari tovarning (ishning, xizmatning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o‘z ichiga oladi;

– tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq (budjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq) miqdorni tashkil etadi.

Tender majburiy tartibda elektron shaklda o‘tkaziladi (bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno).

Davlat xaridini tender o‘tkazish orqali amalga oshirish uchun kamida yetti nafar a’zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi. Shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlari tender ishtirokchilarining takliflarini baholash bo‘yicha e’lon qilingan mezonlar asosida xarid komissiyasi tomonidan aniqlanadi.

Agar majlisda xarid komissiyasi a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lsa, xarid komissiyasi vakolatli hisoblanadi. Barcha qabul qilingan qarorlar bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

## 9.2. Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon va tender hujjatlari

Tender vositasidagi davlat xaridi to‘g‘risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan cheklanmagan miqdordagi shaxslarga maxsus

axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga ko‘ra uning veb-saytiga yoki uning yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonni va tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini joylashtirish yo‘li bilan ma’lum qilinadi.

Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon faqat tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari yuzasidan Kompleks ekspertiza qilish markazining ijobiy xulosasi olinganidan keyin joylashtiriladi.

Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon tender ishtirokchilaridan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida o‘n ikki ish kuni va ko‘pi bilan o‘ttiz ish kuni oldin maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi.

Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon quyidagi axborotni o‘z ichiga olishi kerak:

– tenderni o‘tkazish shakli;

– tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang‘ich narxi;

– tender o‘tkaziladigan joyning manzili;

– tender ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar;

– davlat buyurtmachisining ishtirokchilar bilan bog‘lanish uchun aloqa bog‘lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxslarining yoki boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va manzili;

– takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt;

– tender taklifini rasmiylashtirishga doir talablar.

Tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lon qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa axborotni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

*Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari.* Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonni joylashtirish bilan bir vaqtda davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi.

Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

– tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa ko‘rsatilgan axborot;

– shartnoma bahosini va ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta hamda to‘lov tartibi haqidagi axborot;

– tenderda ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida va, zaruriyatga qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi to‘g‘risidagi talab;

– tender ishtirokchisi taklifining texnik va narxga oid qismi, ularni baholash tartibi haqidagi axborot;

– tender ishtirokchilariga tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;

– texnik topshiriq;

– Qonunga muvofiq tender ishtirokchilarining takliflarini baholash mezonlari va ko‘rib chiqish tartibi;

– tender ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha arizani taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.

Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida davlat buyurtmachisi har bir tovar (ish, xizmat) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko‘rib chiqilishini e’lon qilishi mumkin. Bunday holda davlat buyurtmachisi turli tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tenderning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir tovar (ish, xizmat) uchun faqat bitta g‘olib aniqlanishi mumkin. Har bir tovar (ish, xizmat) uchun g‘olib xarid qilish tartib-taomili shartlariga ko‘ra alohida-alohida aniqlanadi.

Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga uning ajralmas qismi bo‘lgan shartnoma loyihasi ilova qilinadi.

Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini tasdiqlaydi.

Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tenderda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida bir ish kuni oldin tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Bunda ushbu tenderda takliflar berish tugaydigan muddat kamida o‘n ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan bir vaqtda, agar e’londa ko‘rsatilgan axborot o‘zgartirilgan bo‘lsa, tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e’longa o‘zgartishlar kiritiladi. Tovarning (ishning, xizmatning) nomini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tender ishtirokchisi davlat buyurtmachisiga tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlar berish to‘g‘risida so‘rov yuborishga haqli. Mazkur so‘rov kelib tushgan sanadan e’tiboran ikki ish kuni ichida davlat buyurtmachisi, agar ushbu so‘rov davlat buyurtmachisiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki

ish kuni oldin kelib tushgan bo‘lsa, tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlarni yuboradi. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o‘zgartirmasligi kerak.

Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun Kompleks ekspertiza qilish markaziga kiritiladi.

Davlat buyurtmachisi tuzilgan shartnomalar, import kontraktlari va ularga qo‘shimcha kelishuvlarning xarid qilish hujjatlariga muvofiqligi va haqiqiyligi uchun javobgar bo‘ladi.

### 9.3. Tender ishtirokchilarining takliflarini berish, takliflarini ko‘rib chiqish va baholash tartibi

Tender ishtirokchilarining takliflari e’londa va tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan tartibda tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e’londa ko‘rsatilgan manzil bo‘yicha muhrlangan konvertlarda taqdim etiladi. Elektron shaklda tender o‘tkazish chog‘ida tender ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Taklifda davlat xaridi ob’ekti bo‘lgan tovarning eskizi, rasmi, chizmasi, fotosurati va boshqa tasviri, nusxasi, namunasi bo‘lishi mumkin.

Tender ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyligi va to‘g‘riligi uchun javobgar bo‘ladi.

Tender ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli.

Tenderda ishtirok etish uchun takliflarni qabul qilish maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimida chop etilgan e’londa ko‘rsatilgan muddat kelishi bilan tugatiladi.

Agar takliflar berish muddati tugagan vaqtda tender ishtirokchilaridan kamida ikkita taklif olingan bo‘lsa, tender ishtirokchilarining takliflari xarid komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Tenderda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki hech kim ishtirok etmagan bo‘lsa, tender o‘tkazilmagan deb topiladi. Bunday holda davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomilini ayni o‘sha shartlarda hamda tovarga (ishga, xizmatga) doir ayni o‘sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart. Tovarga (ishga, xizmatga) doir baholash shartlari, mezonlari va talablarni o‘zgartirish zarur bo‘lganda, xarid komissiyasi asoslarni ko‘rsatgan holda tegishli qarorni qabul qiladi. Tender ishtirokchisi bunday takliflarni berish muddati tugaguniga qadar berilgan taklifni qaytarib olishga yoki unga o‘zgartishlar kiritishga haqli.

Tender ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan oshishi mumkin emas.

Agar taklif Qonunning va tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarining talablariga muvofiq kelsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi.

Agar taklifni kiritgan tender ishtirokchisi Qonunda belgilangan talablarga mos kelmasa yoki tender ishtirokchisining taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilmagan bo'lsa, shuningdek tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelmasa, xarid komissiyasi taklifni rad etadi.

E'londa tender o'tkazish vaqti sifatida ko'rsatilgan vaqtda xarid komissiyasi tender ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan takliflar solingan konvertlarni takliflarni baholash uchun ochadi. Agar takliflar solingan konvertlar belgilangan vaqtda ochilmagan bo'lsa, davlat buyurtmachisi tender ishtirokchilariga ushbu holat yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish bergan holda, takliflar solingan konvertlar ochiladigan vaqt haqida xabarnoma yuborilishini va davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtirilishini ta'minlaydi. Bunda takliflar solingan konvertlar ochiladigan dastlabki belgilangan vaqt va keyingi vaqt oralig'idagi muddat besh ish kunidan oshmasligi kerak.

Tender takliflari solingan konvertlarni ochish jarayoni vaqtida davlat buyurtmachisi tomonidan videoyozuv amalga oshiriladi hamda konvertlarni ochish jarayonida ishtirokchilarning taqdim etgan barcha hujjatlari va tijorat taklifining narxi o'qib eshittiriladi, bundan tender elektron shaklda o'tkaziladigan hollar mustasno.

Tender ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi axborotning ishonchsiz ekanligi aniqlangan taqdirda, xarid komissiyasi bunday ishtirokchini xarid qilish tartib-taomilining istalgan bosqichida tenderda ishtirok etishdan chetlatishga haqli.

Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida tender g'olibini aniqlash uchun xarid komissiyasi rad etilmagan takliflarni baholashni amalga oshiradi.

Birinchi bosqichda tender ishtirokchisi taklifining texnik qismini baholash amalga oshiriladi. Xarid komissiyasining tender taklifining texnik qismini baholash bo'yicha qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomada tenderning birinchi bosqichini baholash yakunlari ko'rsatiladi.

Tenderning ikkinchi bosqichi tenderning birinchi bosqichidan o'tgan kamida ikki nafar ishtirokchining takliflari mavjud bo'lganda o'tkaziladi.

Tenderning ikkinchi bosqichida taklifning narxga oid qismi ochiladi va baholanadi. Xarid komissiyasining tender taklifining narxga oid qismini baholash bo'yicha qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomada tenderning ikkinchi bosqichi g'olibi aniqlanadi. Tenderda ishtirokchilarning narxi boshlang'ich narxdan yuqori bo'lgan takliflari xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi.

Tender ishtirokchisining vakolatli vakili takliflar solingan konvertlarni ochish tartib-taomilida ishtirok etishga haqli.

Takliflarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha:

– birinchi bosqichda - agar xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki faqat bitta taklif tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelsa;

– ikkinchi bosqichda - agar xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa, tender o'tkazilmagan deb topiladi.

Xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) texnik xususiyatlaridan kelib chiqib, tender bir bosqichda o'tkazilishi mumkin. Bunda davlat buyurtmachisi bu haqda tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatishi kerak. Mazkur holatda tender taklifining texnik va narxga oid qismlarini ochish hamda baholash bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi.

Tender bir bosqichda o'tkazilganda, agar xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki faqat bitta taklif tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelsa, tender o'tkazilmagan deb topiladi.

Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan tender ishtirokchisi g'olib deb topiladi.

Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq g'olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan deb topilgan ishtirokchi xarid komissiyasining qarori bilan zaxiradagi g'olib deb belgilanishi mumkin.

Agar tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida tenderning har bir tovari (ishi, xizmati) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko'rib chiqilishi nazarda tutilgan bo'lsa, xarid komissiyasi g'olibni tenderning har bir predmeti bo'yicha aniqlaydi.

Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari takliflarni ko'rib chiqish hamda baholash bayonnomasida qayd etiladi.

Takliflarni ko‘rib chiqish va baholash bayonnomasida quyidagi axborot bo‘lishi kerak:

– tender takliflari ko‘rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt to‘g‘risidagi;

– hozir bo‘lgan xarid komissiyasi a’zolarining va tender ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi haqidagi;

– takliflari ko‘rib chiqilgan tender ishtirokchilari to‘g‘risidagi;

– takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko‘rsatilgan holda rad etilgan tender ishtirokchilari haqidagi;

– tender g‘olibi to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqidagi;

– tender g‘olibining nomi (yuridik shaxs uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi (jismoniy shaxs uchun), turgan joyi (pochta manzili).

Tender bosqichlarida takliflarni ko‘rib chiqish va baholash bayonnomasi xarid komissiyasining hozir bo‘lgan barcha a’zolari tomonidan imzolanadi hamda undan olingan ko‘chirma bayonnoma imzolangan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimida e’lon qilinadi.

Tenderning istalgan ishtirokchisi takliflarni ko‘rib chiqish va baholash bayonnomasi e’lon qilinganidan keyin davlat buyurtmachisiga tender natijalari bo‘yicha tushuntirishlarni taqdim etish to‘g‘risida so‘rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so‘rov kelib tushgan sanadan e’tiboran uch ish kuni ichida tender ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etadi.

Davlat buyurtmachisi va xarid komissiyasi takliflarni qabul qilish tugaydigan paytga qadar ularni muhokama qilishga haqli emas.

## 9.4.Tender natijalari bo‘yicha shartnoma tuzish

Tender natijalari bo‘yicha shartnoma tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida va shartnoma tuzilayotgan tender ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko‘rsatilgan shartlar asosida tuziladi.

G‘olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g‘olib aniqlangan bo‘lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g‘olibga o‘tadi. Bunda zaxiradagi g‘olib g‘olib tomonidan taklif etilgan narxda (bundan zaxiradagi g‘olib taklif etgan narx g‘olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo‘lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishdan

bosh tortishi mumkin. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g‘olib aniqlanmagan bo‘lsa yoki zaxiradagi g‘olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, davlat buyurtmachisi yangi tender o‘tkazadi.

Tender natijalari bo‘yicha tuzilgan shartnoma to‘g‘risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

## Nazorat uchun savollar

1. Qanday xaridlar tender orqali amalga oshiriladi?
2. Tender o‘tkazish mezonlari nimalardan iborat?
3. Tender vositasidagi davlat xaridi qanday shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi?
4. Tender o‘tkazishda kamida necha nafar a’zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi?
5. Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon davlat buyurtmachisi tomonidan qachon maxsus axborot portaliga joylashtiriladi?
6. Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa qanday axborotlar bo‘lishi kerak?
7. Tender hujjatlarida nimalar bo‘lishi kerak?
8. Tender ishtirokchilari qanday tartibda takliflarini beradilar?
9. Tender ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash qancha muddat ichida amalga oshiriladi?
10. Tender komissiyasi kimning tegishli qarori bilan tuziladi va tarqatib yuboriladi?
11. Tender ishtirokchisi nechta taklif berishga haqli?
12. Kamida nechta taklif kelib tushgan bo‘lsa tender o‘tkazilgan deb topiladi?
13. Takliflarni ko‘rib chiqish va baholash bayonnomasida qanday axborot bo‘lishi lozim?
14. Tender natijalari bo‘yicha shartnoma qanday shartlar asosida tuziladi?
15. Tender yakunlari bo‘yicha shartnomalarni ijro etish qanday tartibda amalga oshiriladi?
16. Tender g‘olibi tender shartlari asosida shartnoma tuzishdan bosh tortgan hollarda nima qilinadi?

# 10-BOB. TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI SHARTNOMALAR BO‘YICHA AMALGA OSHIRILADIGAN DAVLAT XARIDLARI

## 10.1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi

To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

– Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridi;

– favqulodda holatlarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

– sud muhokamasida ishtirok etish uchun advokatni (vakilni) tayinlash bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xaridi;

– ilm-fan, adabiyot va san’at asarlari, ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko‘rsatuvlari yoki eshittirishlari kabi intellektual faoliyat natijalarining mazkur intellektual mulk ob’ektlariga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo‘lgan yagona shaxsdan davlat xaridi;

– narxi (tarifi) davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi.

Davlat buyurtmachilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzilganligi to‘g‘risidagi axborotni shartnoma tuzilgan paytdan e’tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirishi shart.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzilganligi to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portaliga joylashtirilmagan bo‘lsa, ushbu shartnomalar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilmaydi.

Davlat buyurtmachisi ushbu moddada nazarda tutilgan davlat xaridlarini amalga oshirish chog‘ida xarid qilish tartib-taomillarining boshqa raqobatli turlaridan ham Qonun talablariga muvofiq foydalanishi mumkin.

Agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridini to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida amalga oshirishga ruxsat berilsa, shartnoma va shartnomaga oid qo'shimcha kelishuvlar Kompleks ekspertiza qilish markazida kompleks ekspertizadan o'tkazilishi lozim, (bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno.

## 10.2. Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi

Qonunda belgilangan tartibda yagona yetkazib beruvchi deb topilgan va Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchisi yagona yetkazib beruvchidir.

Yagona yetkazib beruvchidan tovar (ish, xizmat) olish zarur bo'lgan taqdirda, yetkazib beruvchi hamda davlat buyurtmachisi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuziladi va bu shartnoma to'g'risidagi axborot u tuzilgan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirilishi lozim.

Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi quyidagi alohida hollarda amalga oshiriladi:

– bozorda muqobillari bo'lmagan va faqat yagona yetkazib beruvchidan olish mumkin bo'lgan texnik jihatdan murakkab tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

– madaniy qimmatliklarni olish;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida yagona yetkazib beruvchi sifatida belgilangan sub'ektlardan davlat xaridlari;

– tabiiy monopoliya sub'ekti tovarlarining (ishlarining, xizmatlarining) davlat xaridi;

– o'z vakolatlariga muvofiq faqat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari yoki ularning tasarrufidagi davlat muassasalari va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ishlarga yoki ko'rsatilishi mumkin bo'lgan xizmatlarga ehtiyoj paydo bo'lishi.

Yagona yetkazib beruvchilar reyestri vakolatli organ tomonidan maxsus axborot portalida yuritiladigan axborot resursidir.

Yagona yetkazib beruvchilar reyestri yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxati va yagona yetkazib beruvchilar ro‘yxatidan iboratdir.

### 10.3. Davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)

O‘zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi Qonunining samarali ijrosini, davlat buyurtmachilari faoliyatining uzluksizligini ta’minlash, shuningdek, davlat xaridlarining amalga oshirilishini tartibga solishni takomillashtirish maqsadidaO‘zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi Qonunining amal qilishi davlat tomonidan himoya qilinishi lozim bo‘lgan shaxslarning xavfsizligini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasida mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni ta’minlash va ichki tartibni saqlash uchun amalga oshiriladigan davlat xaridlariga, shuningdek, davlat sirlari bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xaridlariga; favqulodda vaziyatlar yuz bergan hollarda O‘zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlariga;agar donor mamlakatlarning, tegishli xalqaro, hukumatga qarashli bo‘lgan va hukumatga qarashli bo‘lmagan chet el tashkilotlarining tartib-taomillarida yoki O‘zbekiston Respublikasining kafolati ostida chet el kreditlarini va chet el grantlarini taqdim etish shartlarida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishning boshqacha tartibi belgilangan bo‘lsa;O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari sayloviga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining referendumlariga tayyorgarlik ko‘rish hamda ularni o‘tkazish uchun amalga oshiriladigan davlat xaridlariga;sud muhokamalarida ishtirok etish uchun advokat (vakil) tayinlanishi bilan bog‘liq davlat xaridlariga;narxlari qonun hujjatlariga muvofiq qat’iy belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Davlat tomonidan himoya qilinishi lozim bo‘lgan shaxslarning xavfsizligini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasida mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni ta’minlash va ichki tartibni saqlash uchun, shuningdek davlat sirlari bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda;O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari sayloviga, shuningdek, O‘zbekiston

Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bilan kelishgan holda tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining referendumlariga tayyorgarlik ko‘rish hamda ularni o‘tkazish uchun;O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari xarid komissiyalari tomonidan baholanadigan eng yaxshi takliflarni saralab olish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bilan kelishgan holda tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha favqulodda holatlarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta’minlash uchun;sud muhokamalarida ishtirok etish uchun advokat (vakil) tayinlanishi bilan bog‘liq;narxlari qonun hujjatlariga muvofiq qat’iy belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentabrdagi PQ-3953-sonli Qarorining ilovasidagi ro‘yxatga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni keyinchalik ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 3 kundan kechiktirmasdan davlat xaridlarining maxsus axborot portaliga joylashtirgan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida xarid qilish tartibini belgilangan.

Bunda, ro‘yxatdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridi bo‘yicha tuzilgan shartnomalar va ularga qo‘shimcha kelishuvlar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi «Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi» davlat unitar korxonasida kompleks ekspertizadan o‘tkazilmaydi 9bundan qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming (budjet buyurtmachilari uchun olti ming) baravari miqdoridan oshgan shartnomalar va ularga qo‘shimcha kelishuvlar mustasno).

Davlat buyurtmachilari tomonidan quyidagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadi[34]:

1. Qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining alohida maxsus savdo maydonchalaridagi elektron (birja) savdolari natijalariga ko‘ra xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar).

[34] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentabrdagi PQ-3953-sonli Qarori

2. Davlat buyurtmachisi faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq xizmat safarlari uchun va boshqa holatlardagi chiptalar (avia, temir yo‘l va yo‘nalish transportiga).

3. Davlat buyurtmachisi faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq xizmat safarlari va boshqa holatlardagi yashash xarajatlari.

4. Avval tuzilgan shartnomalardagi yetkazib beruvchilar bilan aloqa, internet va teleradiouzatish xizmatlari bo‘yicha xaridlar.

5. Boshqa yetkazib beruvchi tomonidan xizmat ko‘rsatish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, yetkazib beruvchi tomonidan avval olib kelingan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga kafolat muddati tugagandan keyin va joriy xizmat ko‘rsatish (ehtiyot qismlarni xarid qilish), shuningdek, avval xarid qilingan dasturiy mahsulotni kuzatish va (yoki) uni funksional kengaytirish.

6. Giyohvand vositalar va psixotrop moddalarni saqlash va olib kirish (olib chiqish).

7. Bank (banklararo) xizmatlar va operatsiyalar.

8. Mualliflik nazorati (hamrohligi) bo‘yicha xizmatlar.

9. Vazirlik (idora, muassasa) va uning tarkibidagi tashkilot (muassasa) o‘rtasida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xarid qilinishi.

10. Sport, madaniy-ommaviy tadbirlar, ko‘rgazmalar, yarmarkalar, anjumanlar, seminarlar va o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda o‘tkazish uchun binolar, inshootlar va asbob-uskunalarni ijaraga olish.

11. Xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning rasmiy delegatsiyalari tashriflarini ta’minlash (mehmonxona, transport xizmatlari ko‘rsatish, asbob-uskunalarni ijaraga olish, oziq-ovqat ta’minoti, tarjimon xizmati), esdalik suvenirlari, sovg‘alar, gullar hamda gul bilan bezatish, vakolatxonalar uchun qabullar (kechki ovqat, furshet, kofe-breyk va boshqalar) o‘tkazish, konsert dasturlari, bannerlar va bukletlar tayyorlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi davlat delegatsiyasining xorijiy mamlakatlarga tashrifi bilan bog‘liq xarajatlar.

12. Ommaviy axborot vositalarida matbuot anjumani, brifing, mavzuli teleko‘rsatuv va boshqa tadbirlarni o‘tkazish, reklama joylashtirish, maqola chop etish.

13. Favqulodda holatlarda vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanadigan tabiat hodisalari, epidemiyalar va kasalliklar tarqalishining oldini olish yoki uning oqibatlarini bartaraf etish uchun boshqa zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar).

14. Turar yoki noturar joyni (inshootni) xarid qilish yoki ijaraga olish, shuningdek uning ta’minoti bo‘yicha ekspluatatsiya xarajatlari.

15. Tabiiy ofatlar va texnogen halokatlar oqibatlarini bartaraf etish;

davlat buyurtmachisining toʻlaqonli faoliyat olib borishiga ta’sir koʻrsatuvchi kommunikatsiyalar, mexanizmlar, jihozlar va boshqa asbob-uskunalarning ishdan chiqishi holatlarida avariyalarni bartaraf etish uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar).

16. Davriy nashrlar (gazetalar, jurnallar)ga, shu jumladan ularning elektron variantlariga obuna boʻlish.

17. Majburiy sugʻurtalash boʻyicha hamda davlat tibbiy sugʻurtasi doirasidagi xizmatlar.

18. Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan roʻyxat boʻyicha dori vositalari va tibbiyotda qoʻllaniladigan buyumlar.

19. Madaniy-ommaviy tadbirlarga chiptalar.

20. Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi, vazirliklar, idoralar, davlat korxonalari va muassasalarining sihatgohlari va sogʻlomlashtirish muassasalariga, shuningdek, bolalar sogʻlomlashtirish oromgohlariga yoʻllanmalar.

21. Oʻzbekiston Respublikasi ishlab chiqaruvchilari yoki ularning rasmiy dilerlari va distribyutorlaridan xarid qilingan yangi avtotransport vositalari, maxsus va qishloq hoʻjaligi texnikalari.

22. Benzin, suyultirilgan va siqilgan gaz, dizel yoqilgʻisi va koʻmir mahsulotlari.

23. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira fondidan, Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari, Toshkent shahrining shahar budjeti, tuman va shaharlar budjetlari zaxira fondlaridan ajratiladigan mablagʻlar hisobidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar).

24. Mualliflik huquqi uchun mukofotlar (mualliflik gonorari).

25. Maxsus va xizmat avtotransporti vositalarini, shuningdek, tibbiyot uskunalarini ta’mirlash boʻyicha xizmatlar.

26. Mamlakatimiz, hukumatimiz rahbarlari, xorijiy davlatlar va hukumatlar boshliqlari hamda ularning vakillarining qabullar uyiga tashrifi bilan bogʻliq boʻlgan tovarlar (ishlar, xizmatlar), shu jumladan ularning yashashi, ovqatlanishi, tashkiliy masalalarni hal etish va ushbu maqsadlar uchun koʻzda tutilgan boshqa xarajatlar.

27. Davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bilan kelishilgan roʻyxat boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati gospitallari;

davolash-profilaktika va ta'lim muassasalari;
mehmonxona va restoran xizmatlari ko'rsatish;
muruvvat va nogironligi bo'lgan shaxslar uylari;
mehribonlik uylari va internatlar;
qariyalar uylari uchun oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilish.

28. Xalqaro va davlatlararo darajadagi tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar.

29. Shartnoma bo'yicha uning umumiy boshlang'ich summasining 10 foizidan oshmaydigan miqdordagi qo'shimcha ish va xizmatlarni amalga oshirish uchun xarajatlar.

30. Ta'lim muassasalari uchun darsliklar va o'quv-metodik jamlamalarni nashr etish (qayta nashr etish) uchun mo'ljallangan qog'oz va boshqa sarflash materiallari.

30[1]. Xalq ta'limi tizimidagi umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari uchun o'quvchilarning muhandislik, robototexnika, mexatronika va dasturiy ta'minot yo'nalishlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarda foydalanish hamda innovatsion ishlanmalarni amalga oshirish yuzasidan respublikada ishlab chiqarilmaydigan, xorijdan olib kelinadigan xom ashyolar va jihozlar.

30[2]. O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi futbol mahorat maktablari uchun elektron hisoblash uskunalari, o'yinlar va o'quv-mashq yig'inlarini tahlil qilish dasturiy ta'minot va uskunalar, Xalqaro Futbol Assotsiatsiyalari Federatsiyasi talablari bo'yicha futbol to'plari, sport kiyimlari va ekipirovkalar hamda futbol uchun oyoq kiyimlar

31. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va uning hududiy bo'linmalariga, shu jumladan xorijiy tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan xususiylashtiriladigan yoki xo'jalik jamiyatlarining ustav fondlariga davlat ulushi sifatida o'tkaziladigan davlat aktivlarini baholash xizmatlari.

32. Davlat aksiyalar (ulushlar) paketlarini sotish hamda mahalliy va xorijiy fond birjalarida IPO (SPO) bo'yicha emissiyalarni joylashtirish uchun jalb qilinadigan investitsiya vositachilari, maslahatchilari, shu jumladan xorijiy maslahatchilarning O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va uning hududiy bo'linmalariga ko'rsatadigan xizmatlari.

33. O'zbekiston Respublikasi o'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tizimidagi tashkilotlar tomonidan yetishtirilgan ko'chat va nihollar.

34. Xodimlari umumiy sonining kamida 50 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslardan iborat va nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatiga haq to‘lash fondi umumiy mehnatga haq to‘lash fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yagona ishtirokchisi nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari hisoblangan yuridik shaxslardan, ular uchun belgilangan tartibda ajratilgan kvotalar doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish.

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Davlat rezidensiyalariga xizmat ko‘rsatish va tadbirlarni tashkil etish boshqarmasi tuzilmasiga kiradigan davlat rezidensiyalari hududlarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish uchun hukumat qarorlari va topshiriqlari asosida, shu jumladan pudratchilar tomonidan, ushbu maqsadlarga ajratilgan mablag‘lar hisobiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish.

36. Davlat va strategik buyurtmachining ishlab chiqarish faoliyatida foydalanish uchun boshqa yetkazib beruvchi tomonidan mahsulot yetkazib berish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda litsenziya bitimiga (shartnomasiga, kontraktiga) asosan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning intellektual faoliyat natijalari muallifidan yoki intellektual faoliyat natijalaridan mutlaq foydalanish huquqiga ega yetkazib beruvchidan, shuningdek, fan, adabiyot va san’at asarlari, ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko‘rsatuvlari yoki eshittirishlari kabi intellektual faoliyat natijalarining ushbu intellektual mulk ob’ektlariga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo‘lgan yagona shaxsdan davlat xaridlari.

37. O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan xorijiy kompaniyalarning prodyuserlik va reklama xizmatlari, xorijiy teleradiokompaniyalar va boshqa ommaviy axborot vositalarining reklamalar, reportajlar va boshqa roliklarni tayyorlash va translyatsiya qilish bo‘yicha xizmatlari.

38. Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari loyihalarini bajarishda ishtirok etuvchi budjet tashkilotlari tomonidan tadqiqotlar o‘tkazish maqsadida reaktivlar va reagentlar xarid qilish.

39. Texnik tartibga solish sohasidagi milliy normativ hujjatlar, davlat standartlarini ishlab chiqish va qayta ishlash, shuningdek, shaharsozlik faoliyati sohasidagi xorijiy normativ hujjatlarni moslashtirish.

40. Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha «El-yurt umidi» jamg‘armasi tomonidan ta’lim dasturlarini

tashkil etish, respublikaga xorijiy olim va mutaxassislarni, shu jumladan vatandoshlarni jalb etish xizmatlari.

41. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi muzeyi ekspozitsiyasi, muzey va kutubxona fondlarini shakllantirish maqsadida xorijda va O‘zbekistonda tayyorlanadigan eksponatlar, san’at asarlari, suratlar, haykallar va byustlar, gilamlar, matolar, qo‘lyozmalar va nashr asarlari nusxalari, xaritalar, pannolar, stendlar, video-audio va yuqori texnologik namoyishlar uchun materiallarning xaridi.

42. Monopolist korxonalar va (yoki) ustav fondi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxs, ustav fondi (kapitali)ning 50 foizi va undan ortig‘i ustav fondi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan yuridik shaxs tomonidan birja savdolarida sotilayotgan mahsulotlarni xaridorlarga affillangan shaxs bo‘lgan tashish xizmatini ko‘rsatuvchi korxonalarning avtotransportda tashish xizmatlari.

43. Oliy ta’lim muassasalari tomonidan xorijiy davlatlardan o‘quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalarni (mualliflik huquqi bo‘lgan ishlab chiqaruvchilardan), sarflanadigan laboratoriya materiallari (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa ob’ektlar) xarid qilish.

44. Fuqarolarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, davolash, shu jumladan jarrohlik amaliyotidan o‘tkazish va reabilitatsion yordam ko‘rsatish, shuningdek ularni xorijga o‘qishga va amaliyotga yuborish bilan bog‘liq xarajatlar.

## Nazorat uchun savollar

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlari qanday hollarda amalga oshirilishi mumkin?
2. Davlat buyurtmachilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzilganligi to‘g‘risidagi axborotni shartnoma tuzilgan paytdan e’tiboran qancha vaqt ichida maxsus axborot portaliga joylashtirishi shart?
3. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalarda qanday ma’lumotlar bo‘lishi kerak?
4. Yagona etkazib beruvchilar kimlar kiradi?
5. Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi qanday hollarda amalga oshiriladi?
6. Yagona yetkazib beruvchilar reyestri nima?

7. Yagona etkazib beruvchilar reestrini kim yuritadi?

8. Yagona etkazib beruvchilar reestriga kiritish va undan chiqarish kimning vakolatiga kiradi?

9. Davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxati qaysi meyoriy hujjat bilan tasdiqlangan?

10. Davlat buyurtmachilari tomonidan qanday tovarlar (ishlar, xizmatlar) to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadi?

# III QISM. DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

## 11-MAVZU. XARID QILISH TARTIB-TAOMILLARINI MONITORING VA NAZORAT QILISH

### 11.1 Davlat tomonidan davlat xaridlari sohasini tartibga solish

Davlat xaridlari sohasini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

– davlatning strategik maqsadlari va vazifalariga erishish;

– davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash;

– O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturini va boshqa davlat dasturlarini bajarish;

– davlatning ijtimoiy vazifalarni hal qilish bo'yicha funksiyalarini bajarish;

– davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun davlat xaridlari sub'ektlariga qulay muhitni shakllantirishdan, shuningdek davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaga va qonunchilikning boshqacha tarzda buzilishlariga qarshi kurashishdan iborat.

Davlat xaridlarini amalga oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat ustuvorliklari, shu jumladan yuqori texnologik va innovatsion ishlab chiqarishlarning yaratilishi, qulay ekologik vaziyatning saqlanishi hisobga olinadi.

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarida chet ellik yetkazib beruvchilar bilan bir qatorda kamida uchta mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirok etsa, agar O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlariga ko'ra ushbu mahalliy ishlab chiqaruvchilarga takliflarni baholashda foydalaniladigan imtiyozlar va preferensiyalar berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi chet davlatlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin. Bunday davlat xaridini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat xaridlari sohasida davlat siyosati shakllanishi va amalga oshirilishini ta’minlaydi. Qolaversa, davlat xaridlari sohasida budjet tizimi budjetlari mablag‘laridan oqilona foydalanish, xarid qilish tartib-taomillari turlarini takomillashtirish va ularning qo‘llanilishini kengaytirish, shuningdek tadbirkorlik sub’ektlarining keng ishtirokini ta’minlash yuzasidan choralar ko‘radi.

Shunuingdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat buyurtmachilarining davlat xaridlari sohasidagi faoliyati ustidan nazorat bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiradi; xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini baholash va taqqoslash usullarini hamda mezonlarini, shuningdek ular o‘tkazilishini tashkil etish tartibini belgilaydi; xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari tomonidan eng yaxshi takliflarni tanlab olish va tenderda ishtirok etish uchun elektron shaklda takliflar berish tartibini belgilaydi; davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya tarkibini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

– davlat xaridlari sohasida davlat tomonidan tartibga solishni va davlat siyosatini amalga oshiradi;

– davlat xaridlarini tashkil etish va o‘tkazish tizimini, shu jumladan, elektron tizimni rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish hamda ro‘yobga chiqarishning samaradorligi va ochiqligini oshirish bo‘yicha choralar ko‘radi;

– davlat xaridlari elektron tizimi operatorlarini hamda ularning davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirishga taalluqli faoliyati tartibini, shuningdek maxsus axborot portali faoliyati tartibini belgilaydi;

– davlat xaridlarining elektron tizimiga nisbatan talablarni belgilaydi;

– iqtisodiy jihatdan eng foydali taklifni baholash usulini qo‘llash tartibini (baholashning narxga asoslanmagan mezonlarini) ishlab chiqadi;

– davlat xaridlari bo‘yicha axborotni joylashtirish, oshkor qilish va undan foydalanish tartibini hamda hajmlarini, shuningdek tovarga (ishga, xizmatga) hamda davlat xaridlarini amalga oshirish usuliga qarab e’lon qilishga doir qo‘shimcha talablarni belgilaydi;

– xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lonlarning, xarid qilish hujjatlarining namunaviy shakllarini tasdiqlaydi;

– Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrini shakllantirish tartibini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

– Shartnomalarning yagona reyestrini yuritish tartibini belgilaydi;

– davlat xaridlari sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning bajarilishi ustidan monitoring va nazoratni ta’minlaydi;

– davlat xaridlari sub’ektlaridan axborotlarni so‘rab oladi, jamlaydi, ularni tahlil qiladi va hisobotlarni shakllantiradi;

– davlat xaridlari sohasida xarid qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish standartlari bo‘yicha sertifikatlashtirish tizimini joriy etishga doir takliflarni ishlab chiqadi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ko‘rib chiqish uchun kiritadi.

## 11.2. Xarid qilish tartib-taomillarini monitoring va nazorat qilish

Davlat xaridlari sohasidagi monitoring davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini, davlat xaridlarining Qonunda belgilangan maqsadlari, printsiplari va cheklovlari amalga oshirilishini davlat xaridlarining o‘tkazilishi haqidagi axborotni to‘plash, umumlashtirish, tizimlashtirish va baholash vositasida doimiy asosda amalga oshiriladigan kuzatish tizimidan iborat bo‘ladi.

Davlat xaridlari sohasidagi nazorat mazkur sohada qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo‘yishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidan iborat bo‘ladi.

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda statistik va boshqa axborotni taqqoslash va tahlil qilish orqali amalga oshiriladigan tekshiruvlar davlat organlarining davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etishi ustidan nazorat qilishning asosiy shaklidir.

Davlat xaridlari sohasidagi monitoring va nazorat tegishli vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish chog‘ida qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan tekshiruvlar o‘tkazilishiga va hisobot berish shakllarini talab qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qonunning va davlat xaridlari sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi ustidan davlat nazoratini quyidagilar o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradi:

– O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

– O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi.

– O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlarini auditdan o‘tkazadi va audit natijalarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga har yilning yakuni bo‘yicha kiritadigan hisobotida ko‘rsatadi, shuningdek ochiq axborot manbalariga joylashtiradi.

“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunning va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlarining to‘g‘ri qo‘llanilishi ustidan davlat nazoratini qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatli davlat organlari ham o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

Mamlakatimizda xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslari yaratilgam. Xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati davlat xaridlarini rivojlantirish va takomillashtirishga ko‘maklashish, davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablari buzilishlarining oldini olish va ularni aniqlash hamda davlat buyurtmachilarini, vakolatli davlat organlarini aniqlangan qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini ro‘yobga chiqarish vositasida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga haqli.

Jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari: davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar tayyorlashga; xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish va shartnomalarni bajarishning borishi to‘g‘risida axborot taqdim etish haqidagi so‘rovlarni davlat buyurtmachilariga yuborishga; xarid qilish tartib-taomillari yuzasidan mustaqil monitoringni va davlat xaridlari samaradorligini baholashni, shu jumladan ularning “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun talablariga muvofiqligini baholashni amalga oshirishga; tekshiruv

tadbirlarini o‘tkazish tashabbusi bilan davlat organlariga murojaat qilishga haqlidirlar.

Shuningdek, jamoatchilik vakillari davlat buyurtmachisi, davlat xaridlari elektron tizimi operatori, vakolatli organ, xarid komissiyalari va ularning a’zolari harakatlarida (harakatsizligida) qoidabuzarliklar aniqlangan hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishga yoki qonunchilikka muvofiq sudga murojaat qilish vakolatiga ham ega hisoblanadilar.

## 11.3. Davlat xaridlari bo‘yicha shikoyatlarni berish va ko‘rib chiqish tartibi

Vakolatli organ tomonidan shikoyatlarni adolatli, tezkor va samarali ko‘rib chiqish maqsadida doimiy ravishda faoliyat ko‘rsatadigan Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya tuziladi, uning tarkibi tegishli davlat organlari, davlat xaridlari elektron tizimining operatorlari va jamoatchilik vakillaridan iborat bo‘ladi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga kelib tushgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

Vakolatli organ Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning ishchi organi bo‘lib, uning faoliyatini tashkil etadi.

Har bir ishtirokchi, shuningdek nazoratni amalga oshirayotgan shaxslar davlat buyurtmachisining, xarid komissiyasining, uning a’zolarining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining harakatlari (harakatsizligi) ustidan, agar bunday harakatlar (harakatsizlik) ishtirokchining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan bo‘lsa, sud tartibida yoki ushbu bobda belgilangan tartibda Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga shikoyat qilish huquqiga ega.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya shikoyatni qabul qilib olganda shikoyat kelib tushgan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida shikoyat haqida davlat buyurtmachisini xabardor qiladi hamda xarid qilish tartib-taomilini o‘n ish kunigacha bo‘lgan umumiy muddatga to‘xtatib turadi.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya shikoyatni davlat buyurtmachisi va ishtirokchining ishtirokida

ko‘rib chiqadi, bundan ishtirokchi shikoyatni uning ishtirokisiz ko‘rib chiqishga rozilik bildirgan yoki uzrli sabablarsiz ishtirok etmagan hollar mustasno.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya shikoyat olinganidan keyin yetti ish kuni ichida u bo‘yicha qaror chiqarishi va bu haqdagi axborotni maxsus axborot portalida joylashtirishi kerak.

Qabul qilingan qarorda oshkor etilishi ishtirokchining (ijrochining) tijoratga oid manfaati buzilishiga olib keladigan yoki insofli raqobatga xavf soladigan axborot bo‘lmasligi kerak, bundan Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya ushbu axborotni e’lon qilish to‘g‘risida qaror chiqargan hollar mustasno.

Ishtirokchining shikoyati asosli deb topilgan taqdirda, Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya quyidagi choralarni ko‘rishi mumkin:

– davlat buyurtmachisining qonunga xilof harakatlariga, qarorlariga yoki u tomonidan qonunga xilof tartib-taomillar bajarilishiga doir taqiq belgilash;

– davlat buyurtmachisining qonunga xilof qarorlarini, shu jumladan davlat xaridlari sohasidagi hujjatlarning shartlarini buzadigan qarorlarini qisman yoki to‘liq bekor qilish;

– xarid qilish tartib-taomillarini tugatish haqida qaror chiqarish;

– ijrochini Insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritish.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning qarorlari davlat xaridlarining barcha sub’ektlari tomonidan ijro etilishi shart.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya o‘z faoliyatini Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Ijrochi Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning qarori ustidan sud tartibida shikoyat qilishi mumkin.

## 11.4. Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik choralari

Davlat xaridlari rejalarini, shu jumladan reja-jadvallarini shakllantirish va joylashtirish tartibi bo‘yicha qonunchilik talablariga rioya etmaslik, shuningdek davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda davlat xaridlarini amalga oshirish chog‘ida maxsus axborot portaliga davlat xaridlari bo‘yicha e’lonlar joylashtirish tartibini, majburiy muhokama o‘tkazish tartibi va muddatlarini hamda davlat xaridi natijalarini joylashtirish muddatlarini buzish – mansabdor shaxslarga *bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda* jarima solishga sabab bo‘ladi.

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi e’lonlarga va xarid hujjatlariga qonunchilikda taqiqlangan hamda raqobatni cheklovchi axborotni, havolalar va talablarni kiritish, xarid hujjatlarini tasdiqlash hamda buyurtmalarni shakllantirish tartiblarini buzish –mansabdor shaxslarga *bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha* miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Tovarlarni, ishlarni va xizmatlarni yetkazib beruvchilarni tender o‘tkazish yo‘li bilan aniqlash talablarini buzish, shuningdek davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq tovarlarni yetkazib beruvchini, ish bajaruvchini va xizmat ko‘rsatuvchini raqobatli xarid usuli vositasida aniqlash belgilangan hollarda, davlat xaridlarini yagona yetkazib beruvchidan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida amalga oshirish to‘g‘risida qaror qabul qilish – mansabdor shaxslarga *bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravaridan yigirma baravarigacha* miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Davlat xaridlari jarayonidagi affillanganlik va manfaatlar to‘qnashuvi haqida davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda xabar bermaslik, shuningdek davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilmagan hollarda, davlat xaridlari bo‘yicha takliflarni qabul qilmaslik yoki takliflarni taqdim etish muddatlarini davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga zid ravishda qisqartirish, shuningdek takliflar solingan konvertlarni ochish va xarid hujjatlariga muvofiq takliflarni baholash talablarini buzish – mansabdor shaxslarga *bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o‘ttiz baravarigacha* miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

## Nazorat uchun savollar

1. Davlat xaridlari sohasini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xarid tizimida qanday vakolatlari mavjud?
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat xaridlari sohasida qanday vakolatlari mavjud?
4. Qaysi organ davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ hisoblanadi?
5. Davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ qanday funksiyalarni bajaradi?
6. Xarid tizimida qonunniylik ustidan davlat nazoratini qaysi tashkilotlar o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradi?
7. Xarid tizimida jamoatchilik nazoratini kimlar amalga oshiradi?
8. Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya shikoyatni qabul qilib olganda qancha vaqt ichida u haqda davlat buyurtmachisini xabardor qiladi?
9. Ishtirokchining shikoyati asosli deb topilgan taqdirda, shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya qanday choralarni ko‘radi?
10. Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun qanday ma’muriy javobgarlik choralari belgilangan?

# 12-BOB. DAVLAT XARIDLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

## 12.1. Davlat xaridlari tizimini takomillashtirishning zaruriyati

Davlat byudjeti xarajatlarining kattagina qismi davlat xaridlari orqali amalga oshiriladi. Bu byudjet muvozanatini saqlashga bevosita ta’sir qiladi. Binobarin, davlat xaridlari miqdorini eng maqbul darajada saqlab turish asosida zarur samaradorlikka erishiladi.

Zamonaviy sharoitda, byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta’minlash, hamda korxona, tashkilotlarning diversifikatsiyalashuvida va rivojlanishida keng raqobatni yaratish va ularni rivojlantirish maqsadida davlat xaridlarining yanada mukammal, ochiq va shaffof, savdo ishtirokchilarining yuqori darajadagi raqobatini va ularning teng ishtirokini ta’minlaydigan, takomillashgan davlat xaridlari shakllarini joriy etish orqali zamonaviy xarid mexanizmi yo‘lga qo‘yilishi va rivojlantirilishi dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Davlat moliyasini boshqarishda byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlash, davlat ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan tovar va xizmatlarni etkazib berishda tadbirkorlik sub’ektlarining keng ishtirokini yanada rivojlantirish hamda davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida raqobat va shaffoflikni yanada kuchaytirish mamlakatimizda davlat xaridlari tizimini takomillashuvini talab qiladi.

Mamlakatimizda davlat xaridi tizimini izchillik bilan takomillashtirish yo‘nalishida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Buning uchun zarur bo‘lgan huquqiy-tashkiliy poydevor yaratilgan.

Yaqin kungacha davlat xaridlari sohasi 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinardi, bunda yaxlit tizim mavjud emas edi.

Buning oqibatida esa ba’zan huquqiy jihatdan bir-birini rad etuvchi holatlar ham vujudga kelgan. Ayrim holatlarda esa takrorlovchi tartib-taomillar korruptsiyaga sharoit yaratgan va ko‘p vaqt yo‘qotishga sabab bo‘lgan.

Bu kabi muammolarning oldini olish, davlat xaridlarini tartibga soluvchi yagona va yaxlit normativ-huquqiy bazani shakllantirish hamda uni bir xilda qo‘llash maqsadida 2021 yil 22 aprelda «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun davlat xaridlari ochiqligi va shaffofligini hamda bu sohada tadbirkorlarning raqobatlashuvini ta’minlamoqda, davlat byudjeti,

markazlashtirilgan manbalar va davlat ulushiga ega boʻlgan korxonalar mablagʻlaridan samarali foydalanishga imkon yaratmoqda.

Shu bilan birga, davlat xaridlari boʻyicha tender va tanlov savdolarini elektron tarzda oʻtkazish toʻgʻrisidagi Nizom, Tovar (ish, xizmat)larni toʻgʻridan-toʻgʻri va soddalashtirilgan usulda xarid qilish toʻgʻrisidagi Nizomlarni ishlab chiqish, davlat xaridlari boʻyicha boshqa qonunosti hujjatlarni unifikatsiyalash ham muhim masalalardan sanaladi.

Oʻzbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etishning yaqin kelajakdagi asosiy istiqbolli yoʻnalishi bu – internet va zamonoviy texnologiyalarga asoslangan elektron xarid hisoblanadi. Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilot mutaxassislari davlat xaridini elektron tarzda tashkil etish loyihalari buyicha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning tajribalari haqida ma’lumotlarni toʻplab, uni tizimlashtirmoqdalar.

Davlat xaridini elektron tarzda tashkil etish va uni rivojlantirish, dunyo miqiyosida savdoni elektron tarzda tashkil etish an’anasining tabiiy davomi hisoblanadi.

Zamonoviy tarmoq texnologiyalaridan davlat xaridini tashkil etishda foydalanish, xaridni qogʻozli hujjat aylanmasiga asoslangan an’anaviy tarzda tashkil etishga nisbatan bir-qancha yutuqlarga ega. Tanlov hujjatlarini “qogʻozli” tashkil etish, tanlov haqida matbuotda e’lon nashr etish, tovar etkazib beruvchilar bilan muloqot, tanlovga ishtirok etish uchun arizalarni toʻplash kabi texnologiyalarni ideal tarzda tashkil etilganda ham, ushbu jarayon davlat buyurtmachisidan ancha kuch va vaqt talab etadi. Agar hujjatlarga tuzatish va aniqlik kiritish talab etilsa, unda barcha jarayonlarni deyarli boshdan qayta boshlash kerak boʻladi. An’anaviy usulda xaridni tashkil etishda tovar va xizmatlar etkazib beruvchilarga ham ancha noqulayliklar mavjud, masalan, tanlov haqida ma’lumot topish, hujjatlar toʻlamini sotib olish, uni aniqlashtirish va toʻldirish, arizalarni taqdim etish zarur.

Internet-texnologiyalarni joriy etish, savdoni oʻtkazishga tayyorgalik jarayonlarini va tanlov savdolarini samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, tanlovga ishtirok etishni soddalashtirish va uning shaffofligini oshirish hisobiga tovar va xizmatlar etkazib beruvchilar sonini ortishiga olib keladi. Davlat buyurtmasini joylashtirish boʻyicha savdolarga mamlakatning chekka hududlaridagi kichik va oʻrta korxonlar ham ishtirok etish imkoniyati oshadi. Natijada raqobat kuchayib, ancha foydali takliflar yuzaga chiqadi.

Jahon banki dunyodagi yirik xalqaro moliya instituti sifatida, bugungi kunda ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarga davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolar tizimini joriy etish bo'yicha ko'maklashmoqda. Mazkur yordam maslahat shaklida bo'lib, uning yo'nalishlarini ko'rish mumkin.

## 12.2 Elektron davlat xaridlarini kengaytirish

Dunyodagi ko'plab mamlakatlar singari O'zbekiston Respublikasida ham davlat xaridi tizimini isloh etishga, xaridlarni elektron tarzda amalga oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Elektron savdolarni juda tez sur'atlarda o'sishiga internet, telemuloqot va axborot texnologiyalari katalizatorlik rolini o'ynamoqdalar. Davlat ehtiyojlari uchun elektron savdolar tizimi AQSh, Meksika, Chili, Peru, Evropa Ittifoqi kabilarda elektron savdolar tizimining yangi bir varianti sifatida yuzaga keldi. Ya'ni, B2B (business-to-business) sektorining rivojlanishida yangi fragment – B2G (business-to-government) ajralib chiqdi. Bu o'z navbatida, zaruriy texnik, texnologik, huquqiy bazani yanada takomillashuviga olib keldi. Avstraliya, Kanada, Saudiya Arabistoni kabi davlatlarda esa, davlat tuzilmalarini zamonoviylashtirish dasturi doirasida va "elektron hukumat" (e-government) ga o'tish bilan davlat xaridini elektron tarzda tashkil etish tizimi joriy etildi. Ya'ni, "elektron hukumat" dasturini joriy etish jarayonida huquqiy asoslarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik zamin hozirlash, undan so'ng, davlat xaridini elektron tashkil etish tizimi infratuzilmasini bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Ushbu dasturni amalga oshirish, davlat bilan yangi telemuloqot muhitda yaqindan hamkorlik qilmoqchi bo'lgan tijorat tuzilmalarini e'tiborini o'ziga tortdi, hamda axborot texnologiyalariga bo'lgan investitsiyalar miqdorini oshishiga olib keldi.

Hukumat tomonidan xarid jarayonlarini shaffofligini ta'minlashga qaratilgan, jumladan, xaridni amalga oshirishda inson omilini cheklovchi elektron xaridlardan keng foydalanish yo'nalishlari bo'yicha qator hujjatlar qabul qilinmoqda.

Davlat xaridlari tizimining shaffofligini ta'minlash hamda uni yanada takomillashtirish hisobiga korporativ buyurtmachilar, shu jumladan, strategik ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va korxonalar mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlash hamda samaradorligini oshirish, davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik sub'ektlarini keng jalb qilish maqsadida

O‘zbekistonda davlat moliyasini islohotlari va davlat xaridini tashkil etishni takomillashtirish bo‘yicha bir-qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat xaridini elektron tarzda tashkil etish asosiy istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ushbu sohada huquqiy bazani shakllantirish maqsadida qator qonunlar qabul qilindi, jumladan:

“Elektron imzo to‘g‘risida” (11.12.2003y), “Elektron tijorat to‘g‘risida” (29.04.2004y), “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida” (29.04.2004y), “Elektron to‘lovlar to‘g‘risida” (16.12.2005y) va boshqalar.

Shuningdek, mazkur qonunlar ijrosini ta’minlash yuzasidan hukumat tomonidan qator qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Elektron tijoratni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (30.01.2007 y. 21-sonli), “Elektron tijoratni amalga oshirishda to‘lovlar o‘tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (12.06.2007 y. 120-sonli) va ushbu qarorga ilova etilgan, 2007-2008 yillarda elektron tijoratni amalga oshirishda to‘lovlar o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari Rejasi qabul qilindi. Ushbu qaror asosida, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi, boshqa vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda, davlat byudjetining g‘azna ijrosini amalga oshirishda elektron tijorat mexanizmlarini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqdi va ushbu hujjatlar tasdiqlanish bosqichida ko‘rib chiqilmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi texnik hamkorlikning natijasi sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va boshqa manfaatdor idoralar, Koreya Respublikasidagi manfaatdor idoralari bilan birgalikda, 2009-2010 yillarda bajarilishi lozim bo‘lgan loyihalarni(Koreya tomoni tajribasi asosida) ishlab chiqdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Savdo-sanoat palatasi va boshqa manfaatdor idoralar, Koreya Respublikasidagi vakolatli idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasida elektron xaridning axborot tizimi loyihasini ishlab chiqish imkoniyatlari ko‘rib chiqimoqdalar (Koreya tomoni tajribasi asosida – “Korean On-line Procurement System” -KONEPS).

Shuningdek, “Uzbekistan Development Gateway (UzDG)” komponenti doirasida Iqtisodiy islohotlar markazi qoshida, O‘zbekistonda birinchi internet elektron tender maydoni pilot loyihasi tashkil etildi. Loyiha doimiy ravishda davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan yangilanib turiladigan tender takliflari bo‘yicha savdolarga xususiy

sektorni ishtirokini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Loyiha hamkorlari O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, UNDP bo'lib, unda uzbek, rus, ingliz tillarida tender savdolari tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Tenderlar www.dgmarket.uz vebsaytida tashkil etilgan bo'lib, unda dunyoning 177 mamlakatidagi ochiq tederlarni topish va tanishish imkoniyati mavjud. Albatta, ushbu vebsayt orqali biz yuqorida xorijiy mamlakatlar tajribasida ko'rib o'tgan barcha operatsiyalarni to'laqonli bajarish imkoniyati bo'lmasada, ammo mazkur tanlanagan yo'nalish kelajakda respublika davlat xaridi tizimini tubdan takomillashtirish uchun bosilgan ilk qadam sifatida e'tiborga loyiqdir.

Yuqorida ko'rib o'tilgan chora-tadbilar respublikada elektron savdo tizimini rivojlantirish uchun huquqiy bazani shakllantirishda muhim qadamlar bo'lib hisoblanadi. Elektron savdolar tizimi, bizning respublikamizda o'zining rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda va tez orada ushbu tizim zamonoviy ilg'or tajribalar asosida yangi bosqichga chiqishiga umid qilamiz.

2019 yil 5 dekabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va ularga tadbirkorlik sub'ektlarini jalb qilish to'g'risida»gi Qarori imzolandi.

PQ-4544-sonli Qarori ilovasi bilan tanlov va tender savdolari orqali davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda elektron shaklga o'tkazish bo'yicha Yo'l xaritasi tasdiqlangan.

Ushbu Qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ sifatida Moliya vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

➢ tender (tanlov) savdolarini elektron tarzda tashkil etish yuzasidan texnik topshiriqnoma ishlab chiqildi va tasdiqlandi;

➢ tasdiqlangan texnik topshiriqnomaga asosan davlat xaridlari maxsus axborot portali va tegishli axborot tizimlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

➢ Shuningdek, davlat xaridlariga oid tegishli me'yoriy hujjatlarga tender (tanlov) savdolarini elektron tarzda o'tkazish tartibini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha hujjatlar loyihasi tayyorlandi.

➢ Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portali operatori vazifasi O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda, shuningdek, ushbu sohada oshirilib kelinmoqda, shuningdek, ushbu sohada raqobat muhitini shakllantirish

maqsadida endilikda bir necha operatorlarni jalb qilish ishlari olib borilmoqda.

## 12.3.“Yashil” iqtisodiyot va “yashil” davlat xaridlari

Iqtisodiyotning “yashil” deya nomlangan shakliga o‘tish jarayoni har bir davlat uchun alohida ahamiyat kasb etib, ushbu jarayon uzoq muddat va katta miqdorda investitsiyalar talab etishi, asosiy e’tibor qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

O‘tkazilgan tahlillar iqlimning o‘zgarishi sharoitida samarali, resurs tejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta’minlashda o‘zaro bog‘liq muammolar hamda ehtiyojlar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, jadallashayotgan sanoatlashtirish va aholi sonining ortishi iqtisodiyotning resurslarga bo‘lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirmoqda, shuningdek, atrof-muhitga salbiy antropogen ta’sirni kuchaytirmoqda hamda issiqxona gazlari ajratmalarining ko‘payishiga olib kelmoqda.

Mamlakatimiz qayta tiklanuvchi manbalardan energiya ishlab chiqarish bo‘yicha yuqori texnik salohiyatga ega bo‘lib, uning 97 foizi quyosh energiyasining ulushiga to‘g‘ri keladi. Jumladan, bizda quyoshli kunlar yiliga o‘rtacha 320 kunni va faol quyosh nurlari tushishi davomiyligi 3000 soatni tashkil etishi bois yurtimizning quyosh nuridan energiya ishlab chiqarish salohiyati yiliga 525-760 mlrd. kVt.s.dan iborat.

Shamol energetikasining hisobiy salohiyati esa 500 GVtni yoki amaldagi energotizimdan 30 barobar ko‘p bo‘lgan quvvatli qurilmalarni joylashtirish imkonini beradi.

Istiqbolda bunday mavjud salohiyatni to‘liq ishga solish choralari ko‘riladi. Ayniqsa, sohadagi texnologik jarayonlarning avtomatlashganlik darajasini oshirish, tashish va taqsimlashga sarflanadigan elektr energiyasi hajmini qisqartirish, elektr energiyasi iste’moli tizimlarini avtomatik nazorat va hisobga olish asboblari bilan to‘liq jihozlash ishlari bajariladi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari loyihalarini amalga oshirish doirasida elektr energetikasi bozoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va mustaqil elektr energiyasini ishlab chiqaruvchilar kirishini rag‘batlantiruvchi auktsion savdolarni joriy etish orqali salohiyatli investorlarni raqobat asosida tanlashning zamonaviy va shaffof uslublarini shakllantirish ko‘zlangan.

Bundan tashqari, “yashil” innovatsiyalarni joriy etishda xususiy investorlarga, jumladan, kichik biznesga koʻmak koʻrsatish, tovar (ish, xizmat)lar energiya-resurs samaradorligining turli hisoblagichlari, spetsifikatsiyalar kataloglarini yaratish, shuningdek, tovar (ish, xizmat)lar energiya-resurs samaradorligini sertifikatlashtirish tizimini joriy etish orqali davlat “yashil” xaridlarini ragʻbatlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim vazifalar qatoridan oʻrin olgan. “Yashil” kreditlash, venchur moliyalashtirish tizimini joriy etish, “yashil” fondlar, energiya tejamkorligi maxsus fondlari va xuddi shunday boshqa mexanizmlar yaratish, “yashil” iqtisodiyotga oʻtish boʻyicha loyihalarni moliyalashtirishda xususiy sektorni faollashtirish, “yashil” investitsiyalarga nisbatan bank tizimini ragʻbatlantirish koʻzda tutilgan.

## 12.4. Davlat xaridlari sohasida foydalaniladigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yagona milliy klassifikatorini yuritish qoidalari

Qoidalar “Davlat xaridlari toʻgʻrisida” gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan va davlat xaridlari sohasida foydalaniladigan Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) milliy klassifikatorini (keyingi oʻrinlarda — Klassifikator) yuritish tartibini belgilaydi.

Ushbu Qoidalarning maqsadi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga va xalqaro klassifikatorlarga muvofiq tovarlar, ishlar va xizmatlarni tavsiflash va davlat xaridlari samaradorligini oshirishdan iborat.

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi — davlat xaridlari sohasidagi vakolatli davlat organi (keyingi oʻrinlarda — vakolatli davlat organi) Klassifikatorga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish huquqiga ega.

Klassifikatordan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

davlat xaridlari maqsadlari uchun tovar (ish, xizmat)ni tasniflash va kodlash;

tovar (ish, xizmat)ning batafsil tavsifini davlat xaridining reja-jadvalida, davlat xaridi toʻgʻrisidagi e’londa, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining ofertasida, tanlov va tender hujjatlarida, davlat xaridlari toʻgʻrisidagi shartnomada va qonun hujjatlariga muvofiq davlat xaridlari toʻgʻrisidagi boshqa axborotlarda aks ettirish;

davlat xaridlari to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni yig‘ish, hisobga olish, ishlov berish va tahlil qilishni hamda barcha manfaatdor shaxslarga undan foydalanishni ta’minlash;

tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning spetsifikatsiyalarini shakllantirishda;

davlat xaridlarining boshlang‘ich narxini va loyiha xarajatlarining me’yoriy ko‘rsatkichlarini aniqlashda xolisligiga erishish;

xalqaro statistika metodologiyasiga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhlari bo‘yicha ma’lumotlarni taqqoslash orqali statistik ma’lumotlarni tayyorlash;

davlat xaridlari shaffofligi va samaradorligini ta’minlash;

xalqaro elektron axborot tizimlari bilan davlat xaridlari bo‘yicha hamkorlik imkoniyatlarini oshirish.

Klassifikator O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda — MST) asosida ishlab chiqilgan.

Tuzilishiga ko‘ra Klassifikator tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning nomlanishi, maxsus kodi va tavsifnomalaridan iborat.

Klassifikator maxsus kodlariga quyidagilar kiradi:

MSTning xarfli kodi va olti xonali raqamli kodlardan iborat birinchi daraja;

tovar (ish, xizmat)ning guruhi (tipi)dan kelib chiqib shakllantirilgan uch xonali raqamli kodlardan iborat ikkinchi daraja;

tovar (ish, xizmat)ning standart parametrlari asosida shakllantirilgan besh xonali raqamli kodlardan iborat uchinchi daraja.

Klassifikator o‘n to‘rt raqamdan iborat va XX.XX.XX.XXX — XXXXX ko‘rinishdagi formulaga ega.

Klassifikator kodlarining tuzilishi formulasi:




Klassifikatorni yuritish jarayonida tovar (ish, xizmat)ni guruhlarga (tiplarga) bo‘lish imkoniyati mavjud bo‘lmagan taqdirda yettinchidan to‘qqizinchigacha bo‘lgan raqamlar “0” etib belgilanadi.

Tovar (ish, xizmat)ning alohida tavsifnomalari vakolatli davlat organi tomonidan mavjud texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlardan kelib chiqib yuritiladi.

Klassifikator tuzilishining asosini faoliyat va tovar (ish, xizmat) turining yagonaligi tamoyili tashkil etadi, ya'ni tovar (ish, xizmat)ning har bir turi ma'lum bir iqtisodiy faoliyat turiga tegishli bo'lishi va har bir faoliyat ushbu faoliyat natijasida yaratilgan tovar (ish, xizmat) kategoriyasiga mos kelishi kerak.

Tovar (ish, xizmat)larni aniqlashtirish jarayonlari ketma-ket kodlarga bo'lish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Kategoriyaning kichik kategoriyalarga detalizatsiyasi tasniflash xususiyatlari asosida amalga oshiriladi.

Bunda mahsulotning asosiy tasniflash xususiyatlari mahsulotning ko'lami, maqsadi, tarkibi, ishlab chiqarish usuli, bajaradigan vazifalaridan iborat.

Tasniflashning bir xil darajasida joylashgan guruhlash bir-biri bilan tutashmasligi kerak, ya'ni ular o'xshash tushunchalarni o'z ichiga olmasligi kerak. Tasniflashning har bir bosqichida yuqori darajali guruhlashni ajratish uchun faqat bitta xususiyat ishlatilishi kerak.

Tasniflash jarayonida tovar (ish, xizmat)ning nomi uning asosiy parametrlarini va unga oid batafsil ma'lumotni o'z ichiga olishi kerak.

Tasniflash jarayonida tovar (ish, xizmat)ning nomidagi birinchi so'z ot so'z turkumida, bosh kelishik va birlikda bo'lishi kerak, qonun hujjatlariga muvofiq ko'plikda belgilangan nomlar bundan mustasno. Nom kichik harflar bilan yozilishi va birinchi so'z katta harf bilan boshlanishi kerak.

Tasniflash jarayonida tovar (ish, xizmat)ning nomini aks ettirishda quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

juft ochiq joylar (probellar) qo'yishga, nomning oxiri va boshida ochiq joylar (probellar) qo'yishga;

nomining oxirida va boshida tinish belgilari qo'yishga;

nomida "yo" harfi ishlatishga ("e" bilan almashtiriladi);

apostroflar va qavs belgilari ishlatilishiga, kiril harflari, lotin harflari va tinish belgilaridan boshqa har qanday belgilar qo'yishga.

Nom aniq talqin qilinishi va tovar (ish, xizmat) haqida maksimal ma'lumotni o'z ichiga olishi kerak. Tovar (ish, xizmat) nomining axborot mazmuni ushbu turdagi normativ-huquqiy hujjatlarga mos kelishi kerak (ustuvorlik kamayish tartibida): Davlat standarti (GOST), Sanoat standarti

(OST), Texnik shartlar (TU), Pasportlar yoki texnik tavsiflar, ishlab chiqaruvchi kataloglari.

Klassifikator vakolatli davlat organining axborot tizimida shakllantiriladi va yuritiladi. Klassifikatordan davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portali operatorlari axborot tizimlari o'rtasidagi o'zaro axborot almashinuvi orqali foydalanishlari mumkin. Bunda vakolatli davlat organi operatorlardan Klassifikatordan foydalanganlik uchun haq olishga haqli. Klassifikatordan foydalanganlik uchun haq vakolatli davlat organi va Operator o'rtasida tuziladigan Kelishuvga asosan belgilanadi.

Klassifikator O'zbekiston Respublikasining davlat tilida yuritiladi. Klassifikator boshqa tillarda ham yuritilishi mumkin. Klassifikatorga davlat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Klassifikator pozitsiyalari quyidagi ko'rinishda bo'ladi: tovar (ish, xizmat) kodi, nomi, o'lchov birligi, bajarilgan ish hajmi va ko'rsatilgan xizmat.

Tovar (ish, xizmat)ning tavsifi quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: iste'mol xususiyatlari va tovar (ish, xizmat)ning boshqa xususiyatlari, shu jumladan, funksional, texnik va sifat xususiyatlari.

Miqdoriy baholashga ega bo'lgan xususiyatlar kiritilayotganda, uning o'ziga xos qiymati yoki muayyan qiymatlarning to'liq ro'yxati yoki maqbul qiymatlar oralig'i yoki o'zgarmas qiymatlar, shu jumladan, tovar (ish, xizmat)ga bo'lgan talablar hisobga olingan holda belgilanadi.

Miqdoriy baholashga ega bo'lmagan xususiyatlar kiritilayotganda, xarid qilinayotgan obyektlarga qo'yiladigan talablar hisobga olingan holda tovar (ish, xizmat)ning tegishli xususiyatlarining to'liq ro'yxati ko'rsatiladi.

Klassifikator pozitsiyalarini shakllantirish va kiritish vakolatli davlat organi tomonidan apparat-texnika vositalaridan foydalangan holda avtomatik rejimda amalga oshiriladi.

## Nazorat uchun savollar

1. Davlat xaridlari tizimini takomillashtirishning zaruriyati nimalardan iborat?
2. Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish qanaday yo'nalishlarda amalga oshiriladi?
3. Elektron davlat xaridlarini kengaytirish zaruriyati nimadan iborat?
4. "Yashil" iqtisodiyot nima degani?

5. “Yashil” davlat xaridlarining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Davlat xaridlarini tashkil etishda internet-texnologiyalarni joriy etish an’anaviy usullardan qanday ustuvorlikka ega?
7. Jahon bankining elektron xarid tizimini shakllantirish bo‘yicha texnik yordamini tavsiflab bering.
8. Davlat xaridini tashkil etishda strategiyani tanlash qaysi omillar bilan aniqlanadi?
9. Ochiq savdolar samradorligini oshirish talablari tushuntirib bering.
10. Davlat xaridini elektron tizimini ishlab chiqish bosqichlarini tushuntirib bering.
11. O‘zbekistonda raqamli imzo va PKI texnologiyasidan foydalanish imkoniyati qanday?
12. O‘zbekiston Respublikasida byudjet va korporativ buyurtmachilar xaridini elektron tarzda tashkil etishning qanday huquqiy bazasi mavjud?

# GLOSSARIY

| № | O‘zbek tilida | Ingliz tilida | Rus tilida | Mazmuni |
|---|---|---|---|---|
| 1. | avans to‘lovi | advance payment | авансовый платеж | – birjaning vositachilik yig‘imini, shuningdek tomonlarning Hukumat komissiyasi belgilaydigan zakalatlarini o‘z ichiga oladigan, buyurtmachilar va etkazib beruvchilar tomonidan kiritiladigan moliyaviy mablag‘lar summasi |
| 2. | agent | agent | агент | – birjada akkreditatsiya tartib-qoidasidan o‘tgan hamda buyurtmachilar va etkazib beruvchilarga topshiriq shartnomasi asosida ularning elektron auktsion savdolarda qatnashishini ta’minlashga doir professional xizmatlar ko‘rsatadigan yuridik shaxs |
| 3. | aylanma kassa mablag‘i | reverse cash balance | оборотная кассовая наличность | – moliya yilida O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori |
| 4. | baholash mezonlari | criteria for evaluation | критерии оценки | – talabgorlarni tanlash hamda ofertani baholash va savdolar g‘olibini aniqlash uchun foydalaniladigan ko‘rsatkichlar |
| 5. | baholovchi guruh | assessment team | оценочная группа | – ofertani baholash uchun tanlov komissiyasi tomonidan tashkil etiladigan vaqtinchalik organ |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 6. | baholovchi komissiya | evaluating committee | оценочная комиссия | – erkin savdoda xaridni amalga oshirishda buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan doimiy yoki vaqtinchalik organ |
| 7. | birjaning mintaqaviy bo'linmasi | regional exchange unit | региональное подразделение биржи | – birjaning filiali yoki savdo maydonchasi |
| 8. | boshlang'ich narx | starting price | стартовая цена | – buyurtmachi tomonidan yoki uning buyurtmasi bo'yicha jalb etilgan tashkilot tomonidan aniqlanadigan tanlov savdolari predmetining hisoblab chiqilgan qiymati |
| 9. | buyurtmachi | customer | заказчик | – byudjet tizimi byudjetlarining, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasining va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining mablag'lari hisobiga tadbirkorlik sub'ektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qiluvchi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar;<br>– investor yoki tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda investor tomonidan belgilangan yuridik shaxs;<br>– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tender va tanlov savdolarini o'tkazish orqali tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshiradigan tashkilot;<br>– lektron auktsion savdolarda tovar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs; |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 10. | Buyurtmachi-ning buyurt-manomasi | customer application | заявка заказчика | – buyurtmachining elektron tizimda joylashtiriladigan ochiq ofertasi |
| 11. | bo‘lib o‘tmagan bitimlar reestri | incomplete transactions registry | реестр несостоявшихся сделок | – lotlar ro‘yxati, ular bo‘yicha ushbu Nizomga muvofiq bo‘lib o‘tmagan deb e’tirof etilgan savdolar natijalari |
| 12. | byudjet jarayoni | budgeting | бюджетный процесс | – byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayoni |
| 13. | byudjet jarayoni ishtirokchilari | participants in the budget process | участники бюджетного процесса | – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar |
| 14. | byudjet mablag‘larini taqsimlovchi | managing the budget | распорядитель бюджетных средств | – o‘z tasarrufida O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan mablag‘ oladigan tashkilotlarga ega bo‘lgan yuridik shaxs, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag‘lari oluvchi |
| 15. | byudjet sohasidagi vakolatlar | budgetary powers | бюджетные полномочия | – byudjet jarayoni ishtirokchilarining byudjet munosabatlari sohasidagi vakolatlari |
| 16. | byudjet ssudasi | budget loan | бюджетная ссуда | – qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalariga, rezident-yuridik shaxsga ajratiladigan pul mablag‘lari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 17. | byudjet so‘rovi | budget request | бюджетный запрос | – kelgusi davr uchun byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni olishga bo‘lgan ehtiyojni asoslashni nazarda tutuvchi hujjat |
| 18. | byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari | extra-budgetary funds of budget organizations | внебюджетные фонды бюджетных организаций | – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan manbalar hisobidan byudjet tashkiloti tasarrufiga kelib tushadigan mablag‘lar |
| 19. | byudjet tizimi byudjetlari | budgets of the budgetary system | бюджеты бюджетной системы | – O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari |
| 20. | byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar | budget allocations | бюджетные ассигнования | – O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetidan va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlaridan byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag‘lari oluvchilar uchun nazarda tutiladigan pul mablag‘lari |
| 21. | byudjetlararo transfertlar | intergovernmental transfers | межбюджетные трансферты | – O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga, davlat maqsadli jamg‘armalariga hamda buning aksicha o‘tkaziladigan, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga hamda buning aksicha o‘tkaziladigan mablag‘lar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 22. | vaqtinchalik kassa uzilishi | temporary cash gap | временный кассовый разрыв | – joriy moliya yilining muayyan davrida byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari daromadlaridan vaqtinchalik oshib ketishi |
| 23. | vaqtinchalik xarajatlar smetasi | temporary cost estimates | временная смета расходов | – byudjet tashkilotining yoki byudjet mablag'lari oluvchining xarajatlar smetasi tasdiqlanguniga va ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar amal qiladigan hujjat bo'lib, unda qonun hujjatlaridagi o'zgartirishlar hisobga olingan holda uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar har oy uchun aks ettiriladi |
| 24. | g'aznachilik bo'linmalari | treasury division | казначейские подразделен ия | – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha G'aznachilik boshqarmalari, tumanlar va shaharlar bo'yicha G'aznachilik bo'linmalari |
| 25. | g'aznachilik memorial orderi | treasury memorial warrant | казначейский мемориальн ый ордер | – mablag'larni bir shaxsiy g'azna hisobvarag'idan boshqa shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazish uchun foydalaniladigan to'lov hujjati |
| 26. | davlat byudjeti profitsiti | government budget surplus | профицит государствен ного бюджета | – muayyan davrda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti daromadlarining uning xarajatlaridan oshib ketishi |
| 27. | davlat byudjeti taqchilligi | government deficit | дефицит государствен ного бюджета | – muayyan davrda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishi |
| 28. | davlat qarzi | state debt | государствен ный долг | – O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi mablag'larni jalb qilish |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | natijasida vujudga kelgan majburiyatlari |
| 29. | davlat moliyaviy nazorati | state financial control | государственный финансовый контроль | – byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida moliyaviy nazorat ob’ektlarining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarini o‘rganish hamda taqqoslash |
| 30. | davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish | state debt | государственное заимствование | – aktivlarni jalb etish, bu bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi-rezidentlarning kreditlarini (qarzlarini) to‘lashga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi |
| 31. | davlat xaridlari | state procure-ments | государственные закупки | – byudjet tizimi byudjetlarining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari;<br>– davlat xaridlari tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib beruvchilarning raqobati va ochiqlikni ta’minlash asosida amalga oshiriladigan xaridlar;<br>– davlat xaridlari amalga oshirilishi to‘g‘risidagi e’lonlar maxsus axborot portalida ushbu xaridlar amalga oshirilishidan kamida o‘n kun oldin, biroq joriy moliya yilining 10 dekabridan kechiktirmasdan joylashtiriladi;<br>– raqobat va ochiqlik cheklangan holdagi davlat xaridlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 32. | davlat xaridlari va korporativ xaridlar masalalari bo‘yicha bahslar va kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish bo‘yicha maxsus komissiya | a special commission to address disputes and differences on issues of public and corporate procurement | специальная комиссия по рассмотрению споров и разногласий по вопросам государственных и корпоративных закупок | – savdolarni o‘tkazish va ularning natijalarini rasmiylashtirish bilan bog‘liq masalalarni sudgacha ko‘rib chiqish uchun birja tomonidan tuzilgan organ |
| 33. | davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berish | the supply of goods for state needs | поставка товаров для государственных нужд | – davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berish davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berish bo‘yicha davlat kontrakti asosida, shuningdek uning asosida tuziladigan davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berish shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadigan, davlat byudjeti va moliyalashning byudjetdan tashqari manbalari hisobiga ta’minlanadigan, O‘zbekiston Respublikasining ehtiyojlari davlat ehtiyojlari deyiladi.<br>– davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berish borasidagi munosabatlarga Fuqarolik Kodeksining 437-456-moddalarining qoidalari ham tatbiq etiladi. Ushbu Kodeks bilan tartibga solinmagan munosabatlarga nisbatan davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berishni tartibga soladigan boshqa qonun hujjatlari tatbiq etiladi. |
| 34. | davlat ehtiyojlari | state contract for | государственный | – davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berish |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | uchun tovarlar etkazib berish yuzasidan davlat kontrakti | the supply of goods for state needs | контракт на поставку товаров для государственных нужд | yuzasidan davlat kontrakti bo‘yicha mahsulot etkazib beruvchi (ijrochi) davlat buyurtmachisiga yoki uning ko‘rsatmasiga binoan mahsulot etkazib berish shartnomasi asosida boshqa shaxsga shartlashilgan muddatda tovarlar etkazib berishni, davlat buyurtmachisi esa, etkazib berilgan tovarlar haqi belgilangan muddatda to‘lanishini ta’minlashni o‘z zimmasiga oladi. |
| 35. | daromadlar va xarajatlar smetasi | estimates of income and expenditure | смета доходов и расходов | – byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg‘armalarining tegishli yil choragi yoki moliya yili uchun kutilayotgan tushumlari va xarajatlari aks ettiriladigan hujjat |
| 36. | dastlabki nazorat | preliminary control | предварительный контроль | – moliyaviy operatsiyalar bajarilguniga qadar g‘aznachilik bo‘linmalari va moliya organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat |
| 37. | donorlar | donors | доноры | – O‘zbekiston Respublikasiga, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, faoliyati O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan yuridik va jismoniy shaxslarga beg‘araz asosda mablag‘lar ajratadigan davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumat tashkilotlari, chet el fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ro‘yxatga |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari |
| 38. | dotatsiya | subsidy | дотация | – byudjet tizimi byudjetlariga ularning o‘z daromadlari etishmagan taqdirda daromadlar bilan xarajatlar o‘rtasidagi farqni qoplash uchun qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari |
| 39. | yopiq tanlov savdolari | closed tendering | закрытые конкурсные торги | – oferentlar soni cheklanadigan savdolar.<br>– yopiq tanlov savdolari o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi.<br>– yopiq tanlov savdolari ishlar va xizmatlar yuqori darajada murakkabligi (yoki tor ixtisoslashuvi) bilan farqlanadigan va faqat pudratchilar (etkazib beruvchilar)ning cheklangan soni bilangina bajarilishi mumkin bo‘lgan hollarda tashkil etiladi.<br>– yopiq tanlov savdolarini o‘tkazishda tanlov savdolari tashkilotchisi pudratchilar (etkazib beruvchilar) umumiy sonidan oldindan etarlicha malaka ma’lumotlariga ega bo‘lganlarni, biroq ularning kamida uchtasini tanlaydi va ularga tanlov savdolarida qatnashishga taklifnoma yuboradi.<br>– agar yopiq savdolarda qatnashishga rozilik bildirgan pudratchilar (etkazib beruvchilar) soni uchtadan kam bo‘lsa, u holda tanlov shartlari aniqlashtirilgan va/yoki unga tuzatishlar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | kiritilgan holda takroriy tanlov savdolari e'lon qilinadi |
| 40. | yopiq tenderlar | closed tender | закрытый тендеры | – ishtirokchilar soni cheklangan tender;<br>– yopiq tenderlar istisno hollarda Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda, buyurtmachi oldindan belgilab qo'ygan tashkilotlar ishtirokida o'tkaziladi, bu tashkilotlarga taklifnomalar jo'natiladi. |
| 41. | yoppasiga nazorat | complete control | сплошной контроль | – tekshirilayotgan davr uchun barcha buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarni nazorat qilish |
| 42. | etkazib beruvchi | provider | поставщик | – taklif etilgan shartlarda o'zining elektron auktsion savdolarda qatnashish va savdolarda g'olib chiqqan taqdirda tovar (ishlar, xizmatlar)ni etkazib berish niyatini bildirgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt, shu jumladan xususiy tadbirkor);<br>– tanlov asosida tanlab olingan qurilish industriyasi korxonasi, tayyorlovchi zavod yoki moddiy-texnika resurslarini, shu jumladan loyihani amalga oshirishda foydalaniladigan texnologiya va muhandislik asbob-uskunalarini ishlab chiqaruvchi va (yoki) etkazib beruvchi jismoniy shaxs. |
| 43. | etkazib beruvchining buyurtmanomasi | application provider | заявка поставщика | – aktsept, elektron tizimda joylashtiriladigan ofertaning etkazib beruvchi tomonidan to'liq va so'zsiz qabul qilinishi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 44. | jamlanma xarajatlar smetasi | overall cost estimates | сводная смета расходов | – byudjet mablag‘larini taqsimlovchi tomonidan o‘z tasarrufidagi byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetalari asosida tuziladigan xarajatlar smetasi |
| 45. | joriy nazorat | current control | текущий контроль | – moliyaviy operatsiyalar bajarilishi jarayonida g‘aznachilik bo‘linmalari, moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat |
| 46. | ikki bosqichli tanlov savdolari | two-stage tendering | двухэтапные конкурсные торги | – talabgorning malakasini oldindan aniqlash tanlov savdolarining birinchi turi, tanlov savdolarining g‘olibini aniqlash – uning ikkinchi turi hisoblanadi.<br>– shartnomada ishlarni ularning rentabelligini ta’minlash uchun etarli bo‘lgan yoki tadqiq etish yoki ishlab chiqishga sarflangan xarajatlar qoplanishini ta’minlaydigan hajmlarda bajarish nazarda tutilgan hollardan tashqari, buyurtmachi ilmiy tadqiqotlar, eksperimentlar o‘tkazishga, qidiruvlar yoki ishlanmalar yuzasidan shartnoma tuzish niyatida bo‘lgan hollarda o‘tkaziladi.<br>– ikki bosqichli tanlov savdolari quyidagi tartibda o‘tkaziladi:<br>– birinchi bosqichda kontseptual qaror va texnik, tijorat jihatidan aniqlanishi va tuzatilishi kerak bo‘lgan, tanlov hujjatlarida ko‘rsatilgan shartlar asosida ishlab |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | chiqilgan oferta bahosi ko'rsatilmagan holda taqdim etiladi. Tanlov savdolari predmeti parametrlari bo'yicha oferent bilan muzokaralar olib borilishiga yo'l qo'yiladi. Ofertalarning umumiy sonidan tanlov savdolarining ikkinchi bosqichida qatnashishga yo'l qo'yiladigan ofertalar tanlab olinadi;<br>– ikkinchi bosqichda tanlov savdolari predmetining aniqlashtirilgan parametrlari hisobga olingan, bahosi majburiy tartibda ko'rsatilgan holda ofertalari tanlov savdolarining ikkinchi bosqichiga o'tgan qatnashchilarning takliflari va buyurtmanomalari berilgan holda tanlov hujjatlariga tuzatish kiritiladi.<br>– ikki bosqichli tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish qonun hujjatlariga muvofiq «Davarxitektqurilish» qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan tartibga muvofiq amalga oshiriladi. |
| 47. | ish hujjatlari | detailed documen-tation | рабочая документа-ция | – alohida binolar va inshootlarga hamda ish turlariga ish chizmalari komplekti. Murakkab ob'ektlar bo'yicha ish hujjatlarini tuzishda loyiha materiallarini aniqlashtiruvchi qo'shimcha ishlar amalga oshiriladi. Ularga ish chizmalari umuman binoga va inshootga ishlab chiqiladi. Ish hujjatlarida mehnat sarfi va asosiy qurilish materiallariga |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | xarajatlar o‘zgarishining hisob-kitobi keltirilgan bo‘lishi, ixtisoslashtirish tuzilishi, asbob-uskunalar va buyumlarning tegishli turlariga esa – o‘lcham sxemalari tuzilishi, bino va inshootga qurilish ish chizmalarining pasporti tuzilishi kerak. Ish hujjatlarini ishlab chiqish uchun loyihalovchiga yakka tartibda tayyorlanadigan buyurtma qilinadigan asbob-uskunalar va import asbob-uskunalar bo‘yicha birlamchi ma’lumotlar beriladi. |
| 48. | qabul qilingan moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatga olish | registration received financial commitments | регистрация принятых финансовых обязательств | – byudjetdan mablag‘ oluvchilarning ikkinchi tomon oldidagi moliyaviy majburiyatlari ularga tovar (ish, xizmat)lar etkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjatlar, shu jumladan ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlarni hisoblash vedomostlari asosida qabul qilinadi.<br>– moliyaviy majburiyatlar, ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar, shuningdek sud qarorlari bo‘yicha to‘lovlar, yig‘imlar, badallar, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan tashqari, oldin tuzilgan shartnomalar va yuridik majburiyatlar qabul qilinganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar doirasida qabul qilinadi.<br>– I va II guruh xarajatlari bo‘yicha moliyaviy majburiyatlar ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar to‘lovi uchun naqd pul |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | mablag‘larini olishga so‘rovnoma, shuningdek ushbu guruhlar xarajatlari bo‘yicha to‘lov topshiriqnomalari asosida ro‘yxatga olinadi. – G‘aznachilik bo‘linmalari g‘azna hisobvaraqlaridan to‘lov topshiriqnomalar asosida tashkilot va muassasalarni saqlash, markazlashtirilgan tadbirlarni o‘tkazish, kapital qo‘yilmalar va boshqa maqsadlar uchun to‘lovlarning tasdiqlangan xarajatlar smetasi va kapital qo‘yilmalar limitlari doirasida amalga oshiradi. |
| 49. | kapital qurilish | capital construc-tion | капитальное строитель-ство | – yangi qurilish, korxonalarni kengaytirish, rekonstruktsiya qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, ob’ektlar va asosiy vositalarni mukammal ta’mirlash, shu jumladan loyiha-qidiruv ishlarini bajarish |
| 50. | kafolatlaydigan etkazib beruvchi | guaranteeing supplier | гарантирующий поставщик | – kafolatlaydigan etkazib beruvchilar reestriga kiritilgan va belgilangan tartibda buyurtmani savdolarda joylashtirish bo‘yicha kontrakt tuzish kafolatini ta’minlaydigan etkazib beruvchi |
| 51. | kompleks nazorat | integrated control | комплексный контроль | – moliyaviy nazorat ob’ektining muayyan davr uchun moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining barcha yo‘nalishlarini nazorat qilish |
| 52. | kontrakt | contract | контракт | – savdolar natijalari to‘g‘risida elektron tizim tomonidan shakllantirilgan, shartnoma kuchiga ega bo‘lgan protokol |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 53. | kontraktatsiya shartnomasi | marketing contracts | договор контрак-тации | – kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtiruvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlash yoki sotish uchun bunday mahsulotni xarid qiladigan shaxsga — tayyorlovchiga shartlashilgan muddatda topshirish (topshirib turish) majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa bu mahsulotni qabul qilish (qabul qilib turish), uning haqini shartlashilgan muddatda muayyan bahoda to‘lash (to‘lab turish) majburiyatini oladi;<br>– kontraktatsiya shartnomasiga nisbatan mahsulot etkazib berish shartnomasi to‘g‘risidagi qoidalar, tegishli hollarda esa davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berishga doir davlat kontrakti to‘g‘risidagi qoidalar qo‘llanadi |
| 54. | kontraktni ro‘yxatdan o‘tkazish | contract registration | регистрация контракта | – tomonlar imzolagan kontraktni tuzilgan kontraktlar reestriga birja tomonidan kiritish |
| 55. | kontraktning rasmiy shakli | contract proforma | проформу контракта | – kontrakt rasmiyatchiligi kontraktlarga nisbatan qo‘yiladigan talablarga javob berishi kerak, jumladan:<br>– kontraktning xalqaro savdo huquqining umumiy qabul qilingan me’yorlariga muvofiqligi;<br>– kontraktning O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va normativ hujjatlariga muvofiqligi.<br>– bitim (kontrakt) |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | rasmiyatchiliklarini tuzish chog‘ida buyurtmachi yoki ishchi organ maslahatlashish uchun shartnoma asosida ixtisoslashtirilgan konsalting firmalariga murojaat qilishga haqlidir. |
| 56. | korporativ xaridlar | corporate procure-ment | Корпоратив-ные закупки | – davlat ulushi ustun bo‘lgan tabiiy monopoliyalar sub’ektlari, korxonalar va tashkilotlar elektron xaridlari bo‘yicha Hukumat komissiyasi tomonidan aniqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha ustav fondidagi davlat ulushi 50 foizdan ko‘p bo‘lgan tabiiy monopoliyalar sub’ektlari, davlat unitar korxonalari va xo‘jalik jamiyatlari tomonidan amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari |
| 57. | qurilishlarning aniq ro‘yxati | address list of construc-tion projects | адресный список строек | – ob’ektlar ro‘yxatini, shuningdek ulardan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha ishlar va xarajatlar hajmini o‘z ichiga oluvchi har yili buyurtmachilar tomonidan ajratilgan limitlar doirasida tuziladigan moliyaviy hujjat |
| 58. | qurilishning titul ro‘yxati | title settings list | титульный список стройки | – qurilishning butun davriga kapital qo‘yilmalar hajmini va uni sarflash yo‘nalishlarini ko‘rsatgan, uning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aks ettirgan holda har bir ob’ekt bo‘yicha tuziladigan moliyaviy hujjat |
| 59. | qurilish-pudrat tashkilotlari reestri | constructio n and contracting companies registry | реестр строительно-подрядных организаций | – qurilish-pudrat tashkilotlarining ixtisoslashuvga, tashkiliy tuzilmaga va bajariladigan qurilish-montaj ishlari xususiyatiga muvofiq doimiy ishlaydigan qurilish-ishlab |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | chiqarish xodimlari bilan butlanganligi, ularda ishlab chiqarish fondlari (o‘z ishlab chiqarish bazasi, qurilish texnikasi, mashinalar va mexanizmlar, shuningdek kichik mexanizatsiya vositalari) mavjudligi hisobga olingan holda ular to‘g‘risidagi har yili yangilanadigan yagona elektron ma’lumotlar bazasi |
| 60. | loyiha | project | проект | – tarmoq tuzilmalarini rivojlantirish va joylashtirish sxemasi, shuningdek muhandislik izlanishlari va korxonalar, inshootlarni joylashtirishning variantli ishlanmalari, uning loyiha quvvati va boshqa texnik ko‘rsatkichlari asosida tuzilgan mintaqalar bo‘yicha ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish sxemasi tarkibida bajarilgan zarur hisob-kitoblar bilan birgalikda materiallar turkumi. Kapital qurilish loyihasida quyidagi asosiy masalalar hal etiladi: xom ashyo va tayyor mahsulotning transport oqimlari sxemasi, ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlab chiqarishning ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi, iqtisodiyotning turdosh tarmoqlari bilan aloqalar, ishlab chiqarishning hisob-kitobi va uni tashkil etish, ishlab chiqarishni kadrlar bilan ta’minlash, qurilish uchun ajratilgan er uchastkasidan oqilona foydalanish, binolar va inshootlarning hajmli– |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | rejalashtirish, arxitektura va konstruktiv echimlari, atrof muhit muhofazasi, izdan chiqqan erlarni tiklash (rekultivatsiya) va er qa’ri muhofazasi, quvvatlarni o‘zlashtirish |
| 61. | loyihalovchi | designer | Проектировщик | – loyiha va qidiruv ishlarini bajarish uchun tanlov asosida tanlab olingan tashkilot |
| 62. | mablag‘ bilan ta’minlovchi organ | funding body | финансирующий орган | – byudjetdan ajratmalar bo‘yicha- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya boshqarmalari (Davlat byudjetining g‘azna ijrosi bilan qamrab olingan mintaqalarda -G‘aznachilik va uning hududiy bo‘linmalari);<br>– davlat byudjeti tarkibida jamlanadigan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari bo‘yicha (byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan tashqari) jamg‘armalarning tegishli tasarrufchilari |
| 63. | mavzuli nazorat | theme control | Тематический контроль | – moliyaviy nazorat ob’ektining muayyan davr uchun ayrim masalalar bo‘yicha faoliyatini nazorat qilish |
| 64. | mahsulot etkazib berish davrlari | dispute settlement at the conclusion of the contract of supply | урегулирование разногласий при заключении договора поставки | – Agar taraflar tovarlarni shartnomaning amal qilish muddati mobaynida turkum-turkum qilib etkazib berishni nazarda tutgan bo‘lsalar va unda alohida turkumlarni etkazib berish muddatlari (etkazib berish davrlari) belgilanmagan bo‘lsa, tovarlar har oyda bir xil turkumlarda etkazib berilishi lozim, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | basharti qonun hujjatlaridan, majburiyatning mohiyatidan yoki ish muomalasi odatlaridan boshqacha tartib anglashilmasa.<br>– shartnomada mahsulot etkazib berish davrlarini belgilash bilan bir qatorda tovarlarni etkazib berish (o‘n kunlik, sutkalik, soatlik va hokazo) jadvali ham belgilanishi mumkin.<br>– tovarlarni muddatidan oldin etkazib berish sotib oluvchining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin. Muddatidan oldin etkazib berilgan va sotib oluvchi tomonidan qabul qilingan tovarlar keyingi davrda etkazib berilishi lozim bo‘lgan tovarlar miqdoriga kiritiladi. |
| 65. | mahsulot etkazib berish shartnomasi | supply contract | договор поставки | – mahsulot etkazib berish shartnomasiga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan mahsulot etkazib beruvchi — sotuvchi shartlashilgan muddatda yoki muddatlarda o‘zi ishlab chiqaradigan yoxud sotib oladigan tovarlarni sotib oluvchiga tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun yoki shaxsiy, oilaviy maqsadlarda, ro‘zg‘orda va shunga o‘xshash boshqa maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun topshirish, sotib oluvchi esa tovarlarni qabul qilish va ularning haqini to‘lash majburiyatini oladi.<br>– |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 66. | mahsulot etkazib berish shartnomasining amal qilish muddati | actions term supply contract | срок действия договора поставки | – mahsulot etkazib berish shartnomasi bir yilga, bir yildan ortiq muddatga (uzoq muddatli shartnoma) yoki taraflar kelishuvida nazarda tutilgan boshqa muddatga tuzilishi mumkin.<br>– agar mahsulot etkazib berish shartnomasida uning amal qilish muddati belgilanmagan bo‘lsa, shartnoma bir yilga tuzilgan deb hisoblanadi.<br>– agar uzoq muddatli shartnomada etkazib berilishi lozim bo‘lgan tovarlar miqdori yoki shartnomaning boshqa shartlari bir yilga yoki undan ortiq muddatga belgilangan bo‘lsa, shartnomada taraflarning bu shartlarni shartnomaning amal qilish muddati tugagunga qadar keyingi davrlar uchun kelishib olish tartibi belgilanishi lozim. Shartnomada bunday tartib bo‘lmasa, shartnoma tegishincha bir yilga yoki shartnoma shartlari kelishilgan muddatga tuzilgan hisoblanadi.<br>– uzoq muddatli shartnoma taraflaridan biri etkazib berilishi lozim bo‘lgan tovarlar miqdorini yoki shartnomaning boshqa shartlarini keyingi davrlar uchun shartnomada belgilangan tartibda kelishib olishni rad qilgan yoki undan bosh tortgan taqdirda boshqa taraf tegishli davrlarda tovarlarni etkazib berish shartlarini belgilash to‘g‘risidagi yoxud |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi talab bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega. |
| 67. | mahsulotlarning monopol turlari | exclusive products | монопольные виды продукции | – xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan ishlab chiqariladigan, Tovar yoki moliya bozorida ustunlik mavqeini egallagan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning davlat reestriga kiritilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) |
| 68. | mahsulotlarning yuqori likvidli turlari | highly liquid products | высоколиквидные виды продукции | – Vazirlar Mahkamasining «Mahsulotlar, xom ashyo va materiallarning yuqori likvidli turlarini sotishning bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish to‘g‘risida» 2004 yil 5 fevraldagi 57-son qarorida nazarda tutilgan mahsulotlar turlari |
| 69. | maxsus axborot portali | special information portal | специальный информационный портал | – birjaning buyurtmachilarning elektron savdolar o‘tkazish to‘g‘risidagi, davlat va korporativ buyurtmani joylashtirish natijalari to‘g‘risidagi axborotni hamda xarid jarayoni qatnashchilari uchun zarur bo‘lgan boshqa axborot joylashtirilishi va ko‘zdan kechirilishini ta’minlaydigan maxsus sayti |
| 70. | moliya yili | financial year | финансовый год | – birinchi yanvardan o‘ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oluvchi davr |
| 71. | moliyaviy majburiyatlar | financial obligations | финансовые обязатель-ства | – byudjet tashkilotlarida va byudjet mablag‘lari oluvchilarda ularga pul mablag‘larini o‘tkazish majburiyatini yuklovchi hujjatlar, shu jumladan ijro hujjatlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 72. | moliyaviy nazorat ob'ektlari | objects of financial control | объекты финансового контроля | – O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, byudjet mablag'larini taqsimlovchilar, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar, davlat maqsadli jamg'armalari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari |
| 73. | muqobil nazorat | counter check | встречный проверка | – operatsiyalar yagonaligi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan va turli moliyaviy nazorat ob'ektlarida turgan hujjatlarni solishtirishni o'z ichiga olgan tekshirish |
| 74. | oldi-sotdi shartnomasi | contract of sale | договор купли-продажи | – oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha bir taraf (sotuvchi) tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini, sotib oluvchi esa bu tovarni qabul qilish va uning uchun belgilangan pul summasi (bahosi)ni to'lash majburiyatini oladi;<br>– agar qonunda qimmatli qog'ozlar va valyuta qimmatliklarining oldi-sotdisiga doir maxsus qoidalar belgilangan bo'lmasa, ularni olish-sotishga nisbatan ushbu paragrafda nazarda tutilgan qoidalar qo'llanadi.<br>– qonunda nazarda tutilgan hollarda ayrim turdagi tovarlarni olish-sotishning o'ziga xos jihatlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi. |
| 75. | oferent | offeror | оферент | – malaka tanlovidan o'tgan va ofertasi tanlov savdolari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | tashkilotchisi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan talabgor |
| 76. | oferta | offer | оферта | – tanlov hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq taqdim etilgan tanlov savdolari predmetiga nisbatan talabgorning taklifi |
| 77. | ochiq tanlov savdolari | open competitive tender | открытые конкурсные торги | – oferentlar soni cheklanmaydigan savdolar |
| 78. | ochiq tenderlar | open tenders | открытые тендеры | – ochiq tenderlarda, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha yuridik shaxslar qatnashishi mumkin. |
| 79. | personal kabinet | personal cabinet | персональный кабинет | – maxsus axborot portalidagi individual sahifa, uning vositasida savdolarda qatnashish uchun zarur axborotdan foydalanish ta'minlanadi.<br>– personal kabinetdan buyurtmachi yoki etkazib beruvchi (ularning agentlari) tegishli individual loginlar va parollarni qo'llab foydalanishadi |
| 80. | reja-jadval | schedule chart | план-график | – Hukumat komissiyasi tomonidan aniqlanadigan ro'yxat bo'yicha buyurtmalarni, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni joylashtirish hajmlari va muddatlarini nazarda tutuvchi hujjat |
| 81. | Respublika g'azna hisobvarag'i | National treasury account | Республиканский казначейский счет | – Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan barcha byudjetdan mablag' oluvchilar g'azna ijrosi bilan to'liq qamrab olinguncha qadar, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligiga Markaziy |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazida (keyingi o‘rinlarda — HKKM) 23402 (006) balans raqami bilan Respublika g‘azna hisobvarag‘i ochiladi.<br>– RG‘Hga respublika byudjetining g‘azna ijrosi bilan qamrab olingan byudjetdan mablag‘ oluvchilarning kassa xarajatlarini amalga oshirish uchun mablag‘lar HKKM da 23402 (005) hisobvarag‘i bilan ochilgan respublika byudjetining asosiy hisobvarag‘idan tushadi.<br>– RG‘H dagi mablag‘lar taqsimlovchisi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi hisoblanadi.<br>– Respublika byudjetidan moliyalashtirishni amalga oshirish uchun ajratilgan byudjet mablag‘larining bosh taqsimlovchisi hisoblangan byudjetdan mablag‘ oluvchilar, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tarmoq boshqarmalariga byudjetning g‘azna ijrosi bilan qamrab olingan har bir byudjetdan mablag‘ oluvchi bo‘yicha sertifikat summasining yoyilmasini ilova qilgan holda, shuningdek byudjetning g‘azna ijrosi bilan qamrab olinmagan, quyi turuvchi byudjetdan mablag‘ oluvchilarga mablag‘larni o‘tkazish uchun byudjet mablag‘lari bosh |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | taqsimlovchilarining byudjet depozit hisobvaraqlariga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan qismi bo‘yicha mablag‘larni RG‘H ga o‘tkazish uchun rasmiylashtirilgan tayinlash sertifikatlarini taqdim etadilar. |
| 82. | subventsiya | subvention | субвенция | – muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari |
| 83. | subsidiya | subsidy | субсидия | – tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va ularni realizatsiya qilishni moliyalashtirish yoki birgalikda moliyalashtirish yoxud maqsadli xarajatlarning o‘rnini qisman qoplash uchun byudjet tizimi byudjetlari hisobidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan pul mablag‘lari |
| 84. | talabgor | bidder | претендент | – ofertasi savdo tashkilotchisi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgunga qadar taklif etilgan shartlarda tanlov savdolarida qatnashish niyatini bildirgan yuridik yoki jismoniy shaxs |
| 85. | talabgorning malakasini oldindan aniqlash | pre-qualifica-tion (prequali-fication) | предварительная квалифика-ция (предквалификация) | – tanlov savdolarida qatnashishga qo‘yish uchun talabgorlarni tanlash |
| 86. | tanlov asosidagi nazorat | random control | выборочный контроль | – muayyan davr uchun buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarning ayrim qismlarini nazorat qilish<br>– |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 87. | tanlov komissiyasi | competition commission | конкурсная комиссия | – yuklatilgan funktsiyalarni bajarish uchun buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan doimiy yoki vaqtinchalik organ |
| 88. | tanlov savdolari | competitive tendering | конкурсные торги | – tanlov hujjatlarida nazarda tutilgan mezonlar va shartlarga muvofiq tovarning maqbul etkazib beruvchisini, ishlarni bajaruvchini va xizmatlar koʻrsatuvchini tanlash usuli |
| 89. | tanlov savdolari predmeti | the subject of competitive bidding | предмет конкурсных торгов | – tovarlar, ishlar va xizmatlar |
| 90. | tanlov savdolari tashkilotchisi | organizer of competitive bidding | организатор конкурсных торгов | – buyurtmachi yoki tanlov savdolarini tashkil etish va oʻtkazish uchun buyurtmachi tomonidan jalb etiladigan yuridik shaxs |
| 91. | tanlov hujjatlari | tender documentation | конкурсная документация | – savdolarining texnik, moliyaviy, tijorat, tashkiliy tavsiflari va boshqa tavsiflari toʻgʻrisidagi hamda tanlov savdolarini tashkil etish va oʻtkazish shartlari, tartib-qoidalari toʻgʻrisidagi dastlabki axborot mavjud boʻlgan hujjatlar turkumi |
| 92. | tartibga soluvchi daromadlar | regulatory income | регулирующие доходы | – byudjet tizimi byudjetlari oʻrtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy toʻlovlar, shuningdek soliq boʻlmagan toʻlovlar. Soliq boʻlmagan toʻlovlarga byudjet tizimi byudjetlariga kelib tushadigan soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlar boʻlmagan toʻlovlar kiradi |
| 93. | tender va tanlov savdolarining | the subject of tender and | предмет тендерных и конкурсных | – tender va tanlov savdolari natijalari boʻyicha sotib |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | predmeti | competitive bidding | торгов | olinishi mo‘ljallanayotgan tovar, ish va xizma |
| 94. | tender qatnashchilari | the participants of the tender | участники тендера | – tenderlarda ularda qatnashish uchun qo‘yiladigan shartlarni bajargan, tender asosida xarid qilinadigan mahsulotning tegishli hajmlarini etkazib berish tajribasiga ega bo‘lgan ham xorijiy firmalar va tashkilotlar, ham vatanimiz ishlab chiqaruvchilari (tovar etkazib beruvchilari) qatnashishlari mumkin.<br>– e’lon bosib chiqarilgandan so‘ng tenderda qatnashishni xohlovchi da’vogarlar tender hujjatlari oladilar, ular pul to‘lash asosida har bir da’vogarga beriladi. Tender hujjati olish uchun to‘lov miqdori tender komissiyasi tomonidan belgilanadi. Mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari (tovar etkazib beruvchilari) uchun tender hujjatlari olish uchun to‘lov miqdori so‘mlarda belgilanadi |
| 95. | tender qatnashchisi uchun yo‘riqnoma | manual to the bidder | инструкцию для участника тендера | – tenderda ishtirok etishni xoxlovchilar uchun maxsus ma’lumotnoma. Unda tenderlar qachon o‘tkazilishi to‘g‘risida ma’lumot olish yuzasidan tender komissiyasining ishchi organi vakili bilan bog‘lanish uchun manzil va bog‘lanish telefonlari;tender komissiyasiga yuborilayotgan tender takliflarining nusxalari soni to‘g‘risida ko‘rsatma;tender taklifini rasmiylashtirish tartibi va uni vizalashga nisbatan |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | qo‘yiladigan talab;tender taklifi uning qatnashchisi tomonidan tender komissiyasiga taqdim etilgandan so‘ng unga o‘zgartirishlar kiritish va uni rasmiylashtirish tartibi;narxlar belgilash va valyutaga oid ko‘rsatma;tender komissiyasiga takliflar berish tartibotiga nisbatan talab;tender qatnashchisining kelishib olingan vaqt mobaynida o‘z taklifidan qaytmasligini kafolatlovchi zakalat pulining miqdori, uni to‘lash va qaytarib olish tartibi;buyurtmachining xohishiga ko‘ra — tender savdolari natijalari bo‘yicha tuzilgan kontraktni zarur darajada bajarish yuzasidan beriladigan pul kafolati (garovga sifatidagi)ning miqdori, uni to‘lash va qaytarib olish tartibi;tender qatnashchilari tomonidan tender hujjatlari talablariga asoslangan takliflar bilan bir qatorda muqobil takliflar berish mumkinligi to‘g‘risida axborot;tender qatnashchisining iltimosi asosli bo‘lganda tenderlarning yopilishi sanasini boshqa kunga ko‘chirish mumkinligiga oid ko‘rsatma; har qanday hujjatning va o‘tkazilgan tenderlar doirasida tuziladigan hujjatlarning maxfiyligi ta’minlanishi;takliflar solingan konvertlarni ochish tartiboti bayoni va tender komissiyasi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | tomonidan tender g'olibini aniqlash muddati ko'rsatiladi |
| 96. | tender hujjatining tijorat qismi | commercial part of tender | Коммерческую часть тендера | – unda tovar narxi va uni belgilash tartibi (tender savdolarida qatnashish uchun xorijiy tovar etkazib beruvchilar jalb qilingan hollarda xarid qilinadigan tovarlarni tashib keltirishning qiymati alohida ajratib ko'rsatiladi);etkazib berish shartlari;to'lov sharti va to'lovlar jadvali; bitishuvlarni mablag' bilan ta'minlash manbalari ko'rsatiladi |
| 97. | tenderning texnik qismi | technical part of the tender | техническую часть тендера | – tenderning texnik qismida xarid qilinadigan tovarga nisbatan zarur texnologiya talablari bo'ladi |
| 98. | tovar | product | товар | – xom ashyo, buyum, konstruktsiya, asbob-uskunalarga butlovchi buyumlar, qattiq, suyuq yoki gazsimon holatdagi predmetlar, energiyaning barcha turlari, shuningdek etkazib beriladigan tovarga qo'shimcha ravishda ko'rsatiladigan xizmatlar, agar ularning qiymati tovar qiymatining o'zidan ortiq bo'lmasa |
| 99. | tovar sifatining kafolati | product quality assurance | гарантия качества товара | – sotuvchi sotib oluvchiga topshirishi lozim bo'lgan tovar uni sotib oluvchiga topshirish paytida nazarda tutilgan talablarga, agar tovarning ushbu talablarga muvofiqligini aniqlashning boshqa payti oldi-sotdi shartnomasida nazarda tutilgan bo'lmasa, javob berishi va oqilona muddat davomida belgilangan maqsadlar uchun yaroqli |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | bo'lishi kerak.<br>– oldi-sotdi shartnomasida sotuvchining tovar sifatiga kafolat berishi nazarda tutilgan taqdirda, sotuvchi sotib oluvchiga shartnomada belgilangan muayyan vaqtda (kafolat muddatida) nazarda tutilgan talablarga javob beradigan tovarni topshirishi lozim.<br>– agar oldi-sotdi shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, tovar sifatining kafolati barcha butlovchi buyumlarga ham tegishli bo'ladi |
| 100. | tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni etkazib beruvchilar | providers | поставщики | – elektron katalogda o'zining ofertasini joylashtirgan tadbirkorlik sub'ektlari, shu jumladan birja tomonidan belgilangan tartibda Tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib berilishini kafolatlovchi etkazib beruvchilar reestriga kiritilgan tadbirkorlik sub'ektlari |
| 101. | tovarlarni olib borib berish | goods delivery | доставка товаров | – tovarlarni olib borib berish etkazib beruvchi tomonidan ularni mahsulot etkazib berish shartnomasida nazarda tutilgan transportda va unda belgilangan shartlarda jo'natish yo'li bilan amalga oshiriladi.<br>– mahsulot etkazib berish shartnomasida olib borib berish qaysi transport turida yoki qanday shartlarda amalga oshirilishi belgilangan bo'lmasa, olib borib beruvchi transport turini tanlash yoki tovarni olib borib berish |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | shartlarini belgilash huquqiga ega bo'ladi, basharti qonun hujjatlaridan, majburiyatning mohiyati yoki ish muomalasi odatlaridan boshqacha tartib anglashilmasa |
| 102. | tovarlarni tanlab olish | sample products | выборка товаров | – agar mahsulot etkazib berish shartnomasida sotib oluvchi (oluvchi)ning etkazib beruvchi joylashgan erda tovarlarni tanlab olishi nazarda tutilgan bo'lsa, sotib oluvchi (oluvchi) o'ziga topshirilayotgan tovarlarni ular topshiriladigan joyda ko'zdan kechirishi lozim. Tovarlarning shartnomaga nomuvofiqligi aniqlanganda, u bunday tovarlarni olishdan bosh tortishga haqli.<br>– sotib oluvchi (oluvchi)ning tovarlarni mahsulot etkazib berish shartnomasida belgilangan muddatda, bunday muddat belgilanmagan bo'lsa, tovarlarning tayyorligi to'g'risida mahsulot etkazib beruvchining bildirish xatini olganidan so'ng oqilona muddatda tanlab olmasligi mahsulot etkazib beruvchiga shartnomani bajarishdan bosh tortish yoki sotib oluvchidan tovarlar haqini to'lashni talab qilish huquqini beradi. |
| 103. | tovarlarning assortimenti | assortment of goods | ассортимент товаров | – agar oldi-sotdi shartnomasiga ko'ra tovarlar tur, model, o'lcham, rang va boshqa belgilari (assortiment) bo'yicha muayyan nisbatda topshirilishi lozim bo'lsa, sotuvchi tovarlarni sotib oluvchiga taraflar kelishgan assortimentda topshirishi shart. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | – agar oldi-sotdi shartnomasida assortiment belgilanmagan hamda shartnomada uni belgilash tartibi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, lekin majburiyat mohiyatidan tovarlar sotib oluvchiga assortiment bo‘yicha topshirilishi lozimligi kelib chiqsa, sotuvchi sotib oluvchiga tovarlarni sotib oluvchining shartnoma tuzish paytida sotuvchiga ma’lum bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqadigan assortimentda topshirishga yoki shartnomani bajarishdan bosh tortishga haqli |
| 104. | tovarlarning sotib oluvchi tomonidan qabul qilinishi | acceptance of the goods by the buyer | принятие товаров покупателем | – sotib oluvchi (oluvchi) shartnomaga muvofiq etkazib berilgan tovarlarning qabul qilinishini ta’minlaydigan barcha zarur harakatlarni amalga oshirishi lozim.<br>– sotib oluvchi (oluvchi) o‘zi qabul qilgan tovarni qonun hujjatlarida, mahsulot etkazib berish shartnomasida yoki ish muomalasi odatlarida belgilangan muddatda ko‘zdan kechirishi lozim.<br>– sotib oluvchi (oluvchi) xuddi shu muddatda qabul qilingan tovarlarning miqdori va sifatini qonun hujjatlarida, mahsulot etkazib berish shartnomasida yoki ish muomalasi odatlarida belgilangan tartibda tekshirishi va tovarning aniqlangan nomuvofiqliklari va kamchiliklari to‘g‘risida tovar etkazib beruvchini darhol yozma ravishda xabardor |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | qilishi lozim.<br>– etkazib berilgan tovarlar transport tashkilotidan olingan taqdirda sotib oluvchi (oluvchi) tovarlarning transport va yuk hujjatlarida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga muvofiqligini tekshirishi, shuningdek bu tovarlarni transport tashkilotidan belgilangan qoidalarga rioya etgan holda qabul qilishi lozim |
| 105. | tovarni topshirish majburiyatini bajarish muddati | term performance of the obligation to transfer the goods | срок исполнения обязанности передать товар | – sotuvchining tovarni sotib oluvchiga topshirish majburiyatini bajarish muddati oldi-sotdi shartnomasida belgilanadi, agar shartnoma bu muddatni aniqlash imkonini bermasa, u nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq aniqlanadi.<br>– belgilangan muddat buzilgan taqdirda sotib oluvchida shartnomaning bajarilishiga qiziqish yo‘qolishi shartnomadan aniq bilinib tursa, oldi-sotdi shartnomasi uni qat’iy belgilangan muddatda bajarish sharti bilan tuzilgan hisoblanadi. Sotuvchi bunday shartnomani unda belgilangan muddatdan oldin yoki bu muddat tugagandan so‘ng sotib oluvchining roziligisiz bajarishga haqli emas. |
| 106. | tovarni topshirish yuzasidan sotuvchining majburiyatlari | the seller's obligation to transfer goods | обязанности продавца по передаче товара | – sotuvchi sotib oluvchiga oldi-sotdi shartnomasida nazarda tutilgan tovarni topshirishi shart.<br>– agar oldi-sotdi shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, sotuvchi sotib |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | oluvchiga ashyoni berish bilan bir vaqtda unga mansub ashyoni, shuningdek qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan ashyoga aloqador hujjatlar (texnik pasporti, sifat sertifikati, foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma va hokazolar)ni topshirishi shart. |
| 107. | tovarning miqdori | quantity of goods | количество товара | – sotib oluvchiga topshirilishi lozim bo‘lgan tovarning miqdori oldi-sotdi shartnomasida tegishli o‘lchov birliklarida yoki pulda nazarda tutiladi. Tovarning miqdori to‘g‘risidagi shart shartnomada uni aniqlash tartibini belgilash yo‘li bilan kelishilishi mumkin.<br>– agar oldi-sotdi shartnomasi topshirilishi lozim bo‘lgan tovar miqdorini aniqlash imkonini bermasa, shartnoma tuzilmagan hisoblanadi |
| 108. | tovarning sifati | product quality | качество товара | – sotuvchi sotib oluvchiga sifati oldi-sotdi shartnomasiga mos keladigan tovarni topshirishi shart.<br>– oldi-sotdi shartnomasida tovarning sifati to‘g‘risidagi shartlar ko‘rsatilmaganda, sotuvchi sotib oluvchiga belgilangan maqsadlar uchun yaroqli bo‘lgan tovarni topshirishi shart.<br>– agar sotib oluvchi shartnoma tuzish paytida sotuvchiga tovarni qanday aniq maqsadlar uchun sotib olayotganini xabar qilgan bo‘lsa, sotuvchi sotib oluvchiga ushbu maqsadlarda foydalanish uchun yaroqli |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | bo‘lgan tovarni topshirishi shart.<br>– tovar namunasi bo‘yicha va (yoki) ta’rifi bo‘yicha sotilganda sotuvchi sotib oluvchiga namuna va (yoki) ta’rifga mos keladigan tovarni topshirishi shart.<br>– agar qonunda belgilangan tartibga muvofiq, sotilayotgan tovar sifatiga nisbatan majburiy talablar nazarda tutilgan bo‘lsa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan sotuvchi sotib oluvchiga ushbu majburiy talablarga javob beradigan tovarni topshirishi shart.<br>– sotuvchi bilan sotib oluvchi o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq qonunda nazarda tutilgan tartibda tovarning sifatiga qo‘yilgan majburiy talablarga qaraganda yuqoriroq talablarga javob beradigan tovar topshirilishi mumkin |
| 109. | tovarning yaroqlilik muddati | product shelf life | срок годности товара | – qonun hujjatlarida, shu jumladan davlat standartlarida tovar o‘z vazifasi bo‘yicha foydalanish uchun yaroqsiz holga kelib qoladi deb hisoblanadigan vaqt (yaroqlilik muddati) belgilanishi mumkin.<br>– sotuvchi yaroqlilik muddati belgilangan tovarni sotib oluvchiga shunday mo‘ljal bilan topshirishi kerakki, toki undan yaroqlilik muddati tugagunga qadar o‘z vazifasi bo‘yicha foydalanish mumkin bo‘lishi kerak<br>– |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 110 | tuzilgan kontraktlar reestri | register of contracts | реестр заключенных контрактов | – tomonlar imzolagan va birja shtampi bilan tasdiqlangan kontraktlar ro‘yxati |
| 111 | O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti (Davlat byudjeti) | | Государственный бюджет Республики Узбекистан (Государственный бюджет) | – davlatning davlat vazifalari va funktsiyalarini moliyaviy jihatdan ta’minlash uchun mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul jamg‘armasi |
| 112 | o‘tkazib beriladigan daromadlar | State Budget of the Republic of Uzbekistan (State Budget) | Передаваемые доходы | – tegishli ma’muriy-hududiy birlikda shakllanadigan va yuqori turuvchi byudjetga o‘tkaziladigan, ular qaerda shakllangan bo‘lsa, keyinchalik o‘sha ma’muriy-hududiy birlik byudjetiga o‘tkazib beriladigan daromadlar |
| 113 | foydalanuvchining individual raqami | an individual user number | индивидуальный номер пользователя | – birjaning hisob-kitob-kliring palatasi tomonidan buyurtmachilar va etkazib beruvchilarga ularning birjaning hisob-kitob-kliring palatasi talab qilib olgungacha ikkilamchi depozit hisob raqamiga o‘tkaziladigan avans to‘lovlarini hisobga olish uchun beriladigan individual tartib raqami |
| 114 | xarajatlar moddasi | item of expenditure | статья расходов | – byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarining iqtisodiy yo‘nalishi va to‘lovlarning aniq turlari bo‘yicha belgilovchi byudjet tasnifining bir qismi |
| 115 | xarajatlar smetasi | costings | смета расходов | – byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag‘lari oluvchi tomonidan moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar xarajatlar moddalari bo‘yicha aks ettiriladigan hujjat |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 116. | hisob-kitob-kliring palatasi | clearing houses | расчетно-клиринговая палата | – birjaning buyurtmachilar va etkazib beruvchilarning avans to‘lovlarini deponentga qo‘yish va hisobga olish yo‘li bilan kontraktlar bo‘yicha majburiyatlarni bajarishga qodir bo‘lgan buyurtmachilar va etkazib beruvchilarni elektron auktsion savdolarga qo‘yishni ta’minlaydigan tarkibiy bo‘linma |
| 117. | hududiy g‘azna hisobvaraqlari | territorial treasury accounts | территориальные казначейские счета | – qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar qaramog‘ida bo‘lgan byudjetdan mablag‘ oluvchilarning pul mablag‘larini kirim qilish va o‘tkazish bo‘yicha operatsiyalar hududiy g‘azna hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi.<br>– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar qaramog‘ida bo‘lgan byudjetdan mablag‘ oluvchilarning byudjetdan tashqari mablag‘lari (ota-onalarning maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni saqlash uchun to‘lovlari, ota-onalarning musiqa va san’at maktablarida bolalarni o‘qitish uchun to‘lovlari, maktabgacha ta’lim muassasalari ishchilaridan ovqatlanish uchun tushgan tushumlar, shuningdek ijtimoiy ta’minot organlaridan byudjet tashkiloti xodimlariga pensiya va ijtimoiy nafaqa to‘lash uchun tushgan mablag‘lar) o‘rnatilgan tartibda HG‘Hga |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | kirim qilinadi.<br>– Joriy yilda byudjetdan mablag‘ oluvchilarning joriy moliya yili uchun kelib tushgan debitorlik qarzlari summasi kassa xarajatlarini tiklash orqali HG‘Hga kirim qilinadi (byudjetdan mablag‘ oluvchilarning shartnomalar tuzmasdan amalga oshiriladigan to‘lovlari bo‘yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlar) |
| 118. | hududiy moliya organlari | territorial financial bodies | территориальные финансовые органы | – Qoraqalpog‘iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo‘limlari |
| 119. | Hukumat komissiyasi | government commis-sion | Правительственная комиссия | – Pravitelstvennaya komissiya po gosudarstvennim zakupkam i/ili Pravitelstvennaya komissiya po elektronnim zakupkam sub’ektov estestvennix monopoliy, predpriyatiy i organizatsiy, imeyushchix preobladayushchuyu dolyu gosudarstva |
| 120. | Hukumat komissiyasining ishchi organi | working body of the Govern-ment Commis-sion | рабочий орган Правительственной комиссии | – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi — davlat xaridlarini tashkil etish bo‘yicha hamda O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi — korporativ xaridlarni tashkil etish bo‘yicha |
| 121. | shartnoma bajarilishini | Perfor-mance of | обеспечение исполнения | – buyurtmachining talabiga ko‘ra tanlov savdolari g‘olibi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | ta'minlash | the contract provision | договора | tomonidan ular bo'yicha birlamchi majburiyatni bank o'z zimmasiga oladigan bank kafolati, topshiriq, zaxira akkredetivlar, cheklar shaklidagi, naqd mablag'lardagi depozitlar, yoxud boshqa shakllardagi depozitlar shaklidagi shartnomadagi mavjud majburiyatlar bajarilishining ta'minlanishi |
| 122. | shartnomaviy joriy narx | negotiated the current price | договорная текущая цена | – tanlov savdolari natijalari bo'yicha belgilanadigan tanlov savdolari predmeti narx |
| 123. | shartnomaning tovar to'g'risidagi sharti | commodity contract condition | условие договора о товаре | – oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha har qanday ashyolar qoidalarga rioya qilgan holda tovar bo'lishi mumkin.<br>– shartnoma, agar qonunda boshqacha hol belgilangan bo'lmasa yoki u tovarning xususiyatidan kelib chiqmasa, shartnomani tuzish paytida sotuvchida mavjud bo'lgan tovarni, shuningdek kelajakda sotuvchi yaratadigan yoki oladigan tovarni olish-sotish haqida tuzilishi mumkin.<br>– agar shartnoma tovarning nomi va miqdorini aniqlash imkonini bersa, tovar to'g'risidagi oldi-sotdi shartnomasining sharti kelishilgan hisoblanadi |
| 124. | shaxsiy g'azna hisobvaraqlari | treasury personal accounts | казначейские лицевые счета | – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimida ochiladigan, byudjet tizimi byudjetlari ijrosi bilan bog'liq operatsiyalarni aks ettirish uchun mo'ljallangan tahliliy hisob registrlari |
| 125. | shtat jadvali | staff list | штатное расписание | – doimiy xodimlar lavozimlari va bo'sh o'rinlar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | nomlarining soni va lavozim maoshlarining miqdorlari ko'rsatilgan ro'yxatni o'z ichiga oladigan, byudjet tashkiloti tomonidan tuziladigan hujjat |
| 126. | elektron katalog | digital catalogue | электронный каталог | – birjaning maxsus axborot portali orqali elektron savdo yo'li bilan tadbirkorlik sub'ektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini ta'minlovchi dasturiy-texnik majmua |
| 127. | elektron savdolar | electronic auctions | электронные торги | – boshlang'ich narxni pasaytirish yuzasidan auktsion savdolari shaklidagi, buyurtmachilar tomonidan belgilangan mezonlar va shartlardan kelib chiqqan holda, tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) eng kam narxni taklif etgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning maqbul etkazib beruvchisini tanlash usulidan iborat bo'lgan elektron xaridlar |
| 128. | elektron tizim | electronic system | электронная система | – barcha manfaatdor shaxslar qatnashishi mumkin bo'lgan savdolar o'tkazilishini ta'minlaydigan dasturiy-texnik kompleksdan foydalanish vositasida etkazib beruvchilar o'rtasida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qilishga buyurtmalarni joylashtirish tizimi |
| 129. | eng yuqori narx | maximum price | Максимальная цена | – tender savdolari to'g'risidagi axborotda ko'rsatilgan sotib olinadigan tovarning eng yuqori narxi |
| 130. | e'lon | ad | объявление | – savdolar muddatlari va talablari to'g'risida buyurtmachi tomonidan maxsus axborot portalida joylashtirilgan ma'lumotlar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 131. | yuridik majburiyatlar | legal obligations | юридические обязатель-ства | – tuzilgan shartnomalar, shuningdek tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlari asosida byudjet tashkilotlarida va byudjetdan mablag' oluvchilarda yuzaga keladigan majburiyatlar |
| 132. | yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish | registration of legal obligations | регистрация юридических обязательств | – yudjetdan mablag' oluvchilarning Davlat byudjeti hisobidan mahsulot etkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari, shuningdek kapital qurilish buyurtmachilarining shartnomalari g'aznachilik bo'linmalarida majburiy tartibda ro'yxatga olinadi.<br>– bunda, byudjet mablag'lari hisobidan byudjetdan mablag' oluvchilarning tovar (ish, xizmat)lar etkazib berish bo'yicha tuzadigan shartnomalarida, qoidaga ko'ra, 15 foiz miqdorda oldindan to'lov amalga oshirilishi belgilanadi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.<br>– Byudjetdan mablag' oluvchilarning ikkinchi tomon oldidagi yuridik majburiyatlari tuzilgan shartnomalar (kontraktlar), qonun hujjatlari (misol uchun yig'imlar, badallar, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yuridik majburiyatlar) asosida yuzaga keladi.<br>– Byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan qabul qilinadigan yuridik majburiyatlar hajmi, qoidaga ko'ra, ular iqtisodiy tasnifning |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | tegishli moddalari bo'yicha xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan, ajratilgan byudjet mablag'lari bilan, kapital qo'yilmalar xarajatlari bo'yicha esa — har bir ob'ekt bo'yicha o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan kapital qo'yilmalar bilan chegaralanadi.<br>– Byudjetdan mablag' oluvchilar mahsulot etkazib beruvchilar bilan vaqtinchalik smetada nazarda tutilgan summalardan oshmagan summalarga shartnomalar tuzadilar. Byudjetdan mablag' oluvchilarning asosiy smetasi ro'yxatga olingandan so'ng, oldingi qabul qilingan yuridik majburiyatlar summasini hisobga olgan holda, oldingi shartnomalarga qo'shimcha kelishuvlar tuzishi mumkin. |
| 133. | yakuniy nazorat | the final control | последующий контроль | – moliyaviy operatsiyalar bajarilganidan so'ng davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratlardir. |

## FAN YUZASIDAN TEST SAVOLLARI

**1. Yangi tahrirdagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?**
a) 2021 yil 22 aprelda
b) 2021 yil 12 martda
c) 2020 yil 1 dekabrda
d) 2018 yil 9 aprelda

**2. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa ...**
a) xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi
b) O‘zbekiston Respublikasining davlat xaridlari qonunchiligi qoidalari qo‘llaniladi
c) Xalqaro Savdo tashkiloti qonunchiligi qoidalari qo‘llaniladi
d) Xalqaro moliya institutlari qonunchiligi qoidalari qo‘llaniladi

**3. Davlat buyurtmachisi kim?**
a) davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs
b) pirovardida mulk huquqlariga egalik qiladigan yoki tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchini amalda nazorat qiladigan jismoniy shaxs
c) davlat tashkilotlariga tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchi shaxs
d) davlat tashkilotlarida xaridlar bo‘yicha ishlovi jismoniy shaxs

**4. Davlat buyurtmachisi va davlat xaridlarining ijrochisi o‘rtasidagi davlat xaridlari bo‘yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv nima deb nomlanadi?**
a) davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnoma
b) davlat xaridlari to‘g‘risidagi e’lon
c) davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot
d) davlat xaridlari to‘g‘risidagi majburiyat

**5. Quyidagilardan qaysi biri davlat xaridlarining subyektlari hisoblanmaydi?**
a) byudjet tashkiloti buxgalteri

b) davlat buyurtmachisi
c) xarid komissiyasi
d) maxsus axborot portali operatori

**6. Xarid qilish tartib-taomilining qaysi turida narx g‘olibni aniqlashning yagona mezoni bo‘ladi?**
a) boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksionda
b) tenderda
c) tanlashda
d) elektron do‘konda

**7. Shartnomalarning yagona reestri nima?**
a) davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ tomonidan maxsus axborot portalida yuritiladigan, davlat buyurtmachilari tomonidan tuzilgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomalarning reestri
b) davlat buyurtmachilari tomonidan tuzilgan va uning shaxsiy kabinetida saqlanadigan davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomalarning reestri
c) davlat buyurtmachilari tomonidan tuzilgan va Moliya vazirligida saqlanadigan davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomalarning reestri
d) davlat buyurtmachilari tomonidan maxsus axborot portalida yuritiladigan, tuzilgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomalarning reestri

**8. Elektron davlat xaridlari nima?**
a) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirish shakli
b) davlat buyurtmachilarining soddalashtirilgan shaklda amalga oshiriladigan xarid turi
c) internet orqali amalga oshiriladigan xarid shakli
d) raqobatga asoslanmagan, elektron tizimlardan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirish shakli

**9. Davlat xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonda savdolarni elektron shaklda amalga oshiriladigan, maxsus talablar qo‘yilmaydigan davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomili qanday nomlanadi?**

a) elektron do‘kon
b) elektron auksion

c) elektron katolog
d) elektron tender

**10. Xarid qilish tartib-taomillarining bir nechta ishtirokchisidan olingan takliflarni taqqoslash asosida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli qanday nomlanadi?**
a) eng yaxshi takliflarni tanlash
b) elektron auktsion
c) elektron do'kon
d) tender savdolari

**11. Xarid qilish tartib-taomillari yakunlariga ko'ra taklifi eng maqbul deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi qanday ataladi?**
a) g'olib
b) ishonchli etkazuvchi
c) ekspert
d) davlat xaridlari elektron tizimining operatori

**12. Quyidagilardan qaysi biri davlat xaridlarining tamoyillari sanalmaydi?**
a) tezkorlik
b) kasbiy mahorat va mas'uliyatlilik
c) ochiqlik va shaffoflik
d) raqobat va xolislik

**13. Quyidagilardan qaysi biri davlat xaridlari sohasini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari hisoblanmaydi?**
a) davlat xaridlari tizimida elektron axborot almashinuviga erishish
b) davlatning strategik maqsadlari va vazifalariga erishish
c) davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash
d) davlatning ijtimoiy vazifalarni hal qilish bo'yicha funktsiyalarini bajarish

**14. Quyidagilardan qaysi biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat xaridlari sohasidagi vakolatlariga kirmaydi?**
a) davlat xaridlarining elektron tizimiga nisbatan talablarni belgilash

b) davlat xaridlari sohasida davlat siyosati shakllanishi va amalga oshirilishini ta’minlash
c) davlat buyurtmachilarining davlat xaridlari sohasidagi faoliyati ustidan nazorat bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish
d) davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya tarkibini tasdiqlash

**15. Quyidagilardan qaysi biri O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat xaridlari sohasidagi vakolatlariga kirmaydi?**
a) davlat buyurtmachilarining davlat xaridlari sohasidagi faoliyati ustidan nazorat bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish
b) davlat xaridlari sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning bajarilishi ustidan monitoring va nazoratni ta’minlash
c) shartnomalarning yagona reestrini yuritish tartibini belgilash
d) insofsiz ijrochilarning yagona reestrini shakllantirish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash

**16. Quyidagilardan qaysi biri byudjet buyurtmachilari sanalmaydi?**
a) davlat korxonalari
davlat organlari va muassasalari
c) byudjet tashkilotlari
d) davlat maqsadli jamg‘armalari

**17. Quyidagilardan qaysi biri korporativ buyurtmachilar sanalmaydi?**
a) davlat maqsadli jamg‘armalari
b) davlat korxonalari
c) ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar
d) davlat unitar korxonalari

**18. Quyidagilardan qaysi biri davlat buyurtmachilarining majburiyatiga kirmaydi?**
a) davlat xaridlarini amalga oshirishda o‘z rasmiy veb-saytiga yoki o‘zining yuqori turuvchi organi rasmiy veb-saytiga e’lon joylashtirish
b) qonunchilikda belgilangan tartibda davlat xaridlarini amalga oshirish
c) davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotni qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda maxsus axborot portaliga joylashtirish

d) davlat xaridlarini amalga oshirishda affillanganlik to‘g‘risidagi axborotni taqdim etish

**19. Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish chog‘ida davlat buyurtmachisi tomonidan shakllantiriladigan, ushbu tartib-taomillarni o‘tkazish tartibida shakllantirilishi talab etiladigan kollegial jamoa qanday nomlanadi?**

a) xarid komissiyasi
b) shikoyatlarni ko‘rib chiqish komissiyasi
c) maslahat kengashi
d) ixtisoslashgan tashkilot

**20. Quyidagilardan qaysi biri xarid komissiyasining faoliyatiga tegishli emas?**

a) xarid komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega
b) xarid komissiyasi davlat buyurtmachisining tegishli qarorlari bilan shakllantiriladigan va tarqatib yuboriladi
c) xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a’zolari hozirligida yuzma-yuz o‘tkaziladi
d) xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa sub’ektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo‘lmaydi

**21. Quyidagilardan qaysi biri xarid komissiyasining vazifalariga kirmaydi?**

a) tuzilgan shartnomalar bo‘yicha to‘lovlarni o‘tkazish
b) xarid qilish hujjatlarini kelishish
c) takliflar qabul qilish muddatlarini belgilash
d) xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g‘olibini belgilash

**22. Davlat buyurtmachisining topshirig‘iga ko‘ra davlat xaridlarini amalga oshirishni tashkil etish bo‘yicha shartnomaga asosan pulli asosda xizmatlar ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan yuridik shaxs qanday nomlanadi?**

a) ixtisoslashgan tashkilot
b) ekspert tashkiloti
c) idoralararo komissiya
d) loyihalash markazi

**23. Ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan davlat xaridlarini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun quyidagilardan qaysi biri talab etilmaydi?**

a) shartnomaning muhim shartlarini belgilash
b) yuridik shaxs maqomiga ega boʻlish
c) amaliy tajribaga ega boʻlgan bir nafardan kam boʻlmagan xodimga ega boʻlish
d) maxsus axborot portaliga ulanish imkonini ta'minlovchi dasturiy-texnik vositalarga ega boʻlish

**24. Ixtisoslashgan tashkilot qanday xizmatlarni ko'rsatmaydi?**

a) xarid qilish tartib-taomillarini oʻtkazish toʻgʻrisidagi e'lonlarni joylashtirish
b) marketing tadqiqotlarini va boshqa tadqiqotlarni oʻtkazish
c) xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini rasmiylashtirish
d) xarid qilish tartib-taomillarini oʻtkazish yakunlari boʻyicha hisobotlar tuzish

**25. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi qanday huquqqa ega emas?**

a) asosiy benefitsiar mulkdor toʻgʻrisidagi ma'lumotlarni oshkor etmaslik
b) davlat buyurtmachisiga davlat xaridlarining tartib-taomillari, ularni oʻtkazish talablari va shartlari boʻyicha soʻrovlar berish
c) xarid komissiyasi tomonidan takliflar ochilayotganda belgilangan tartibda ishtirok etish
d) takliflarga oʻzgartirishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish

**26. Davlat xaridlarining ijrochisi qanday huquqqa ega emas?**

a) asosiy benefitsiar mulkdor toʻgʻrisidagi ma'lumotlarni oshkor etmaslik
b) davlat buyurtmachisi bilan tuzilgan shartnomani bajarish jarayonida tushuntirishlar olish uchun unga murojaat qilish
c) shartnoma shartlariga muvofiq yoki qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda shartnomani bekor qilish
d) etkazib berilgan tovar (ish, xizmat) uchun haq olish

**27. Quyidagilardan qaysi biri davlat xaridlari elektron tizimining operatori faoliyatiga ta'luqli emas?**

a) uzatiladigan, olinadigan va saqlanadigan elektron hujjatlar hamda elektron xabarlarning ishonchliligini, qonunchilikka muvofiqligini

nazorat qiladi yoki tekshiradi
b) elektron hujjatlar va elektron xabarlarning saqlanishini ta'minlaydi
c) davlat xaridlari jarayonida ishtirok etayotgan boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi
d) davlat xaridlari elektron tizimining uzluksiz ishlashini ta'minlaydi

**28. Davlat xaridlari jarayoni qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?**
a) davlat xaridlarini rejalashtirish xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish shartnomani tuzish va bajarish davlat xaridlari monitoringi
b) davlat xaridlarini rejalashtirish xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish shartnomani tuzish va bajarish
c) xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish shartnomani tuzish va bajarish davlat xaridlari monitoringi
d) davlat xaridlarini rejalashtirish xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish shartnomani tuzish va bajarish to'lovlarni o'tkazish

**29. Quyidagilardan qaysi biri maxsus axborot portali faoliyatiga ta'luqli emas?**
a) undan foydalanuvchilarga ro'yxatdan o'tish paytida elektron raqamli imzolar berilishini ta'minlaydi
b) davlat xaridlari to'g'risidagi axborotning jamoatchilik uchun ochiqligini ta'minlaydi
c) davlat xaridlari sohasidagi axborotni jamlaydi, unga ishlov beradi va tahliliy hisobotni shakllantiradi
d) davlat xaridlarining elektron tizimlari va boshqa axborot tizimlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi

**30. Davlat xaridlarining yillik reja-jadvali byudjet buyurtmachilari tomonidan qachon maxsus axborot portalida joylashtiriladi?**
a) joriy yilning 25 martiga qadar
b) chorak oxirgi oyining 25 sanasiga qadar
c) joriy yil oxirgi oyining 25 sanasiga qadar
d) joriy yilning 25 dekabriga qadar

**31. Kelgusi yil uchun davlat xaridlarining yillik reja-jadvallari korporativ buyurtmachilar tomonidan qachon maxsus axborot portalida joylashtiriladi?**
a) joriy yilning 25 dekabriga qadar

b) chorak oxirgi oyining 25 sanasiga qadar
c) joriy yil oxirgi oyining 25 sanasiga qadar
d) joriy yilning 25 dekabriga qadar

**32. Quyidagilardan qaysi biri davlat xaridlari to'g'risidagi axborot jumlasiga kirmaydi?**
a) yuqori likvidli tovarlarning narxlari
b) davlat xaridlarining reja-jadvallari
c) davlat xaridlari to'g'risidagi e'lonlar
d) hujjatlarning namunaviy shakllari

**33. Quyidagilardan qaysi biri davlat xaridlarining tiliga doir talabga kirmaydi?**
a) davlat xaridlari to'g'risidagi axborot faqat davlat tilida e'lon qilinishi va tarqatilishi lozim
b) davlat xaridlari to'g'risidagi axborot davlat tilida e'lon qilinadi va tarqatiladi
c) davlat xaridlari to'g'risidagi axborot davlat tili bilan bir vaqtda boshqa tillarda ham e'lon qilinishi va tarqatilishi mumkin
d) boshqa tillarda e'lon qilinayotgan davlat xaridlari to'g'risidagi axborotning mazmuni davlat tilida e'lon qilingan axborotga muvofiq bo'lishi kerak

**34. Quyidagilardan qaysi biri davlat xaridlari jarayonidagi cheklovlarga kirmaydi?**
a) odob-axloq qoidalarini davlat buyurtmachilarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilish
b) manfaatlar to'qnashuvi
c) firibgarlik, soxtalashtirish
d) davlat xaridlari to'g'risidagi axborotdan foydalanishni asossiz ravishda cheklash

**35. Insofsiz ijrochilarning yagona reestriga kiritilgan ijrochi qancha muddat davomida davlat xaridlarida ishtirok etishi mumkin emas?**
a) ikki yil davomida
b) bir yil davomida
c) olti oy davomida
d) uch yil davomida

**36. Elektron do‘konda byudjet buyurtmachilari qancha qiymatdagi tovarlarni xarid qilishi mumkin?**
a) BHMning 2500 baravarigacha
b) BHMning 250 baravarigacha
c) BHMning 25 baravarigacha
d) BHMning 25000 baravarigacha

**37. Elektron do‘konda byudjet buyurtmachilari qancha qiymatdagi ishlar va xizmatlarni xarid qilishi mumkin?**
a) BHMning 50 baravarigacha
b) BHMning 250 baravarigacha
c) BHMning 500 baravarigacha
d) BHMning 100 baravarigacha

**38. Elektron do‘kon orqali byudjet buyurtmachisi tomonidan ayni bir turdagi tovarlarning davlat xaridini bir moliya yili davomida qancha miqdorgacha amalga oshirilishi mumkin?**
a) BHMning 10000 baravarigacha
b) BHMning 25000 baravarigacha
c) BHMning 50000 baravarigacha
d) BHMning 2500 baravarigacha

**39. Elektron do‘konda korporativ buyurtmachilar qancha qiymatdagi ishlar va xizmatlarni xarid qilishi mumkin?**
a) BHMning 100 baravarigacha
b) BHMning 50 baravarigacha
c) BHMning 500 baravarigacha
d) BHMning 2500 baravarigacha

**40. Elektron do‘kon orqali korporativ buyurtmachilar tomonidan ayni bir turdagi tovarlarning davlat xaridini bir moliya yili davomida qancha miqdorgacha amalga oshirilishi mumkin?**
a) BHMning 500 baravarigacha
b) BHMning 25000 baravarigacha
c) BHMning 5100 baravarigacha
d) BHMning 2500 baravarigacha

**41. Ishtirokchining ofertasi u elektron do‘konda joylashtirilgan paytdan e’tiboran necha kun mobaynida amal qiladi?**
a) o‘n besh ish kuni mobaynida

b) o‘n ish kuni mobaynida
c) besh ish kuni mobaynida
d) o‘ttiz ish kuni mobaynida

**42. Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksionda byudjet buyurtmachilari bir shartnoma bo‘yicha qancha qiymatdagi tovarlarni xarid qilishi mumkin?**
a) BHMning 6000 baravarigacha
b) BHMning 2500 baravarigacha
c) BHMning 600 baravarigacha
d) BHMning 25000 baravarigacha

**43. Xarid qilishning qaysi tartib-taomili turida xizmatlar va ishlar davlat xaridi obyekti bo‘la olmaydi?**
a) boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksionda
b) elektron do‘konda
c) eng yaxshi taklifni tanlashda
d) tenderda

**44. Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon u amalga oshirilishidan necha kun avval joylashtirilishi kerak?**
a) kamida besh ish kuni avval
b) kamida besh kun avval
c) kamida o‘n besh ish kuni avval
d) kamida o‘n ish kuni avval

**45. Auksion davomida ishtirokchilar narx bo‘yicha takliflarni necha marta berishga haqli?**
a) cheklanmagan miqdorda
b) faqat bir marta
c) ikki martagacha
d) besh martagacha

**46. Qanday holatda auksion o‘tkazilmagan deb hisoblanadi va g‘olib aniqlanmaydi?**
a) agar auksionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo‘lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo‘lsa
b) agar auksionda ikki nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo‘lsa
c) agar auksionda faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirok etgan

bo‘lsa
d) agar auksionda faqat kichik biznes sub’ektlari ishtirok etgan bo‘lsa

**47. Tanlash orqali xaridlarni amalga oshirish uchun necha nafar a’zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi?**
a) kamida besh nafar a’zodan
b) kamida etti nafar a’zodan
c) toq sondan iborat istalgan miqdorda
d) ko‘pi bilan o‘n bir nafar a’zodan

**48. Tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon quyidagi axborotlardan qaysi birini o‘z ichiga olmaydi?**
a) tanlash komissiyasi tarkibi
b) tanlash o‘tkaziladigan joyning manzili
c) ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar
d) taklifni rasmiylashtirishga doir talablar

**49. Tanlash ishtirokchisi necha marta taklif berishga haqli?**
a) faqat bir marta
b) cheklanmagan miqdorda
c) ikki martagacha
d) Belgilanmagan

**50. Tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon va tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari davlat buyurtmachisi tomonidan qachon maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi?**
a) takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida besh ish kuni oldin
b) takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida besh kun oldin
c) takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida etti ish kuni oldin
d) takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida etti kun oldin

**51. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash qancha muddat ichida amalga oshiriladi?**
a) takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran o‘n ish kunida

b) takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n besh ish kunida
c) takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran uch ish kunida
d) takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran bir ish kunida

**52. Byudjet buyurtmachilari qancha summadagi tanlashni xarid komissiyasining ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin?**
a) summasi BHMning yigirma besh baravari miqdoridan oshmaydigan
b) summasi BHMning yigirma ellik baravari miqdoridan oshmaydigan
c) summasi BHMning yuz baravari miqdoridan oshmaydigan
d) summasi BHMning bir yuz ellik baravari miqdoridan oshmaydigan

**53. Tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan bayonnoma davlat buyurtmachisi tomonidan davlat xaridlarining elektron tizimiga muhokama qilish uchun qachon va qancha muddatga joylashtirilishi kerak?**
a) bayonnoma rasmiylashtirilgan kunda, ikki ish kuniga muhokama qilish uchun joylashtiriladi
b) bayonnoma rasmiylashtirilgan kundan keyingi kun, uch ish kuniga muhokama qilish uchun joylashtiriladi
c) bayonnoma rasmiylashtirilgan kundan keyingi uch kun ichida, besh ish kuniga muhokama qilish uchun joylashtiriladi
d) bayonnoma rasmiylashtirilgan kundan keyingi ish kuni, uch ish kuniga muhokama qilish uchun joylashtiriladi

**54. Tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga qachon joylashtirilishi kerak?**
a) tuzilgan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay
b) tuzilgan kunidan boshlab bir ish kunidan kechiktirmay
c) tuzilgan kundan boshlab etti ish kunidan kechiktirmay
d) tuzilgan kundan boshlab besh ish kunidan kechiktirmay

**55. Tender orqali xaridlarni amalga oshirish uchun necha nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi?**
a) kamida etti nafar a'zodan
b) kamida besh nafar a'zodan
c) toq sondan iborat istalgan miqdorda
d) ko'pi bilan o'n bir nafar a'zodan

**56. Byudjet buyurtmachilari qancha qiymatdagi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xaridini tender orqali amalga oshiradilar?**
a) bir shartnoma bo‘yicha BHMning 6000 baravaridan ortiq
b) bir shartnoma bo‘yicha BHMning 6000 baravarigacha
c) bir shartnoma bo‘yicha BHMning 25000 baravaridan ortiq
d) bir shartnoma bo‘yicha BHMning 25000 baravarigacha

**57. Korportiv buyurtmachilar qancha qiymatdagi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xaridini tender orqali amalga oshiradilar?**
a) bir shartnoma bo‘yicha BHMning 25000 baravaridan ortiq
b) bir shartnoma bo‘yicha BHMning 6000 baravarigacha
c) bir shartnoma bo‘yicha BHMning 6000 baravaridan ortiq
d) bir shartnoma bo‘yicha BHMning 25000 baravarigacha

**58. Davlat xaridini tender o‘tkazish orqali amalga oshirish necha nafar a’zodan iborat t tarkibda xarid komissiyasi tuziladi?**
a) kamida etti nafar
b) kamida besh nafar
c) kamida to‘qqiz nafar
d) ko‘pi bilan besh nafar

**59. Tender yoki tanlash xarid komissiyasi majlisida komissiya a’zolarining qancha qismi hozir bo‘lsa, xarid komissiyasi vakolatli hisoblanadi?**
a) umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi
b) umumiy sonining kamida 60 foizi
c) umumiy sonining kamida 75 foizi
d) umumiy sonining kamida to‘rtdan uch qismi

**60. Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga qachon davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi?**
a) takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida o‘n ikki ish kuni va ko‘pi bilan o‘ttiz ish kuni oldin
b) takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida o‘n besh ish kuni va ko‘pi bilan o‘ttiz ish kuni oldin
c) takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida besh ish

kuni va ko‘pi bilan o‘n ikki ish kuni oldin
d) takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida o‘ttiz ish kuni va ko‘pi bilan qirq besh ish kuni oldin

**61. Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon quyidagilarni qaysi birini o‘z ichiga olmaydi?**
a) zahiradagi g‘olib to‘g‘risidagi ma’lumot
b) tender ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar
c) davlat buyurtmachisining ishtirokchilar bilan bog‘lanish uchun aloqa bog‘lovchi shaxslar sifatida belgilangan shaxslarining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va manzili
d) tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang‘ich narxi

**62. Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda qanday muddatda tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli?**
a) takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida bir ish kuni oldin
b) takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida uch ish kuni oldin
c) istalgan paytda
d) e’londan so‘ng o‘zgartishlar kiritish mumkin emas

**63. Tender ishtirokchisi necha marta taklif berishga haqli?**
a) faqat bitta
b) istalgancha
c) ko‘pi bilan 3 ta
d) ko‘pi bilan 2 ta

**64. Takliflar berish muddati tugagan vaqtda tender ishtirokchilaridan kamida nechta taklif olingan bo‘lsa, tender ishtirokchilarining takliflari xarid komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi?**
a) kamida ikkita
b) kamida uchta
c) kamida bitta
d) kamida beshta

**65. Tender o‘tkazilmagan deb topilsa nima qilinadi?**
a) davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomilini ayni o‘sha

shartlarda hamda ayni o‘sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart
b) davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomiliga o‘zgartirish kiritgan holda takroran amalga oshiradi
c) davlat buyurtmachisi eng yaxshi takliflarni tanlash yoki auktsion orqali ayni o‘sha shartlarda hamda ayni o‘sha mezonlarga va talablarga muvofiq amalga oshirishi shart
d) davlat buyurtmachisi o‘rnatilgan tartibga muvofiq to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar orqali amalga oshiradi

**66. Tender ishtirokchilarining takliflari qancha muddatda ko‘rib chiqiladi va baholalanadi?**
a) takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran qirq besh ish kuni davomida
b) takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran o‘ttiz ish kuni davomida
c) takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran o‘n besh ish kuni davomida
d) takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran o‘n ish kuni davomida

**67. Tenderning ikkinchi bosqichi birinchi bosqichdan o‘tgan nechta taklif mavjud bo‘lganda o‘tkaziladi?**
a) kamida ikkita
b) kamida uchta
c) bitta bo‘lsa ham etarli
d) kamida beshta

**68. Tender bosqichlarida takliflarni ko‘rib chiqish va baholash bayonnomasidan olingan ko‘chirma qancha vaqt davomida davlat xaridlarining elektron tizimida e’lon qilinadi?**
a) imzolangan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida
b) imzolangan kuni
c) imzolangan kundan keyingi ish kuni davomida
d) bayonnoma elektron tizimida e’lon qilinmaydi

**69. Tenderda g‘olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda uning zakalat summasining qancha qismi qaytarilib beriladi?**
a) zakalat summasi qaytarib berilmaydi
b) zakalat summasi to‘liq qaytarib beriladi
c) zakalat summasining ellik foizi qaytarib beriladi
d) zakalat summasining uch foizi qaytarib beriladi

**70. Quyidagilardan qaysi biri davlat xaridlari sohasidagi qonunchilik hujjatlarining to‘g‘ri qo‘llanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirmaydi?**
a) O‘zbekiston Respublikasi tovar xom-ashyo birjasi
b) O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi
c) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
d) O‘zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi

**71. Yangi tahrirdagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida” Qonun qachondan kuchga kirgan?**
a) 2021 yil 22 iyuldan
b) 2021 yil 22 apreldan
c) 2021 yil 12 martdan
d) 2018 yil 9 apreldan

**72. Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM qachon qabul qilingan?**
a) 2018 yil 15 mayda
b) 2021 yil 22 aprelda
c) 2021 yil 12 martda
d) 2018 yil 9 aprelda

**73. Maxsus axborot portali operatorining davlat xaridlarini tashkil etish hamda o‘tkazish borasidagi faoliyati to‘g‘risidagi NIZOM qachon qabul qilingan?**
a) 2018 yil 15 mayda
b) 2021 yil 22 aprelda
c) 2021 yil 12 martda
d) 2018 yil 9 aprelda

**74. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes sub’ektlarini jalb qilishni kengaytirish to‘g‘risida”gi Qarori qachon qabul qilingan?**
a) 2011 yil 7 fevralda
b) 2013 yil 11 iyunda
c) 2015 yil 26 martda
d) 2013 yil 5 aprelda

**75. Qachondan boshlab ro'yxati Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadigan, alohida turdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha davlat xaridlari O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi tomonidan tashkil etiladigan elektron savdolar vositasida amalga oshirilgan?**
a) 2011 yil 1 apreldan boshlab
b) 2011 yil 7 fevraldan boshlab
c) 2015 yil 26 martdan boshlab
d) 2013 yil 5 apreldan boshlab

**76. Davlat ulushi ustuvor bo'lgan tabiiy monopoliyalar sub'ektlari, korxonalar va tashkilotlarning elektron xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi ishchi organi to'g'risida NIZOM qachon qabul qilingan?**
a) 2013 yil 11 iyunda
b) 2015 yil 26 iyunda
c) 2015 yil 26 martda
d) 2013 yil 5 aprelda

**77. Xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo'yicha tender savdolari o'tkazish to'g'risida NIZOM qaysi qaror bilan qabul qilingan?**
a) Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-son qarori bilan
b) Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagi 302-son qarori bilan
c) Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-son qarori bilan
d) Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 20 mart 654-son qarori bilan

**78. Davlat xaridlariga oid savdolar qaysi axborot portalida amalga oshiriladi?**
a) www.xarid.uzex.uz
b) www.uzex.uz
c) www.eshop.uz
d) www.exarid.uz

**79. MChJ «XT XARID TEXNOLOGIYALARI» Qo'shma korxonasining davlat xaridlari maxsus axborot portali qanday nomlanadi?**
a) https://xt-xarid.uz/

b) https:// xarid texnologiyalari.uz/
c) https://qk.xt-xarid.uz/
d) https:// xarid texnologiyalari/xt

**80. “Yashil xaridlar” nima?**
a) energo tejovchi, ijtimoiy va ekologik muhitni yaxshilash uchun amalga oshiriladigan xaridlar
b) tabiiy materiallar va tovarlar xaridi
c) yashil maydonlar qurish bo‘yicha tender savdolari
d) innovatsion mahsulotlari xaridi

**81. Xarid qilish tartib-taomillarining eng yaxshi takliflarni tanlash va tender turlari qachondan majburiy tartibda elektron shaklda o‘tkaziladi?**
a) 2022 yil 1 yanvardan
b) 2021 yil 22 iyuldan
c) 2021 yil 22 apreldan
d) 2022 yil 1 martdan

**82. “Davlat xaridlari to‘g‘risidagi e’lonlarga va xarid hujjatlariga qonunchilikda taqiqlangan hamda raqobatni cheklovchi axborotni kiritiganlik uchun qancha miqdorda jarimaga tortiladi?**
a) bazaviy hisoblash miqdoring 10 baravaridan 15 baravarigacha
b) bazaviy hisoblash miqdoring 5 baravaridan 10 baravarigacha
c) bazaviy hisoblash miqdoring 15 baravaridan 20 baravarigacha
d) bazaviy hisoblash miqdoring 20 baravaridan 25 baravarigacha

**83. Raqobatli xarid usuli vositasida emas, balki qonunga zid holda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar xaridlar qilinganda qancha miqdordagi jarimaga tortiladi?**
a) bazaviy hisoblash miqdoring 15 baravaridan 20 baravarigacha
b) bazaviy hisoblash miqdoring 20 baravaridan 30 baravarigacha
c) bazaviy hisoblash miqdoring 30 baravaridan 40 baravarigacha
d) bazaviy hisoblash miqdoring 25 baravaridan 30 baravarigacha

**84. «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi yangi tahriridagi Qonunga ko‘ra qaysi organ davlat xaridlari ustidan nazorat qiluvchi organlar ro‘yxatiga kiritildi?**
a) O‘zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi

b) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
c) O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi
d) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

**85. Quyidagilardan qaysi biri davlat xaridini tashkil etish modeli emas?**
a) ixtisoslashgan
b) qisman markazlashgan
c) markazlashgan
d) markazlashmagan

**86. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori qachon qabul qilindi?**
a) 2017 yil 23 avgustda
b) 2017 yil 26 iyunda
c) 2018 yil 26 martda
d) 2019 yil 5 aprelda

**87. Yunsitral "Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to‘g‘risida" Qonuni qachon qabul qilingan?**
a) 1994 yil
b) 2007 yil
c) 1998 yil
d) 2002 yil

**88. AQShda federal organlar ehtiyojlari uchun xarajatni amalga oshirish qaysi tashkilot zimmasiga yuklatilgan?**
a) Umumiy Xizmatlar Boshqarmasi(General Services Adminstration)
b) Xarid siyosati Federal Boshqarmasi (Office of Federal Procurement Policy)
c) Milliy mudofaa ehtiyojlari uchun xarid Mudofaa vazirligi (Department of Defense)
d) Energitika sohasidagi tadqiqotlar va rivojlanish Agentligi (Energy Research and Development Agency)

**89. Davlat xaridining predmeti nima?**
a) byudjet buyurtmachilari ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovarlar,

ishlar, xizmatlar
b) davlat ehtiyojlari uchun sotiladigan xom-ashyo materaillar
c) davlat xaridi uchun toʻlanadigan byudjet mablagʻlari
d) byudjet buyurtmachilari ehtiyojlari uchun yoʻnaltiriladigan moliyaviy resurslar

**90. Oʻzbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etish va boshqarish qaysi kodekslar bilan tartibga solinadi?**
a) Oʻzbekiston Respublikasining Budjet kodeksi va Fuqarolik kodeksi bilan
b) Oʻzbekiston Respublikasining Budjet kodeksi va Fuqarolik protsessual kodeksi bilan
c) Oʻzbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, Fuqarolik kodeksi va Soliq kodeksi bilan
d) Oʻzbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, Bojxona kodeksi va Soliq kodeksi bilan

**91. Davlat xaridlari borasidagi munosabatlar Budjet kodeksining qaysi moddasida oʻz aksini topgan?**
a) 121- moddasida
b) 122-moddasida
c) 131-moddasida
d) 132-moddasida

**92. Davlat xaridlari amalga oshirilishi va ularning yakunlari toʻgʻrisidagi e'lonlar belgilangan tartibda qaysi axborot portalida joylashtirilishi shart?**
a) davlat xaridlari boʻyicha maxsus axborot portalida
b) Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining maxsus veb-saytida
c) xaridni amalga oshiruvchi tashkilotlarning veb-saytida
d) xaridni amalga oshiruvchi tashkilotldan yuqori turuvchi tashkilotrning veb-saytida

**93. Oʻzbekiston Respublikasining "Xoʻjalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi toʻgʻrisida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?**
a) 1998 yil 29 avgustda
b) 2000 yil 21 noyabrda
c) 2003 yil 3 iyulda

d) 1998 yil 29 aprelda

**94. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 302-sonli “Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadibirlari to‘g‘risida”gi Qarori qachon qabul qilingan?**
a) 2003 yil 3 iyulda
b) 1998 yil 29 avgustda
c) 2000 yil 21 noyabrda
d) 1998 yil 29 aprelda

**95. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 456-sonli “Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qachon qabul qilingan?**
a) 2000 yil 21 noyabrda
b) 2003 yil 3 iyulda
c) 1998 yil 29 avgustda
d) 2000 yil 29 aprelda

**96. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridi to‘g‘risida”gi ilk Qonuni qachon qabul qilingan?**
a) 2018 yil 9 aprelda
b) 1918 yil 27 avgustda
c) 2017 yil 29 avgustda
d) 2016 yil 19 avgustda

**97. Yunsitral “Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to‘g‘risida” qonuni qaysi mamlakatlarda davlat buyurtmasini joylashtirish buyicha model sifatida ishlab chiqilgan?**
a) Sharqiy Evropa mamlakatlarida
b) BMTga a’zo mamlakatlarda
c) Jahon bankiga a’zo mamlakatlarda
d) AQSH va Evropa mamlakatlarida

**98. Davlat xaridini tashkil etishni markazlashgan modelida- …**
a) bunda xarid uchun buyurtmalarni joylashtirish maxsus tashkilot yoki ijroiy hukumatning yagona tarkibiy bo‘linmasi - xaridni tashkil etuvchi tomonidan amalga oshiriladi
b) bunda davlatning buryutmachisi o‘z ixtisosligi buyicha xaridga buyurtmani alohida amalga oshiradi

c) bunda xaridga buyurtmani joylashtirish vakolati davlat buyurtmachisi va ixtisoslashgan tashkilot bilan hamkorlikda amalga oshiradi
d) bunda xarid uchun buyurtmalarni joylashtirish maxsus tashkilot yoki ijroiy hukumatning bir necha tarkibiy bo'linmasi - xaridni tashkil etuvchilar tomonidan amalga oshiriladi

**99. Davlat xaridini tashkil etishni markazlashmagan modelida- ……**
a) bunda davlatning buryutmachisi o'z ixtisosligi buyicha xaridga buyurtmani alohida amalga oshiradi
b) bunda xaridga buyurtmani joylashtirish vakolati davlat buyurtmachisi va ixtisoslashgan tashkilot bilan hamkorlikda amalga oshiradi
c) bunda xarid uchun buyurtmalarni joylashtirish maxsus tashkilot yoki ijroiy hukumatning bir necha tarkibiy bo'linmasi - xaridni tashkil etuvchilar tomonidan amalga oshiriladi
d) bunda xarid uchun buyurtmalarni joylashtirish maxsus tashkilot yoki ijroiy hukumatning yagona tarkibiy bo'linmasi - xaridni tashkil etuvchi tomonidan amalga oshiriladi

**100. Geografik belgilariga ko`ra qanday tender savdolari mavjud?**
a) xalqaro, milliy, mahalliy
b) xalqaro, milliy
c) xalqaro, mahalliy
d) xalqaro, milliy, mahalliy,mintaqaviy

# FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. O‘zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-son Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentabrdagi PQ-3953-sonli Qarori
3. Андреева Л.В. Закупки товаров для федеральных государственных нужд: правовое регулирование. М.: Волтерс Клувер, 2009.
4. Барихин А.Б. Большой юридический энциклопедический словарь. 2-е издание, перераб. и доп. М.: Книжный мир, 2008. С. 208.
5. Белов В.Е. Правовое регулирование размещения государственного заказа // Право и экономика. 2005. № 2.
6. Burxonov U.A., Atamuradov T.T. “Davlat xaridi” O‘quv qo‘llanma. Fan va texnologiya - 2012 yil.
7. Демин А.А. Государственный заказ как фактор развития государственного сектора трансформационной экономики: теоретико-экономические аспекты: Дисс. … канд. экон. наук. Челябинск, 2007.
8. Давлетшина Л.М. Государственный заказ как инструмент проведения промышленной политики (на примере Республики Татарстан): Дисс. … канд. экон. наук. Казань, 2007. С. 47; Гладков В.С. Государственный заказ в сфере государственного управления экономикой: Дисс. … канд. юрид. наук. Ростов-на-Дону, 2008. С. 14.
9. Загорский И. О., Ланюгова А.Э., Якунин Д.В. Система закупок 2020: учеб. пособие. Тихоокеанский государственный университет- Хабаровск: Изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2020. – 349 с.
10. Канкулова М.И., Чалая И.С.. Организация закупок товаров, работ и услуг отдельными видами юридических лиц. Сборник практических заданий: учебное пособие / – СПб. : Изд-во СПбГЭУ, 2018. – 85 с.
11. Мартыненко Г.И. Размещение заказов на поставки товаров, выполнение работ, оказание услуг для государственных и муниципальных нужд, антимонопольный контроль // Право и экономика. 2006. № 10.
12. Malikov T., Olimjonov O. Moliya. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. - 920 b.
13. Набиев Р.А., Арыкбаев Р.К. Повышение эффективности бюджетных расходов системы государственных заказов и закупок // Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях. 2008. № 15.
14. Настольная книга госзаказчика / Под ред. А.А. Храмкина. 4-е издание, доп. М.: ИД «Юриспруденция», 2008.

15. Нестерович Н.В., Смирнов В.И. Конкурсные торги на закупку продукции для государственных нужд / Под ред. А.Г. Свинаренко. М.: ИНФРА-М, 2000.

16. Пикулик А.В. Управление государственными закупками: Монография. М.: Издательский дом «Финансовый контроль», 2006. С. 23.

17. Ревина С.Н., Паулов П.А., Борякин Д.В. Управление закупками и заказами: учеб.пособие /. - Самара: Изд-во Самар. гос. экон. ун-та, 2019. 182 с.

18. Самолысов П.В., Булгакова М.А.. Контрактная система в сфере государственных закупок в России: учебник. – М.: Академия управления МВД России, 2020. – 302 с.

19. Смотрицкая И.И. Развитие рынка государственных заказов: институты и механизмы (научный доклад). М., 2007. С. 7; Смотрицкая И.И. Экономика государственных закупок. М.: Книжный дом «ЛИБЕРКОМ», 2009. С. 22.

20. Фрыгин А. В., Седова М. В.. Контрактная система: развитие финансового механизма государственных и муниципальных закупок: Монография,-2-е изд. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2018. - 226 с.

21. Юзвович Л. И, Исакова Н. Ю., Истомина Ю. В., Харжавин К. Е., Гоголина И. Н. Система государственных закупок: теоретический и практический аспекты: монография. Уральский федеральный университет - Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2019. — 233 с. — ISBN 978-5-7996-2850-5

## Axborot manbalari:

1. https://www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali)
2. http://www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
3. https://www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Statistika Davlat qo‘mitasi)
4. https://www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi)
5. https://www.xarid.uz (Davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portali)
6. https://www.xarid.uzex.uz (Davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portali)
7. https://www.xt-xarid.uz (Davlat xaridlari elektron tizizmi)
8. https://www.uzex.uz (O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi sayti)

# ILOVALAR

## 1-ilova. Davlat buyurtmachilari tomonidan 2021 yilda amalga oshirilgan davlat xaridlari miqdori[35]




## 2-ilova. Davlat buyurtmachilari tomonidan 2021 yilda amalga oshirilgan davlat xaridlarining xarid turlari kesimidagi ulushi[36]




[35] https://www.mf.uz/media/file_uz/davlat_xaridlari/2021davomi/2021.pdf
[36] https://www.mf.uz/media/file_uz/davlat_xaridlari/2021davomi/2021.pdf

## 3-ilova. Davlat buyurtmachilari tomonidan 2021 yilda amalga oshirilgan davlat xaridlarining xarid turlari kesimidagi ulushi[37]




## 4-ilova. Davlat buyurtmachilari tomonidan 2021 yilda amalga oshirilgan davlat xaridlarining hududlar kesimidagi ulushi[38]




| | |
|---|---|
| Andijon viloyati | 2 883 |
| Buxoro viloyati | 3 473 |
| Jizzax viloyati | 2 423 |
| Qashqadaryo viloyati | 4 383 |
| Navoiy viloyati | 2 192 |
| Namangan viloyati | 3 738 |
| Samarqand viloyati | 4 290 |
| Surxondaryo viloyati | 3 870 |
| Sirdaryo viloyati | 1 436 |
| Toshkent shahri | 15 176 |
| Toshkent viloyati | 4 486 |
| Farg'ona viloyati | 3 645 |
| Xorazm viloyati | 2 503 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 2 510 |

[37] https://www.mf.uz/media/file_uz/davlat_xaridlari/2021davomi/2021.pdf
[38] https://www.mf.uz/media/file_uz/davlat_xaridlari/2021davomi/2021.pdf

## MUNDARIJA

KIRISH ........ 3
I QISM. ........ DAVLAT XARIDLARINING ILMIY-NAZARIY VA TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI ........ 5
1-BOB. "DAVLAT XARIDI" FANINING OBYEKTI, PREDMETI, METODI VA BOSHQA FANLAR BILAN O'ZARO ALOQADORLIGI 5
1.1. "Davlat xaridi" fanining mazmuni va uni o'qitishning zaruriyati .... 5
1.2. "Davlat xaridi" fanining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari .. 7
1.3. "Davlat xaridi" fanining metodlari va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi ........ 8
2-BOB. DAVLAT XARIDLARINING MOHIYATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI ........ 13
2.1. Davlat xaridining mohiyati va zaruriyati ........ 13
2.2. Davlat xaridi tizimining subyektlari va xarid predmeti ........ 15
2.3. Davlat xaridiga oid nazariy qarashlar ........ 23
3-BOB. DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHNING MILLIY VA XALQARO HUQUQIY ASOSLARI ........ 32
3.1. Davlat xaridlarini tartibga soluvchi milliy qonunchilik ........ 32
3.2. Davlat xaridi tizimidagi munozabatlarni tartibga soluvchi xalqaro qonunchilik ........ 51
4-BOB. DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISH MODELLARI ... 55
4.1. Davlat xaridlarini tashkil etish modellari ........ 55
4.2. Davlat xaridining tashkiliy shakllari ........ 58
4.3. Davlat xaridlarining asosiy prinsiplari ........ 59
5-BOB. DAVLAT XARIDLARI JARAYONIGA DOIR UMUMIY TALABLAR ........ 63
5.1. Davlat xaridlari jarayoni va bosqichlari ........ 63
5.2. Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlari tavsifiga va shartnoma shartlariga taalluqli qoidalar ........ 65
5.3. Davlat buyurtmachilari bilan tuzilgan shartnomalar reestri va insofsiz ijrochilarning yagona reestri ........ 71
II QISM. ........ DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHRISHNING TARTIB-TAOMILLARI ........ 74
6-BOB. ELEKTRON DO'KON ORQALI DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISH TARTIBI ........ 74
6.1. Elektron do'kon tushunchasining mohiyati ........ 74
6.2. Elektron do'konda takliflarning joylashtirilishi ........ 75
6.3. Elektron do'konda xarid qilish tartib-taomilini o'tkazish tartibi .... 76

6.4. Elektron do‘konda to‘lovni o‘tkazish va shartnoma shartlarini bajarilish tartibi ........ 78
7-BOB. BOSHLANG‘ICH NARXNI PASAYTIRISH UCHUN O‘TKAZILADIGAN AUKSION ........ 80
7.1. Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksionning mohiyati va uni o‘tkazish mezonlari ........ 80
7.2. Auksionni o‘tkazish tartibi ........ 81
7.3. Elektron auksionda to‘lovni o‘tkazish va shartnoma shartlarini bajarilish tartibi ........ 83
8-MAVZU. ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH ........ 85
8.1. Eng yaxshi takliflarni tanlash tushunchasi va uni o‘tkazish mezonlari ........ 85
8.2. Eng yaxshi takliflarni tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon va tanlov hujjatlari ........ 85
8.3. Eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchilarining takliflarini berish, tanlashni o‘tkazish va g‘olibni aniqlash tartibi ........ 88
8.4. Tanlash natijalarini rasmiylashtirish ........ 90
9-BOB. TENDER ORQALI DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISH ........ 92
9.1. Tender savdolarining mohiyati va o‘tkazish mezonlari ........ 92
9.2. Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon va tender hujjatlari ........ 92
9.3. Tender ishtirokchilarining takliflarini berish, takliflarini ko‘rib chiqish va baholash tartibi ........ 95
9.4.Tender natijalari bo‘yicha shartnoma tuzish ........ 98
10-BOB. TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI SHARTNOMALAR BO‘YICHA AMALGA OSHIRILADIGAN DAVLAT XARIDLARI ........ 100
10. 1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi ........ 100
10.2. Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi ........ 101
10.3. Davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ........ 102
III QISM. ........ DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI ........ 110
11-MAVZU. XARID QILISH TARTIB-TAOMILLARINI MONITORING VA NAZORAT QILISH ........ 110
11.1 Davlat tomonidan davlat xaridlari sohasini tartibga solish ........ 110
11.2. Xarid qilish tartib-taomillarini monitoring va nazorat qilish ........ 112
11.3. Davlat xaridlari bo‘yicha shikoyatlarni berish va ko‘rib chiqish tartibi ........ 114

11.4. Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik choralari ........ 116
12-BOB. DAVLAT XARIDLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI ........ 118
12.1. Davlat xaridlari tizimini takomillashtirishning zaruriyati ........ 118
12.2 Elektron davlat xaridlarini kengaytirish ........ 120
12.3.“Yashil” iqtisodiyot va “yashil” davlat xaridlari ........ 123
12.4. Davlat xaridlari sohasida foydalaniladigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yagona milliy klassifikatorini yuritish qoidalari ........ 124
GLOSSARIY ........ 129
FAN YUZASIDAN TEST SAVOLLARI ........ 171
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI ........ 193
ILOVALAR ........ 195

**U.YU.O‘ROQOV**

# DAVLAT XARIDI

*(O‘quv qo‘llanma)*

**Toshkent – «NIHOL PRINT» OK – 2022**

Muharrir: Q.Matqurbonov
Tex. muharrir: A.Tog‘ayev
Musavvir: B.Esanov
Musahhiha: O.Muxammadiyeva
Kompyuterda sahifalovchi: G.Tog‘ayeva

9323

№ 7439-765f-47f1-7ea1-a683-4648-1314.
Bosishga ruxsat etildi: 16.06.2022. Bichimi 60x84 1/16.
Shartli bosma tabog‘i 12,75. Nashr bosma tabog‘i 12,5.
Adadi 100. Buyurtma № 194.

«Nihol print» Ok da chop etildi.
Toshkent sh., M. Ashrafiy ko‘chasi, 99/101.